

O‘ZBEK TILI O‘QITISH METODIKASI

(Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari)

Toshkent – 2011

Tuzuvchilar:

Boqijon To‘xlijev – O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri,

filologiya fanlari doktori, professor.

Oytoji Oxunjonova – O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası dosenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Davlatyor Jumashv – O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: Nizomiddin Mahmudov – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti «O‘zbek tilshunosligi» kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Ne‘mat Mahkamov – O‘z FA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

«O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» fani bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. U til ta‘limining nazariy hamda amaliy jihtlarini o‘rgatadi. Ayni paytda u til ta‘limining zamonaviy usullari bilan tanishtiradi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni, ularni amalga oshirish usullari yoritib berilgan. Qo‘llanma «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» o‘quv fan dasturi va ishchi o‘quv fan dasturi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, oliy ta‘limning bakalavriat bosqichi talabalariga mo‘ljallangan.

«Ta'lim bosqichlarida ona tili bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash. Dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tuzilishi, tarkibi va tahlili» mavzusidagi Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot	
Mavzu rejasi	1. Ta'lim bosqichlarida ona tili bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash. 2. Dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tuzilishi, tarkibi va tahlili. 3. Xulosa.	
Darsning maqsadi	Talabalarni dars ishlanmasi, dastur, darslik, o'quv qo'llanmalarining mazmuni, turlari. ularning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish. Ularning fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini o'stirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:	
<ul style="list-style-type: none"> • ta'lim bosqichlarida ona tili bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash to'g'risida tushuncha berish; • dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tuzilishi, tarkibi va tahlil qilish usulini o'rgatish 	<ul style="list-style-type: none"> • ta'lim bosqichlarida ona tili bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash to'g'risida tushuncha berish; • dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning tuzilishi, tarkibi va tahlilini bilish 	
Ta'lim berish usullari	Amaliy mashg'ulot, suhbat	
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor, tarqatmalar.	
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob	
Dars turi	Yangi bilim berish va mustahkamlash	
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	O'qitish usullari: og'zaki bayon, savol-javob, «3x3», «Bu bizniki»	
	O'qitish shakllari: yalpi, yakka, guruhlarda ishlash.	
	O'qitish vositalari: proektor, slaydlar, flipchart, marker.	
	Monitoring va baholash: og'zaki va yozma nazorat, rag'batlantirish, 5 balli tizimda baholash.	
Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish	1.1. Mavzuni aytadi. Ekraniga «O'quv dasturlarining tarkibi va mazmuni» mavzuning mundarijasini tashkil etuvchi bandlar ro'yxatini chiqaradi va ularga qisqacha ta'rif beradi. (1-	Tinglashadi, ko'rishadi.

(15 daqiqa)	ilova) 1.2. Mavzu, birinchi mashg'ulotning maqsadini aytadi. 1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish va barchani faollashtirish uchun muammoli savol bilan murojaat etadi: Dastur va darsliklar haqida nimalarni bilasiz?	bir-birining fikriga munosabat bildirishadi, fikrlarni umumlashtirishadi
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	2.1. Ekranga «Dasturlarning tarkibi» degan matnni chiqaradi va o'qib beradi. (2-ilova) 2.2. Matn mazmuni yuzasidan fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat etadi (3- va 4-ilovalar) 2.3. Darslik haqidagi matnni ekranga chiqaradi (5-ilova) matn asosida topshiriqlar beradi. (6-ilova), «Bu bizniki» ta'limiy usulini o'tkazadi. (7-ilova)	Ko'rishadi, tinglashadi. Fikrlashadi, klasster tuzishadi, munosabat bildirishadi, javob berishadi. Topshiriqlarni bajarishadi, guruhlariga ajralishadi, yozadi va o'qib beradilar
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, faoliyat natijalarini izchillikda izohlab beradi, baholaydi. 3.2. O'quvchilar tushunmagan ayrim jihatlarga savollarga javob berish orqali aniqlik kiritadi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun uy vazifasi beradi: «Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining o'quv dasturi» mavzusida ijodiy insho yozish	Tinglaydi, xulosa chiqaradi Savollar beradilar. Mustaqil ish uchun insho mavzusini yozib oladilar.

Esda saqlang:

Har qanday o'quv jarayonini tashkil etish ancha murakkabliklarga ega. Insoniyat o'qish va o'qitish tarixida juda ko'p shakl va usullarni ixtiro qilgan. Bunday izlanishlar uzluksiz tarzda davom etadi.

Bu boradagi dastlabki ixtiro Suqrotning nomi bilan bog'liq. U yo'naltiruvchi savollarga tayangan holda o'rganuvchilarni yangi narsa, hodisalarning mohiyatini bilishga chorlagan. Shuning uchun ham bu usul suqrotona ta'lim usuli sifatida e'trof etilgan.

Ta'limda dogmatik usul ham mavjud. Bu ko'proq qadimgi diniy maktablar tajribasi orqali ommalashgan. Uning asosiy mohiyati eshitish, o'qish, mexanik tarzda yod olish va so'zma-so'z qaytarishdan iborat bo'lgan.

Endilikda rivojlantiruvchi ta'lim tobora kengroq yoyilib bormoqda. Uning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdardagi mustaqil, ijodiy faoliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Tushuntiruvchi-illyustrativ ta'limda ko'rgazmalilikka urg'u beriladi. Bu erda ko'proq o'qituvchining bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda ko'rgazma va namoyish etiladigan ashyolardan foydalanishi hamda ular asosida o'rgavnuvchilarning amaliy harakatlarni bajarishi nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida keng yoyilgan usullardan yana biri muammoli ta'lim nomini olgan. Uning asosiy mohiyatini yirik psixolog S.L.Rubinshteynning inson ongining o'zida mantiqiy ziddiyatlarni mujassamlashtirgan bilishga oid muammolarni hal qilish orqali rivojlanish usuli haqidagi qarashlari tashkil etadi.

Keyingi paytlarda programmalashtirilgan ta'lim, modulli ta'lim singari ko'rinishlar ham omalashib bormoqda. Bularning barchasi sinfdars tizimi orqali amalga oshiriladi. Uning sinf deyilishiga sabab shuki, o'qituvchi ma'lum bir yoshdagi, barqaror tarkibli guruhdagi o'quvchilar bilan ish olib boradi. Dars degan so'zning qo'llanishi esa uning muayyan bir vaqt oralig'ida (30, 45, 80, 90 minut) amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bularning barchasi tegishli hujjatlar asosida tashkil etiladi. Darslar namunaviy dastur asosida tashkil etiladi. Namunaviy dasturga tayanilgan holda ishchi o'quv dasturlari tuziladi. Namunaviy dastur o'rganilayotgan fanning asosiy yo'nlishlarini, ya'ni nimalarni o'rganish zarurligini qvt'iy tarzda belgilab beradi. Ishchi o'quv dasturlari esa ta'limning ish jarayonidagi vazifalarni aniq ko'rsatib beradi, ya'ni belgilangan vazifalarni qaytrazda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ana shu hujjat asosida dars ishlanmasi tuziladi. Dars ishlanmasida belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshiriladigan ishlar rejalashtiriladi.

U konspekt, mashg'ulotning qisqacha rejasi, mashg'ulotning texnologik xaritasi tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

1-илова

O'quv dasturlarining tartibi va mazmuni

№	Bo'limlar	Qisqacha mazmuni
1	Dasturning tarkibi	Dastur tegishli o'quv predmeti, fan bo'yicha tuziladi. Kirish (uqtirish xati), asosiy qismdan iborat bo'ladi.
2	kirish	Kursning mohiyati haqida, undagi yangiliklar va o'ziga xosliklar to'g'risida ixcham ma'lumotlar beriladi
3	Kurs (fan, predmet)nin	«O'zbek tili o'qitish metodikasi» fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda o'qitishning eng qulay va zamonaviy metod va

	g maqsadi	usullaridan ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olish bo'yicha bilim, talabalarni ona tili o'qituvchisining kasbiy faoliyati haqidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirish; ko'nikma va malaka shakllantirishdir.
4	Qo'yilgan vazifalar	talabalarga o'zbek tilini o'qitish metodikasining ilg'or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish; ona tiliga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini o'rganish; ularda dastlabki kasbiy – pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishga o'rgatishdan iborat.
5	Nazariy qism: talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talabalar	<p>bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini; ona tili o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirish; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni jalb qila bilishi kerak; - o'zbek tili o'qitish metodikasi bo'yicha maktab, AL, KHKlari ta'limining mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; ona tili darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olishi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish malakalariga ega bo'lishlari lozim.
6	Fanni o'zlashtirish uchun qo'shimcha talabalar	O'zbek tili o'qitish metodikasi fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 5–semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi falsafa, mantiq, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, adabiyot nazariyasi, hozirgi o'zbek adabiy tili, tilshunoslikka kirish, shevashunoslik kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.
7	Nazorat va baholash shakllari	Talabani «O'zbek tilini o'qitish metodikasi» fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi: Umumiy ball – 100 ball. Saralash bali – 55 ball. Joriy va oraliq baholashlarga 70 ball, yakuniy baholashga 30 ball.
	Adabiyotlar ro'yxati	Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati tasiya etiladi.

2-ilova

Dasturlar haqida

Kursning mazmuni va tuzilishi davlat dasturi bilan belgilanadi. Unda davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan

bilim mazmuni va hajmi, ko'nikma va malakalarning turlari, metodologik hamda pedagogik printsiplari, o'qitishdagi o'ziga xos metodologiya hamda pedagogik-metodik talablar ixcham tarzda bayon etiladi.

Mustaqilligimiz bilan bog'liq holdagina ona tili dasturi-ning bir necha avlodi yaratildi. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, davlat ta'lim standartlarining yaratilishi, yangi o'quv rejalari-ning ishlab chiqilganligi, ijtimoiy - ma'naviy hayotdagi yangilashlar dasturlarni ham qayta ko'rib chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Dastur eng muhim davlat hujjati bo'lib, uni bajarish majburiydir. O'qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to'la va samarali amalga oshirishdan iborat. Shunga ko'ra ham o'qituvchi uni to'la bilishi, uning barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Dastur o'qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy yo'l ko'rsatuvchi manbadir. Unda amaliy harakatga ko'rsatma ham, ixcham ma'lumotnoma ham mujassamlashgan. Ilgari dasturlar umumta'lim maktablarining barcha bo'g'inlarini (I - IX yoki V-XI sinflar) qamrab olardi. "Ta'lim haqida"gi yangi Qonun ta'lim tizimiga bir qator yangiliklarni olib kirdi. Unga ko'ra endi umumiy o'rta ta'lim I - IX sinflarni qamraydi. Bundan keyin esa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshlanadi. Demak, dasturlar ham shundan kelib chiqqan holda boshqa - boshqa bo'ladi.

Umuman, dasturda ona tili kursi to'raligicha tavsiflab beriladi. Har bir sinfdagi ona tili kursining mazmuni va ish tartibi, har bir mavzuning mohiyati muayyanlashtiriladi. Unda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ilmiy-nazariy tushunchalar, nutq o'stirish, ona tili fanidan o'tkazilishi ko'zda

tutilgan og‘zaki va yozma ish turlari, predmetlararo aloqa, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriq va mashqlar tizimi beriladi.

Davlat dasturini bajarish asosida o‘qituvchi o‘quvchilardagi ona tiliga, ona Vataniga muhabbat, ijodkorlik, ijodiy faollik, yuksak axloqiy-ma’naviy xislatlarni takomillashtirish va o‘stirishga asosiy e’tibor bermog‘i lozim.

Dasturlarda, jumladan, Akademik litseylar uchun tuzilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» dasturida□ ta’lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka alohida ahamiyat berilgan. Dastur bo‘yicha ona tiliga 240 soat ajratilgan bo‘lib, uchta bosqichga 80 soatdan taqsimlangan. Hozirgi kunda akademik litseylarning barcha bosqichlari uchun darsliklar shu dastur asosida yaratilmoqda.

«Ona tili va adabiyot» dasturida□ asosiy mavzular ona tilining izchil kursini taqdim etishga qaratilgan.

Darsliklar fanning mohiyatiga, o‘quvchining yoshiga, uning bilim darajasi va umumiy adabiy tayyorgarligiga qarab tuziladi. Odatda, har bir darslikning bosh qismidagi «Kirish», «Muqaddima», «O‘quvchilarga» deb nomlanadigan qismda umumiy maqsad va vazifalar bir qadar muayyanlashtiriladi. Jumladan, Akademik litseylarning 2-bosqichi uchun yaratilgan darslikning «Kirish» qismida, shunday deyiladi: «Ma’lumki, til hodislari nutqda voqe bo‘ladi. Har bir xalq asrlar davomida o‘z tili ustida ishlab sayqallashtirib, uni go‘zallashtirib boradi. Xalqning ijtimoiy hayotida ro‘y bergan barcha o‘zgarishlar uning tilida, birinchi galda lug‘at jamg‘armasida o‘z aksini topib boradi. Shu ma’noda so‘z va uning xususiyatlari haqida ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lish, nutqda so‘zlardan o‘rinli foydalana olish

jonajon O'zbekistonimizning kelajagi sanalgan Siz – yoshlar uchun nihoyatda muhim sanaladi». «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalarining o'z fikrlarini yozma va og'zaki ravishda emin-erkin bayon qila olishlari lozimligi qayta-qayta ta'kidlangan»□.

3-ilova

Savol va topshiriqlar:


- 1. Dastur nima? Ona tili dasturlarining rivojlanish jarayoni qanday kechmoqda?**
- 2. Dastur va darsliklardagi tafovutlarni aniqlang.**
- 3. Sinflar orasidagi uzviylik va uzluksizlikka e'tibor bering. Uzviylik ta'minlangan o'rinlarni misollar asosida ko'rsating.**
- 4. Dasturda nazariy ma'lumotlarning sinflararo uzviyligiga e'tibor bering. Fikringizni misollar asosida izohlang.**

4-ilova

Matn mazmuniga doir savol va topshiriqlar

1. "Dasrlik" tushunchasini ifoda etuvchi "Klasster" usulini bajaring. Uni musobaqa tarzida tashkil eting.

Namuna:



5-ilova

Ona tili darsliklari

Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylandi. Shu bois «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv-adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi» talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilyapti. Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'lari hisobidan «Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish» loyihasi doirasida yangi avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ona tili darsliklarining yangi avlodi maydonga keldi. 5-sinf uchun «Ona tili» darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboevalar muallifligida yaratildi. 6-sinf uchun «Ona tili» darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirovlar, 7-sinf darsligi, 8-sinf darsligi M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullaevlar, 9-sinf darsligi H. Ne'matov, N. Mahmudov, A. G'ulomov, R. Sayfullaeva, M. Abduraimovalar tomonidan yaratilgan.

5-sinf uchun darslik o'quvchiga murojaat bilan boshlanadi. U dasturga muvofiq tarzda ona tili haqidagi boshlang'ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan ixcham nazariy lavha

bilan boshlangan. Dastlab tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ixcham kirish suhbatlari berilgan.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo'lingan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Kirish.
2. Takrorlash.
3. Sintaksis va punktuatsiya.
4. Morfologiya.
5. Fonetika. Grafika
6. Leksikologiya.
7. O'quv yili oxirida takrorlash.

Har bir ruku ichida rang-barang topshiriqlar berilgan. Ularni bajarish uchun turli uslub va janrlardagi matnlar tavsiya etilgan.

Masalan, «Kirish»da dastlab ikkita topshiriq berilgan. Ulardan keyin tilning ijtimoiy xususiyatini yoritib berishga oid matn namunasi beriladi. So'ng «bilib oling» degan alohida bandeda ixchamgina xulosa chiqarilgan. Navbatdagi qism o'quvchilarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan mashqlarga aloqador. 1-mashq «Quyidagi so'zlarning o'zbek tilida paydo bo'lish sabablarini aniqlang» deyiladi. Ular kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat so'zlaridan iborat.

Keyingi mashq til haqidagi matnni o'qib, o'z fikrini aytib berishni talab qilishga mo'ljallangan. So'ng maqollarni ko'chirish va yodlash vazifasi berilgan. Uning izidan topishmoqlarning javobini topish talab etiladi. 1-dars oxiridagi bir nechta savollar berilgan. Kitobda rasmga qarab hikoya tuzish, turli matn namunalarini yaratish singari topshiriqlar o'quvchilardagi mustaqil, ijodiy fikrlashga rag'bat uyg'otadi, ularning bu sohadagi ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiradi.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta'minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Birinchi mavzusi uchun 6 ta, ikkinchi mavzu uchun 3ta, uchinchi mavzu uchun 4 ta savol va topshiriqlar tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar o'rganilishi lozim bo'lgan materialning hajmi, xarakteri va undan ko'zda tutilgan maqsad bilan bog'liq holda tuziladi. Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar muayyan til hodisasi haqidagi yangi ma'lumotlarni bilishga qaratilgan. Ayrim savollarda boshqa o'quv predmetlari, san'at turlari bilan aloqadorlik nazarga olingan. Yana bir turkum savollar esa

o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi ularga ijodiy tarzda yondashishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, savol va topshiriq-larni o'zlari tuzishlari mumkin. Bunda o'quvchilarning faollik darajasi keskin ortadi. Ularning matn mazmunini o'zlashtirishlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi, eng muhimi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi jonli bir holat, qulay vaziyat maydonga keladi.

Ba'zi savollar voqealarning izchilligi, mantiqiyligini («Matnni o'qib bo'limlarga ajrating va har bir bo'limga sarlavha qo'ying») kuzatishga undasa, yana ba'zilari ularni ijodiy fikrlashga da'vat etadi («Qarisi bor uyning parisi bor» mavzusida matn tuzing). Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan («Rasm asosida hikoya tuzing») savollar ham darslikda anchagina.

Topshiriqlarda ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqarti-rib hikoya qilish singari ko'rinishlar mavjud. Ular o'quvchilar-ning og'zaki nutq malaklarning ortishiga omil bo'ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo'naltirilgan topshiriqlar ham bor. 5-sinf darsligida nazariy tushunchalar elementar tarzda taqdim etilgan.

Ona tilini uning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'rganishning boshlanishi etuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. 5-sinf darsligi bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o'zbekcha so'z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab etishlari uchun dastlabki qadamlar qo'yiladi. Ammo har bir matnning o'ziga xos tarzdagi yondashuvlarni taqozo etishini ham unutmashlik kerak.

Dastur va darsliklarda o'rganilishi ko'zda tutilgan matnlar badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko'ra tanlangan, asar tahlilida bir xil fikrlash va bir qolipdagi mulohazalar yuritishdan voz kechilgan. Shunga qaramay, ayrim holatlarda, nazarimizda, badiiyati unchalik yuksak bo'lmagan namunalariga ham o'rin berilgan.

Darsliklar bilan birgalikda o'qituvchi uchun metodik qo'llanma yaratilmoqda. Metodik qo'llanmada har bir darsning o'qitish metodikasi, darslikdagi mavzularga qo'shimcha ma'lumotlar, mashg'ulotlar, topshiriqlar o'rin olayapti, bu esa o'qituvchiga har bir darsni mazmunli qilib o'tishiga imkon tug'diradi.

6-ilova

Savol va topshiriqlar:

1. 5-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar bilan yaqindan tanishing. Ularning dastur bilan uyg'unlik darajasiga baho bering.
2. 6-sinf darsligida alohida til sathlarining qanday yoritilganligiga e'tibor bering. Ulardagi materiallarni mantiqiy qismlarga ajrating. Hamma til sathlari uchun umumiy bo'lgan o'rinlarni, alohida til sathlari uchungina qo'llangan usullarni ajrating.
3. Badiiy matnning taqdim etilish shakliga e'tibor bering. 7-sinf misolida matnlarga beriladigan topshiriq va izohlar tizimini o'rganib chiqing.
4. 8-sinf darsligidan nazariy materiallarning berilishini kuzating. Ularning o'quvchilar yoshiga hamda adabiy tayyorgarligiga munosibligi haqidagi o'z fikringizni asoslang.
5. Har bir sinf darsligidagi savol va topshiriqlar tizimini o'rganib chiqing. Ularda o'quvchini bevosita ijodiy ishlarga undaydiganlarining salmog'ini aniqlang. Bunday topshiriqlarni ko'paytirish uchun nimalar qilinishi mumkinligi haqida o'z fikringizni bildiring.
6. Darsliklarda mualliflarning tili qaysi darajada aks etgan. Ularning har bir sinf o'quvchilari uchun munosiblik darajasiga baho bering.

7-ilova

“Bu bizniki ” ta'limiy o'yinini o'tkazish tartibi

- mazkur ta'limiy o'yin darsliklar bilan ishlash b o'yicha bilim va ko'nikmalarni takrorlash uchun o'tkaziladi;
- talabalar olti guruhga bo'linadi;

2-mavzu	Morfologiyani o‘qitish metodikasi. So‘z turkumini o‘rgatish metodikasi. Fe‘l (ot, sifat, son, olmosh, ravish) so‘z turkumini o‘qitish metodikasi va usullari.
----------------	--

Ta‘lim berish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Morfologiyani o‘qitish metodikasi tarkibi va mazmuni bo‘yicha umumiy tushuncha berish, so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasi bilan yaqindan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> • morfologiyani o‘qitish metodikasi to‘g‘risida tushuncha berish; • fe‘l so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi haqida ma‘lumot berish; 	O‘quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none"> • morfologiyani o‘qitish metodikasi to‘g‘risida tushuncha berish; • fe‘l so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi tushuncha.
Ta‘lim berish usullari	Amaliy mashg‘ulot, suhbat
Ta‘lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta‘lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, proektor, tarqatmalar.
Ta‘lim berish sharoiti	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. (1- ilova). 1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi. (2-ilova)	Tinglaydilar Tinglaydilar savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish. 2.2. Morfologiyani o‘qitish metodikasining tarkibi va mazmuni 2.3. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi. 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi. (3-ilova)	Tinglaydilar, yozadilar. Savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun	Savollar beradilar Vazifani yozib

	«Umumta'lim, AL va KHKda morfologiyaning o'qitilishi haqida» mavzusida referat yozish topshiriladi.	oladilar.
--	---	-----------

1-ilova

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida morfologiya kursining tarkibi va mazmuni.
2. Akademik litseylarda mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi.
3. Kasb-hunar kollejlarda ona tili o'qitish kursining tarkibi va mazmuni hamda so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi.
4. Xulosa.

2-ilova

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

<i>Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>1- guruh</i>	<i>2- guruh</i>	<i>3- guruh</i>
Maksimal ball - 2			
– savol to'liq yoritib berildi (0,5 ball)			
– guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball)			
– berilgan savollarga javob berdi (0,3 ball)			
– reglamentga rioya qildi (0,2)			
<i>Jami: (2 ball)</i>			

Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulot uchun 0,5 dan 2 ballgacha qo'yiladi.

Reyting bo'yicha natijalar bahosi:

2,0 ball – «a'lo»

1,5 ball – «yaxshi»

1,0 ball – «qoniqarli»

0,5 ball – «qoniqarsiz»

1-topshiriq. So'zlarni tuzilishiga ko'ra turlarga ajratishda klaster usulidan foydalaning.

Eson-omon, orzu-umid, otquloq, rahm-shafqat, savol-javob, soya-salqin, taklifnoma, ko'ksulton, oshpichoq, tokqaychi, qo'lqop, asta-sekin, havo rang, sofdil, o'qib bermoq, to'rtburchak, ko'rpa-yostiq, belbog', yaxshi-yomon, kecha-kunduz, uzoq-yaqin, oq-qora.

Savol: Matnda uchragan otlarning lug'aviy ma'nosini sharhlang. Qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

2-topshiriq. Gap mazmuniga mos ma'nodosh so'zlarni qo'ying.

1. Bu yigit zap chiqdi-da (bahodir, azamat)
2. O'qituvchi mavzuni (gapirdi, tushuntirdi)
3. Onam (ning) bu gapdan sira (xabari yo'q, xabardor emas)
4. Ertalabki.... juda yoqimli (shamol, shabada)
5. Insonning sog'ligi uning... idir. (davlat, boylik)

Savol: Ajratilgan so'zlarga, ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlang.

3-topshiriq. Kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini ayting. Ular bilan ot+ot, sifat+ot, son+ot qolipli so'z birikmalarini tuzishda qanday usuldan foydalanganingizni izohlang.

4-topshiriq. Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yarating.

6-topshiriq. «Diyorimizni, go'zallik, Jasorati, qiziqtirish, yaxshilarga, qiziqtirmoq, yaxshilik qilmoq, qahramonlar» so'zlariini morfologik tahlil qiling. Morfologik tahlil namunasi.

1. Diyorimizni – ot, turdosh ot, aniq, sodda, tub, I shaxs ko'plikda, tushum kelishigida.

Savol va topshiriqlar: 1. Gaplarni o'qing. So'zlarni ma'no va shakl munosabatiga ko'ra tahlil qiling.

Achchiqni achchiq kesar. Birikkan kuch-kuch, birikmagan kuch-puch. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib. Chayonning kasbi chaqish. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. Yaxshi do'stning qo'li hamisha ochiq. Shirali dasturxonga pashsha ko'p yopishadi. Eng yaxshi axloqiy va estetik dori-mehnat. Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi.

Fikrsiz aqlning zanggi bo'ladi,

Ilm-la egovla, yangi bo'ladi,

Oynadan ibrat ol, bir kun artmasang,

Ustida bir enlik changi bo'ladi.

(Abdulqodir Bedil)

2- topshiriq.

Hadislarni o‘qib mavzuga doir savol va topshiriqlarni shakllantiring.

Inson o‘z ota-onasiga mehribon va itoatkor bo‘lmog‘i lozim. Qarindoshlarga oqibatsiz odam jannatga kirmagaydir.

Kimki rizqim ulug‘, umrim uzoq bo‘lsin desa, qarindosh urug‘lariga mehr-oqibatli bo‘lsin. Kimki rahmdillik qilmas ekan, rahmdillik ko‘rmagay. Qo‘pol, quruq, gerdaygan, beqanoat va dimog‘dor odam ahli do‘zaxdir.

Badgumon bo‘lmanglar, badgumonlik eng yolg‘on so‘zdir. Tirnoq ostidan kir qidirmanglar, gap poylamanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizdan arazlamanglar va nafratlanmanglar. Aka-uka tutinib, Ollohning (solih) bandalari bo‘linglar. Mol-dunyosi ko‘p odam badavlat emas, balki ko‘zi to‘q odam badavlatdir. Beshikdan qabrgacha ilm izla. Vatanni sevmog‘ iymondandur. (12-bet)

3- topshiriq.

Matnni o‘qing, gaplarni sintaktik tahlil qilishga oid savollar ro‘yxatini tuzing.

Ota-bobolarimiz, momolarimiz bizga yoshligimizdanoq ozodalik, pokizalik, saranjom-sarishtalik, halollik va harom-xarish haqida yetarli tushunchalar, ma'lumotlar berib, ularni imkoniyat darajasida o‘ziga xos pandu nasihatlar bilan ongimizga singdirishga uringanlar. Eng asosiysi, bu borada o‘zlari betakror ibrat namunasini ko‘rsatishgan. Axir, qush inida ko‘rganini qiladi deb, bejiz aytishmagan. Mana, ulardan bizgacha etib kelgan ibratomuz pandu nasihatlardan ayrim namunalar: «Bolam, ariqdan oqayotgan suvga aslo tuflama, axlat tashlama, gunohi azim bo‘ladi»; «Nonning uvog‘ini oyoqosti qilma, toptama, ko‘zing ko‘r bo‘lib qolishi mumkin»; «Ostonasi saranjom-sarishta joyda farishta bo‘ladi»; «Uyingni ozoda, pokiza saqlayman desang, ostonangni ozoda tut»; «Onangni otangga bepardoz ko‘rsatma» va shu kabilar. (14-bet)

4- topshiriq.

Quyida berilgan so‘zlarda ro‘y bergan fonetik o‘zgarishlarni tasnif qilishga doir savollar tuzing:

Qorin-qornim, yurak-yuragi, o'g'il-o'g'lim, shahar-shahrim, ulug'-ulg'ay, undan-unga, mening-sening, og'iz-og'zim, ko'ngil-ko'nglim.

5- topshiriq.

Quyida berilgan matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Ko'makchi morfemalarga ta'rif bering.

–Ustod sizga salom yo'lladi...

–Abadulabad salomat bo'lg'aylar. Marhamat, noz-ne'matdan olg'aysiz, azizim... Mavlono Muhiddin shosha-pisha patirlarni ushatdi. Ali Qushchini dasturxonga qistadi. Ali Qushchi sovuq kulimsirab:

–Salom bilan birga ustod bir nozik tilak bildirdilar, – dedi. Mavlono Muhiddinning patir ushatayotgan nozik barmoqlari harakatdan to'xtab havoda muallaq osilib qoldi.

–Ne tilak ermish?

–Xabaringiz bordir, azizim, bugun subhidam a'lo hazratlari Movarounnahr sarhadiga qo'shin tortib kirgan shahzodaga qarshi yurish boshladi... Inshoolloh, 40 yil shafolat qilgan Tangri taolo bu safar ham o'z inoyatini darig' tutmas... Va lekin, bandai g'ofil Haq taoloni bilmoqda ojizdurmiz...

6- topshiriq.

«O'zbek tilining izohli lug'ati» dan mushrif, sarkor, muxtasib, imom, mudarris, muazzin singari mansab, lavozimga doir so'zlarning ma'nosini o'rganib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

7- topshiriq.

Quyida berilgan kompozitsion usul bilan yasalgan so'zlarni namunadagidek ko'chirib yozing.

Qo'shma otlar: oqqush...

Qo'shma ravishlar: har yerda...

Qo'shma sifatlar: sheryurak...

Qo'shma fe'llar: borib kelmoq...

Bilaguzuk, olachipor, tamom bo'lmoq, shirinso'z, achchiqtosh, sakkizoyoq, bodomqovoq, oltingugurt, tillaqo'ng'iz, e'lon qilmoq, kamunum, obod aylamoq, olib kelmoq, sarson etmoq, tumanlararo, biryo'la, umumxalq, bir zumda, kinonigoh, sadarayhon, o'zibo'larchilik,

tekintomoq, ikkiyoqlama, ta'zim aylamoq, kinoyulduz, olibsotar, g'ayrat qilmoq, kirib chiqmoq, havorang, oshpichoq, kamsuv, biokimyo, umumshahar. (197-b)

A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari o'quvchilari uchun darslik. 2-nashr. «Ilm ziyo», T., 2004.

8- topshiriq.

16-mashq. Ot so'z turkumiga oid so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ularning ma'nodoshlarini topib, izohlang.

O'sha paytlar yosh bola edim. Ko'zimda o't chaqnab turardi. O'yindan boshqa tashvishim yo'q edi. Ba'zi narsalarga aqlim ham yetardi. Bir kuni onam chaqirib qoldi. Qo'llarida nimadir bor edi. Qand bo'lsa kerak. Yo'q, boshqa narsa ekan. Borganimdan so'ng uni belimga bogiab qo'ydi. Onamdan buni nima ekanligini so'radim. – Bu belbog' seniki. Otangda ham bor, bobongda ham bor, uning bobosida ham bo'lgan. Baxting shunda, belbog'ingni yecha ko'rma! – dedi onam.

Shu-shu bu belbog' menga aziz bo'lib qoldi. Uni hech kimga ishonmadim. Chang-dog' tegmasin deb asradim. Iplari so'kilmasin, deb juda hushyor bo'ldim. Yoshim ulg'aygan sari uni ham ko'proq yaxshi ko'raverdim. Birovga berishni xayolimga ham keltirmadim. Endi u orim, nomusim, g'ururimga aylangandi. Unda otamning qo'llari, onamning nurli siymosi, yaqinlarimning tafti bor. Ajdodlarimning bo'ylari bor unda. Shukur, belbog'im-orim, faxrim, bor-budim o'zimda. Belbog'imdagi «Vatan» degan yozuvni ko'zlarimga surtaman. (130 ta so'z, Behzod Fazliddin)

9- topshiriq.

Matndagi sifatlarni topib, ularni tahlil qiling. O'zingiz ham mustaqil ravishda sifatlarga misollar keltiring va matn yarating.

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilganu, yo'lingizga gilam to'shab qo'y-gan.

Har yili kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi. Shuning uchun ham ko‘chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq-uzoq aylanaman.

Quyoshning so‘nggi shu‘lalari so‘ndi. Tepaga qaradim. Ko‘k betini parcha-parcha qora bulutlar qoplab olgan edi. Ko‘p o‘tmay, qayinzorni tasir-tusur tovushlar qoplab, yomg‘ir yog‘a boshladi.

Yerda tangadek ochiq joy qolmadi. Hammasini xazon qopladi. Yomg‘ir zarbidan barglar duv-duv to‘kildi.

Bir mahal qayinzor yorishdi. Yomg‘ir siyraklashdi. Yuzimdagi yomg‘ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim. Qaradimu, ko‘zlarim qamashib ketdi. Ro‘paramdagi qayinning eng yuqori shoxida bir narsa xuddi oltindek tovlanib turardi. Qo‘limni soyabon qilib yaxshilab qaradim. Bu... oddiy yaproq, sap-sariq qayin yaprog‘i edi. Yaproq quyosh nurida oltindek tovlanib, yengil tebranganicha ko‘kka dadil bo‘y cho‘zib turardi. (O‘. Umarbekov, 120 so‘z)

10 - topshiriq.

Ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlab, ularning sinonimlarini toping.

Qushlar shohi-burgutlar to‘g‘risida xalqimizda ko‘p rivoyatlar bor. O‘tgan yil kuzning o‘rtalari edi. Qashqadaryoning eng bahavo Miroqi tog‘i etaklarida buloq bo‘yida o‘lib yotgan burgutni ko‘rdik. Tog‘lar hukmdorining bunday fojiali halok bo‘lishi bizni juda-juda ajablantirdi. Yaqinroq borib qarasak, burgutning bo‘yniga ilon chirmashib yotibdi. Burgutning zo‘riqib chaqchaygan ko‘zlari nursiz. Toshga kelib urilganidan bo‘lsa kerak, bir qanoti egilgan. Ilon ham o‘lib yotar edi. Ilonning boshi majaqlanib ketibdi.

Hayron qoldik. Nahotki burgut ilondan ojizlik qilib halok bo‘lgan bo‘lsa? Bu savolga hamrohimiz javob berdi:

Burgutlar ilonga o‘ch bo‘lishadi. Burgut ilonni changaliga olib ko‘kka parvoz qilgan paytda, ilon asta-sekin uning bo‘yniga chirmashib, uni bo‘g‘a boshlar ekan. Holsizlangan qush bekorga o‘lib ketishni istamay, o‘zini zarb bilan qoyaga yoki toshga urib, o‘zini ham, raqibini ham halok qilarkan. Hamrohimiz burgutlarning shu tarzda halok

bo'lganini avval ham uchratganligini hikoya qilib berdi. (130 so'z, gazetadan)

11- topshiriq.

Quyidagi so'zlar ishtirokida «Mening ish kunim» mavzusida matn tuzing hamda ravishlarning ma'no jihatdan turini aniqlang.

Kechqurun, birpas, bugun, charchaganday, so'ng, tezda, ertalab, bekor

12-topshiriq. Sifat va ravishlarni ajratib ikki qatorga yozing hamda qatorni davom ettiring.

Yayov, shirin, so'nggi, do'stlarcha, xushbichim, noiloj, aqlli, devoriy, oq, uzoq, behad, tez, majburan.

13- topshiriq. Gaplarni so'z birikmalariga ajratib ko'chiring. Birikmalarning turini aniqlang. Gap bo'laklarining qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini tushuntiring.

Saxiylik kishilar o'rtasidagi ishonch va muhabbatdan paydo bo'ladi. Saxiy kishi o'z iltifoti bilan birovga qarz yoki yordam bermaydi, balki unga bo'lgan ishonchining qanchalar quvvatga ega ekanligini oshkor etadi. Chingiz Ahmarov barchaga saxiylik ko'rsatishni xohlaydi. Hammaning ko'nglini olishni, qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishni istaydi. Demakki, u insonga ishonadi.

Chingiz Ahmarovning esdaliklarini o'qib, savollarimga qisman javob topgandek bo'laman: «Xalqning ishonchini oqlay oldimi? Ruhimda to'xtovsiz, iznsiz oqib yotgan cheksiz-chegarasiz hayajonlarimni, orzu-maqсадlarimni, ehtirosalarimni san'atga aylantirib, rang-tasvirga ko'chirib, odamlar qalbiga singdira oldimmi? degan so'roq qarshisida shaxsiy etishmovchiliklarim va turmush og'irliklarini esimdan chiqaraman, yanada ko'proq kuch bilan ishlash orqali xalqdan qarzarimni uzishim kerakligini o'ylab ustaxonaga shoshaman. Yangi, katta asarlar yaratish ishtiyoqi meni bir soniya ham tark etmaydi... Ishlashim, tanda jon bor ekan, rasmlar chizishim kerak...» (38-bet.) (K.Qahhorova)

14- topshiriq. O'qing. Hollarni topib quyidagicha tahlil qiling:

a) ma'nosiga ko'ra turi; b) qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi; v) tuzilishiga ko'ra turi (sodda yoki birikmali).

1. U hayron bo'lib ohista boshini ko'tardi, oyoqlarini ko'rpaning ichiga uzatib o'tirgan holda quloq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha qulog'i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiydagi qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Oyqiz o'z-o'zicha o'ylanar edi. 6. Ko'zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo'rozning bo'g'iq ovoizidan uyg'onib ketdi. 7. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to'yib-to'yib nafas oldi. 8. U o'zini zo'rg'a bosib olib, Umurzoq otaning ko'kragiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi. (Sh.Rashidov) (72-bet)

15- topshiriq.

Umumlashtiruvchi bo'laklarni toping, tushirilgan tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Ishlangan yerlar, yo'llarning ikki tomonidagi ariqlarda jildirab oqayotgan suv. Ariqlar labida qad ko'targan yosh teraklar hammasi Olimjonning diliga sevinch-quvonch bag'ishlardi. 2. Hovuz bo'yida o'tirgan brigadir ikki hovuchini to'lg'azib suv olar zavq bilan yuzini, bo'ynini, ko'kraklarini barcha qoraygan joylarini yuvar edi. 3. Cho'lpon umri davomida juda ko'p narsalarni: qiziq, shirin, nash'ali voqealarning guvohi bo'lgan.

4. Shu yerda Oyqizning buyrug'i bilan to'g'on qurilardi. Sement quyilmoqda, uzluksiz shag'al to'kilmoqda, tosh tashlanmoqda. 5. Shu vaqt ichida hamma hunar o'rgandi bir xillar transportorga yuk ortish ixtisosini egalladi yana bировlar esa misrang yoki bel bilan ishlashga mutaxassis bo'ldi. 6. Barcha odamlar fidokorona ishlardilar ularning ba'zilari bir me'yorda borib kelardi, ba'zilari esa haqiqiy ishga berilib ketardi. (Sh.Rashidov) (98-bet)

Savol va topshiriqlar: 3-ilova

1. Akademik litseylardagi darsliklar qanday xususiyatlarga ega?
2. Kasb-hunar kollejlaridagi darsliklar-chi?

3. Fonetika bo‘limi akademik litseyning qaysi bosqichida o‘rganiladi?
4. Leksikologiya bo‘limi-chi?
5. Nutq uslublari darsliklarda qanday tartibda berilgan? Mazkur mavzu uchun gazeta va jurnallardan materiallar saralang.
6. Ona tili o‘qitish metodikasi fanidan darsliklar haqidagi qismni o‘qib, konspektlashtiring.
7. Akademik litseylardagi darslikning bir qismi yuzasidan taqriz tayyorlang. Buning uchun quyidagi namunadan foydalaning.
8. Quyidagi ko‘gazmalardan foydalanib o‘zingiz mustaqil ravishda ot mavzusini o‘tish uchun ko‘rgazmali slaydlar tayyorlang.

OLMOSHLAR MA’NOSIGA KO‘RA QUIYDAGI YETI GURUHGA BO‘LINADI:

TURLARI	OLMOSHLAR
Kishilik olmoshlari	men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular
O‘zlik olmoshi	o‘z
Ko‘rsatkich olmoshlari	Bu, shu, u, o‘sha, ana, mana bu, mana shu, manavi, anovi
So‘roq olmoshlari	Kim? nima? qayer? qanaqa? qayda? qaysi? qalay? qancha? necha? nega?
Belgilash olmoshlari	Hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, shuncha
Bo‘lishsizlik olmoshlari	Hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi
Gumon olmoshlari	Kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi

Talabalar bilishi kerak:

Otlar son-miqdor ma’nosiga ega va u birlik yoki ko‘plik shakllari orqali ifodalanadi. Birlik nol ko‘rsatkich (maxsus grammatik ko‘rsatkichning yo‘qligi)ga ega. Ko‘plik–*lar* qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Bunga morfologik yo‘l deyiladi. Masalan, uylar, do‘stlar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori bo‘lgan sanoq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini: ko‘p, ancha kabi so‘zlarni qo‘shish yordamida ham ko‘plikni ifodalash mumkin. Bunga esa sintaktik yo‘l deyiladi.

Masalan, *ko‘p odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar* kabi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plik shakli sanaluvchi – **lar** otlarga qo'shib doimo ko'plikni bildiravermaydi. U birlik ma'nosini ! o'zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda – **lar** hurmat, tasviriylkni.kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, *ko'zlarimga ishonmayman. («O'tkan kunlar»)* Bu jumladagi *ko'zlarimga* so'zini birlik shaklga – *ko'zimga* shakliga almashtirib ko'ring. | Ikkinchi holat bilan birinchi holat bir xil ma'noni – birlik ma'nosini i (bir kishining ko'zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta'sirchanlik, | ifodalilik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo'q.

Talabalar bajara olishlari kerak: Yana solishtiring:

Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi – Bolalarning shovqinidan boshim og'rib ketdi. Har ikki holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so'zidagi – **lar** ko'plikni bildirmasdan, bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma'no esa ikkinchi holatda yo'q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklda kelsa ham, aslida jamlikni bildiradi. Masalan: *Ko'chaga qum to'kilgan* yoki *Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam.* Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganda ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. *Suvlar* (gazli suv, mineral suv kabi); *bozordagi unlar.* Ba'zan tasviriylk, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko'z yoshini artdi – ko'z yoshlarini artdi.*

Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: *Olimjonlar kelishdi (bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari); Mirzacho'llar obod bo'ldi (Mirzacho'l va unga yaqin joylar).*

Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llanilishiga ko'ra ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'rinlashishi farqlanadi:1. I shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelganda ko'pincha egalik qo'shimchasi

oldin, ko‘plik qo‘shimchasi esa undan keyin keladi: Masalan, *Dadamlar keldilar. Opamlar salom aytdilar.*

Agar bu tartib o‘zgarib, ko‘plik shakli oldin, egalik keyin kelsa, shaxsning ko‘pligini ifodalash mumkin: Qiyoslang: *Opalarim kelishdi.* 2 Ko‘plik shakli. II shaxs egalik qo‘shimchasi bilan birgalikda qo‘llanganda, ko‘plik shakli oldin, egalik shakli esa keyin keladi va ko‘plik shakli hurmat ma’nosini ifodalaydi. Masalan, *Xayriniso, dadamning opalari bo‘ladilar.*

1-topshiriq: quyidagi matnni o‘qib o‘quvchilarning ot so‘z turkumi bilan bog‘liq bo‘lgan qanday bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi haqida o‘ylab ko‘ring. Shu maqsadga xizmat qiladigan savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

Ot so‘z turkumi

Otlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy otlarga bo‘linadi

Sodda otlar faqat bir asosdan tarkib topgan otlardir: *ishlarimiz, ko‘chadagi, o‘roq.* Sodda otlar tub va yasama bo‘ladi. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchasi bo‘lmagan otlar sodda tub otlardir: *tilimiz, bolalar, kitob.* Morfologik usul bilan (so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida) yasalgan otlar sodda yasama otlardir: *ekin, supurgi, aravakash*

Qo‘shma otlar ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan otlardir: *kungaboqar, beshbarmoq, qo‘lqop, boychechak.* Qo‘shma otlar qo‘shib yoki ajratib yoziladi:


ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar doim ajratib yoziladi: *laylakqor, olibsotar, tillaqosh, atirgul;*• ikkinchi qismi turdosh otdan bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi: *Oltiariq, Yangibozor, Surxondaryo;*• ikkinchi qismi atoqli otdan bo‘lgan qo‘shma otlar ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo, G‘arbiy Yevropa, O‘rta Chirchiq.*

Juft otlar ikkita otning juftlashuvidan hosil bo‘ladi va chiziqcha bilan yoziladi: *kitob-daftar, ota-ona, temir-tersak, ot-ulov, orzu-armon, gap-so‘z*

Takroriy otlar otni aynan yoki tovush o'zgarishi bilan takrorlash orqali hosil qilinadi. Takroriy otlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *savat-savat, dasta-dasta, qovun-povun, uy-puy*.

2-Topshiriq. Turdosh otlarni o'rganish bilan bog'liq savollarni tuzing. Unda tarmoqlash usulidan foydalanish haqida ham ko'rsatma bo'lsin.

Turdosh otlar



3-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing. Mavhum otlarga dolr savolni shakllantiring:

- **lik** – *shodlik, yomonlik, ahmoqlik*
- **ch** – *quvonch, o'kinch, yupanch, sog'inch*
- **inch** – *qo'rqinch*
- **gi** – *sevgi, kulgi*
- **at, -ot** – *samimiyat, hissiyot*

4-topshiriq. Quyidagi yakka va to'da otlar ishtirok etgan matnlarga tegishli topshiriq bering.

- **lik**– *sartaroshlik, mehribonlik, to'quvchilik*
- **chilik**– *g'allachilik, paxtachilik, ipakchilik,*
- **garchilik**– *loygarchilik, yog'ingarchilik*
- **uv** – *oquv, yozuv, chizuv*
- **im**– *terim, kirim-chiqim*
- **iq** – *chopiq, qaytariq*
- **zor**– *gulzor, mevazor, tokzor*
- **loq**– *qumloq, toshloq*
- **iston**– *qabriston, guliston*
- **goh**– *sayrgoh, tomoshagoh*
- **xon**– *a qo'riqxona, yotoqxona, oshxona*
- **ma**– *bostirma, tortma*

Test topshiriqlarini bajaring

1 Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlarni aniqlang.

A) Tanlov, qaysarlik, gul-chilik

- B) Ipakchilik, sinov, terim
- C) Falokat, muhtojlik, chopiq
- D) Xayrlashuv, namgar-chilik, ezgulik

2 Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, dadillik baxsh etgandek bo'ldi. Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini aniqlang.

- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

3. Mavhum otlarni toping.

- A) Qo'rqinch, odamiylik, tarovat
- B) Ishonch, dehqonchilik, haqiqat
- C) Suyanch, duradgorlik, samimiyat
- D) Yupanch, ustachilik, qabohat

5. Narsa nomlarini toping.

- A) Bezak, siniq, ichki
- B) Teshik, tiniq, tashqi
- C) Tilak, uchuq, turtki
- D) Kesik, yetuk, yozgi

6. -choq qo'shimchasi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A) Lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi
- B) Sintaktik shakl yasovchi, so'z yasovchi
- C) Lug'aviy shakl yasovchi, sifat yasovchi
- D) Lug'aviy shakl yasovchi, ot va sifat yasovchi

7. Quyidagi birikmalardan qaysi birida shaxs yoki narsaga qarashlilik ma'nosi ifodalanmagan.

- A) Ozodlik qadri, ona mehri
- B) Toshkent ko'chalari, Navoiy mahallasi
- C) Mustaqillik bayrami, o'qish kitobi
- D) Erk tuyg'usi, ilon zahri

8. Qaratqich kelishigi quyidagi so'zlardan qaysilariga qo'shilganda belgili qo'llanadi?

- A) Sinf, bola, kitob
- B) Har kim, kerilgan, Bobur
- C) Biz, qush, yigit
- D) vahor, hayot, o'qigan

9. Egalik qo‘shimchalaridan qaysi biri o‘zakdan anglashilgan predmet yoki belgini kishidan boshqa narsalarga ham nisbat-laydi?

- A) III shaxs egalik qo‘shimchasi
- B) birinchi va ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchasi
- C) birinchi shaxs egalik qo‘shimchasi
- D) ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchasi
- E) ikkinchi va uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi

10. Faqat mavhum otlar qatorini toping.

- A) bola, daftar, qishloq
- B) go‘l, zafar, shahar
- C) shodlik, sevgi, kulfat
- D) yo‘l, daraxt, vodiya

11. Mavhum otlar qatorini toping.

- A) uyqu, jahl
- B) soch, kiprik
- C) quyosh, tutun
- D) gul, orzu

3-mavzu	Yordamchi so‘z (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) turkumini o‘qitish metod va usullari.
Ta’lim berish texnologiyasi	
Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot

Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yordamchi so‘z turkumini o‘qitishning tarkibi va mazmuni. 2. Ko‘makchi va bog‘lovchini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. 3. Yuklamani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. 4. Xulosa.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey kasb-hunar kollejlari yordamchi so‘z turkumini o‘qitish bo‘yicha umumiy tushuncha berish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> • yordamchi so‘z turkumini o‘qitishning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida tushuncha berish; • ko‘makchi va bog‘lovchini o‘qitish haqida ma‘lumot berish; • yuklamani o‘qitish bilan tanishtirish. 	O‘quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none"> • yordamchi so‘z turkumini o‘qitishning tarkibi va mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘ladilar; • ularni o‘quvchilarga o‘rgatish metodikasi bilan tanishadi;
Ta‘lim berish usullari	Amaliy mashg‘ulot, suhbat
Ta‘lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, individual
Ta‘lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, proektor, tarqatmalar.
Ta‘lim berish sharoiti	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1.1. O‘quv mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. (1- ilova). 1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beriladi. (2-ilova) 	<p>Tinglaydi</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	Ta‘lim bosqichlarida yordamchi so‘zlarning o‘qitilishidagi o‘ziga xosliklarni tushuntiradi, amaliy topshiriqlar beradi (3-ilova).	Tinglaydi, yozadi.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun «Umumta‘lim, AL va KHK larida yordamchi so‘zlar haqida» mavzusini taqdim etadi. Klaster 	<p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

1-ilova

1. Yordamchi so‘z turkumini o‘qitishning tarkibi va mazmuni.
2. Ko‘makchi va bog‘lovchini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Yuklamani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Xulosa.

1-topshiriq. Berilgan gaplar orasidan so‘roq olmaydigan so‘zlarni ajratib chiqing. Yordamchi so‘zlarni belgilab, ularni daftaringizga ko‘chirib yozing. Ular ishtirokida o‘zingiz mustaqil gaplar tuzishga urinib ko‘ring.

Iison har bir ishni sabr va matonat bilan yuritishi lozim. Ilm zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qiladi. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi. Yurak dala sari talpinardi. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Ayvonga o‘zgacha fayz kirdi, ammo hali hovli yig‘ishtirilmagan edi. Yoki kurashib g‘alaba qilamiz, yoki mardlarcha halok bo‘lamiz. Sizga qolsa shu yaxshiku-ya.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi ajratilgan so‘zlarga qo‘shilgan kelishik qo‘shimchalari o‘rniga ma’nosi mos keladigan ko‘makchilarni qo‘ying.

Adabiyot xalqqa xizmat qiladi. Qalamda yozilgan xat tez o‘chadi. Men bu sovg‘ani onamga oldim. Viloyat markazigacha mashinada yarim soatda boraman.

3-topshiriq. Berilgan sodda gap juftlarini bog‘lovchi vositasida bog‘lab qo‘shma gaplar hosil qiling.

Vijdon - yaxshi xulqlarning manbai. Har kimning nazarida ma’qul va suyuqlikdir. Elimiz istiqloлга erishdi. Mustaqillik osonlik bilan qo‘lga kiritilmadi.

4-topshiriq. Berilgan so‘zlar orasidan yuklamalarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

Basharti, nahotki, faqat, to‘g‘risida, ya’ni, ammo, singari, tomon, xuddi, uchun

5-topshiriq. Mazkur so‘zlar orasidan tovushga taqlid so‘zlarni ajrating va «Tabiat manzarasi» mavzusida matn tuzing.

Yarq-yurq, duk-duk, qiy-chuv, gumbur-gumbur, lip-lip, shitir-shitir, taq-tuq, yalt-yult, chars-churs.

6- topshiriq.

26-mashq. Yordamchi so‘zlarni belgilab, ularni daftaringizga ko‘chirib yozing.

Ular ishtirokida gaplar tuzishga urinib ko‘ring.

Nazokat

Qiz bolalarning yurish-turishi, gap-so‘zi nazokatli, dilbar bo‘lsin. Bundaylarga ortiqcha harakat, qo‘pol qo‘l siltashlar yarashmaydi.

Nazokat, dilbarlik deganda muloyimlik, nozik xatti-harakat, yumshoqlik tushuniladi. Qattiq gapirish, qattiq kulish, qo‘llarni siltab, hammani o‘ziga qaratib turish nazokatdan yiroqdir. Darhaqiqat, tili shirin, chehrasi gulgun qiz-ayollar o‘z oilasining baxtu saodati, ota-onasining faxri bo‘libgina qolmay, o‘z elining ko‘rki hamdir.

Demak, qizlarda, ayol kishida, birinchi navbatda, aqlu farosat, idroku nazokat bo‘lishi kerak. Ana shu bilan u past-balandni, achchiq-chuchukni, bor-yo‘qni, oila sharoitini, imkoniyatlarini fahmlay oladi, idrok etadi, aql-hushi bilan ish yurgizib, kam-ko‘stlarni bartaraf qiladi. Zotan, ayollarga xos bo‘lgan o‘lmas nazokat atrofdagilarga hamisha qanot bag‘ishlab kelgani haqida hayotda misollar bisyor.

Nazokat hamisha mehr bulog‘idan suv ichadi. (19-bet)

Savol va topshiriq: 2-ilova

1. Matndagi yordamch so‘zlarni ko‘makchi, bog‘lovchi bilan almashtirib ko‘ring.
2. Ularda qanday o‘zgarish bo‘lganligini izohlang.
3. Sinanimiya deganda nimani tushunasiz, misollar bilan izohlang.

8- Topshiriq. Dars tahlilida birinchi navbatda uning maqsadiga alohida e‘tibor berish lozim. Darsda qanday maqsadlar qo‘yiladi?

Talabalar bilishi kerak:

9-topshiriq. Darsni tahlil qijish ko‘rsatmasidan foydalanib amaliyot jarayonida 2 soat dars kuzating va tahlilini yozing.

10-topshiriq: Yordamchi so‘z (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) turkumlarini o‘tish uchun (7-sinf misolida) namunadan foydalanib darsga ko‘rgazma tayyorlang.

4-ilova

**YUKLAMALARNING MA’NO
TURLARI**

Yuklamalarning ma’no turlari	Yuklamalar
So‘roq-taajjub yuklamalari	–mi, –chi, –a (–ya)
Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari	hatto, –ku, ham, nahotki, –u (–yu), –da, –oq (–yoq), axir, g‘irt

Ayiruv-chegaralov yuklamalari	faqat, –gina (–kina, –qina), atigi
O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari	go‘yo, go‘yoki, xuddi, naq
Gumon yuklamasi	–dir
Inkor yuklamalari	hech, sira, na...na

MODAL SO‘ZLARNING MA’NO TURLARI

Modal so‘zlar bayon qilinayotgan fikrga so‘zlovchining ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish munosabatlarini yoki fikrning tartibi, xulosasini bildiradi

Albatta, afsuski, darhaqiqat, ehtimol, shekilli, jumladan, xayriyat xullas

modal so‘zlarning ma’nolari	modal so‘zlar
ishonch	<i>albatta, shaksiz</i>
gumon	<i>ehtimol, balki, chamasi, shekilli</i>
tasdiq	<i>darhaqiqat, haqiqatan</i>
fikrni xulosalash	<i>xullas, demak, umuman</i>
fikrning tartibi	<i>avvalo, avvalombor</i>
fikrning dalillanishi	<i>masalan, jumladan</i>
achinish	<i>attang, afsus</i>
quvonch	<i>xayriyat</i>

4-mavzu	«O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasi
----------------	--

Ta’lim texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 20-25 gacha	
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot	
Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar orasida tutgan o‘rni. 2. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning ijtimoiy - gumanitar fanlar bilan aloqasi. 3. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning tabiiy va aniq fanlar bilan aloqasi. 4. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning turdosh fanlar bilan aloqasi. 5. Xulosa. 	
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasi bo‘yicha umumiy tushuncha berish va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.		
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:	
<ul style="list-style-type: none"> • «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar orasida tutgan o‘rni to‘g‘risida tushuncha berish; • «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish. 	<ul style="list-style-type: none"> • «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasiga oid tasavvurlar hosil bo‘ladi; <p style="margin-left: 40px;">Mazkur imkoniyatlardan ish jarayonida foydalanishga oid ko‘nikmalarni egallaydi;</p>	
Ta’lim berish usullari	Amaliy mashg‘ulot, suhbat	
Ta’lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, individual	
Ta’lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, proektor, tarqatmalar.	
Ta’lim berish sharoiti	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob	

1.2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash. 2. Taqdimot slaydlarini tayyorlash. 	Tashqi nasavvur va bilimga ega

	3. O‘quv fanini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish.	bo‘lishadi
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mavzular va adabiyotlar ro‘yxatini berib, ularga qisqacha ta’rif beradi. (1 ilova). 1.2. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati mazmuni bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasining tutgan o‘rni. 2.3. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning ijtimoiy-gumanitar. fanlar bilan aloqasining tutgan o‘rni. 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi: 2.5. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntirib bering. 2.6. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning aniq fanlar bilan aloqasi qanday? 2.7. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning turdosh fanlar bilan aloqasining tutgan o‘rni haqida gapiring.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning turdosh fanlar bilan aloqasining tutgan o‘rni haqida» mavzusini taqdim etadi. Klaster	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

«O‘zbek tili o‘qitish metodikasi»ning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida kirish mashg‘uloti

Til materiallarini o‘zlashtirishda ona tili metodikasining eng muhim talablaridan biri til sathlarining alohida-alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda, yaxlitlikda o‘rganilishidir. Buning uchun leksikologiya (so‘zshunoslik) har bir til sathining tarkibiy qismiga aylanishi, ya’ni

fonetika, morfologiya, soʻz tarkibi hatto sintaksisni oʻrganishda ham soʻz boyligini oshiruvchi oʻquv-topshiriqlaridan foydalanishning bagʻoyat maxsuldorligi, DTS talablarida qayd etilgan kommunikativ savodxonlikning, nutqiy salohiyatning shakllanuviga olib kelishi, zamonaviy til oʻqitish metodikasida tan olingan interfaol metodlardan kam emasligi barchaga maʼlum.

Shu bilan birga ona tilidan talaba lugʻatining boyib borishida yana bir ulkan xazina — uzluksiz taʼlim muassasalarida oʻrganiladigan boshqa oʻquv fanlarining ham ulkan hissasi bor, buni baʼzan oliy toifali, ilgʻor ona tili oʻqituvchilarimiz ham toʻliq anglab etishlari mushkul. Chunki ular dastur va darslik talabini bajarish, nazorat va tashkiliy ishlar bilan nihoyatda band boʻlib, boshqa fanlar bilan qiziqishga vaqt topa olmasligi hammamizga maʼlum. Vaholanki, lugʻat zaxirasini boyitish, ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matnlar yaratishda fanlararo aloqadorlikni yoʻlga qoʻyish — ulkan muvaffaqiyatlar xazinasiniga, bitmas-tuganmas terminologik manbalarga egalik qilish demak.

Ona tili materiallarini oʻzaro bogʻlab oʻrganish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga til hodisalari mohiyatini chuqurroq oʻrganishga, nutqda soʻzni meʼyorida va oʻrnida ishlatish koʻnikmalarini mustahkamlashga ijobiy taʼsir etadi.

Ona tili oʻqitishda oldingi oʻrganilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali oʻzi Mustaqil qoida, taʼrif chiqarishga oʻrgangan oʻquvchi bir-biriga oʻxshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, oʻqituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi.

Ona tilining izchil kursida fonetika, leksikologiya, morfologiya oʻzaro bogʻliq holda bir yaxlitlikni tashkil etadi. Boshlangʻich sinflarda oʻrganilganlarga suyangan holda soʻzning umumiy tahlilini oʻtkazish, oʻquvchini soʻz ustida ishlash boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalari darajasini aniqlashga, mustaqil, ijodiy fikrlashga, ixcham, loʻnda va aniq xulosa chiqarishga, har bir tovush va soʻzdan unumli foydalanishga oʻrgatadi.

Erkin, jadal fikrlashni o‘rganishda so‘z qoliplari ustida ishlashning imkoniyatlari ham benihoya keng (Bu haqida keyinroq so‘z yuritiladi).

Turg‘un iboralar ma‘nosini, so‘zlar etimologiyasini bilish yoshlar uchun o‘ta qiziqarli. O‘zbek tili tarixi, uning til boyligi, unda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi va ma‘no nozikliklari hosil qilishi, grammatik qurilishning takomillashib borishi kabi hodisalarni o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish yaxshi samara beradi. Iboralarni sharhlash bo‘yicha namunalari:

«Qildan qiyiq axtarmoq» – yomon niyat bilan aybi yo‘q inson faoliyatidan ayb topmoq; ma‘nodoshi: «tirnoq orasidan kir izlamoq».

«Bag‘ri tosh» — bemehr, iltifotsiz; ma‘nodoshi: «tosh yurak», «ko‘ngli qattiq». «Bahri-dili ochildi» — kayfiyati yaxshilandi; ma‘nodoshi: «dimog‘i chog‘ bo‘ldi», «ko‘ngli yozildi»... v. h.

Fanlararo bog‘lanish turli ta‘lim bosqchlaridagi ona tili darsliklarida (o‘quv topshiriqlari tizimida) ko‘proq o‘z echimini topishi darkor.

Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o‘quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalar, o‘z va ko‘chma ma‘noli so‘z, so‘z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilarni ajratish, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish, so‘z ma‘nolarini kontekst ichida farqlash ko‘nikmalarini singdirish — talabaning fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi.

Quyida ona tili darslarida fanlararo aloqadorlik tamoyillariga asoslanilgan bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Adabiy til uslublari mavzusiga dars ishlanmasi:

Dars shiori: «Fan nima bo‘lganini tushuntiradi, adabiyot qanday bo‘lganini tasvirlaydi».

Dars maqsadi:

1. Ta‘limiy: O‘quvchilarga adabiy til uslublari va ularni bir biridan farqlovchi xususiyatlarini tushuntirish, mavzuni o‘rganish jarayonida fanlararo bog‘lanishni tashkil etish;

2. Tarbiyaviy: O‘quvchilarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g‘oyalari sodiqlik, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash;

3. Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish, mustaqil fikr yuritish, mantiqiy mushohada qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish.

Dars turi: amaliy-ijodiy mashg‘ulot. Fanlararo integrasiya (Binar uslubi). Qiyoslash.

Dars uslubi: Noan’anaviy dars, «Tarmoqlar» (Klaster texnologiyasini qo‘llash). Kichik guruhlarda ishlash. Venn diagramma.

Darsning ko‘rgazmaliligi: J.Asranovning «Ona» asari, R.Mirzaevning «O‘zbek sanami» asari, «Bog‘ot sharbat» mahsulotlaridan namunalar, anketa savollari.

Darsning tarkibiy tuzilishi (rejasi)

1. *Tashkiliy qism, 2 daqiqa.*

2. *O‘tilgan mavzuni takrorlash, Venn diagrammasi bilan ishlash, 10 daqiqa.*

3. *Kichik guruhlarda ishlash (tarmoqlar), 20 daqiqa.*

4. *Dars shiorini sharhlash: Aqliy hujum, 3 daqiqa.*

5. *O‘quvchilar bilimini baholash, 3 daqiqa.*

6. *Darsni xulosalash, 5 daqiqa.*

7. *Uyga vazifa, 2 daqiqa.*

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu eslatilib, uyga berilgan topshiriq (adabiy nutq uslublari haqidagi ma’lumotlarni to‘plab kelish) tahlil qilinadi.

Darsning keyingi qismi «Tarmoqlar texnologiyasi» asosida tashkil etiladi.

«*Suratlar tili*» rukni ostida o‘quvchilar e’tiboriga tasviriy san’atning noyob namunalaridan havola etiladi. Bu yerda dars rasm fani bilan bog‘lab olib boriladi.

Sinf jamoasi 5 guruhga bo‘linib, har bir guruhga alohida mavzudagi rasmlar, shu mavzuda matn yaratish bo‘yicha topshiriqlar beriladi:

1-guruh. J.Asranovning «Ona» asaridagi keksa ayolning ko‘z qarashlari, nigohidan kelib chiqib, uning xayolidan kechayotgan o‘y-fikrlarni suratdagi timsol tilidan hikoya qilib, matn yaratish;

2-guruh. R.Mirzaevning «O‘zbek sanami» asaridagi yosh onaning o‘z farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini his qilgan holda uning tilidan onalik mehriga yo‘g‘rilgan his-tuyg‘ularni bayon qilish va matn yaratish;

3-guruh. Bu guruhga ijodiy ish bilan band bo‘lgan sinfdoshlarning ismi va familiyalari, nechanchi sinfda va qanday o‘qishlari, katta bo‘lganda kim bo‘lmoqchi ekanliklari, dars paytida o‘zlarini tutishlari, ko‘z qarashlari, shug‘ullanayotgan ishlaridan ko‘ngillari to‘lgan-to‘lmaganligini tasvirlab, ijodiy matn yaratish topshiriladi. O‘zgalar his-tuyg‘usini tushunish—komil insonning asosiy xislati ekanligi ta’kidlanadi. Bu yerda ona tili fanining adabiyot bilan bog‘lanishi aks etadi.

4-guruhga uy parrandalaridan xo‘rozning rasmi berilib, biologiya faniga oid matn yaratish (xo‘roz parrandalarning qaysi turiga kirishi, yashash joyi, qanday boqilishi, necha kilogrammgacha tosh bosishi, o‘rtacha necha yil yashashi... v.h.) topshiriladi.

5-guruhga esa tabiat ko‘rinishlari tasvirlangan rasm berilib, uni ijodiy tasvirlash asosida, kichik matn yaratish topshiriladi. Bu topshiriqda, ona tili fanining biologiya, tabiatshunoslik fanlari bilan aloqasi ko‘rinadi, yuzaga chiqariladi.

Sinf o‘quvchilariga oldindan anketalar tarqatilib, to‘ldirib olinadi:

Anketa

1. Ism va familiyasi, tug‘ilgan yili.
2. O‘qish va yashash joyi.
3. Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbi.
4. Shu kasbdan ko‘zlagan maqsadi va erishmoqchi bo‘lgan yutuqlari.

Anketa 6-guruh o‘quvchilariga tarqatiladi. Ularga «Bog‘ot sharbat» mahsulotlaridan namunalar berilib, shu mahsulotlar haqida reklama matnlari yaratish topshiriladi.

7-guruh o‘quvchilariga 6-guruhdagi o‘rtoqlarining anketa javoblariga asoslanib, o‘rtog‘ining kelajakdagi ilmiy-ijodiy ish faoliyati, ishlab chiqarish korxonasi, yoki tayyor mahsuloti haqida tavsifiy – biografik reklama matni yozish topshiriladi.

Guruhlarning bajargan ishlari, ilmiy-o‘quv faoliyati birin-ketin namoyish qilinadi. Taqdimot tugagach, guruh bilan savol-javoblar vaqtida

yutuq va kamchiliklar talabalar tomonidan tahlil qilinib, ularning oldini olish usullari haqida umumiy tavsiyalar beriladi.

O'qituvchi tomonidan dars shiori, undan ko'zlangan maqsad sharhlanib, guruh a'zolari erishgan **natijalar** — egallangan BKM (bilim, ko'nikma va malaka)larni amaliy qo'llash darajalari qayd qilinib, ishlar baholanadi.

Dars xulosalanadi:

Mana siz ona tilimizning cheksiz imkoniyatlaridan biri bo'lgan nutq uslublari bilan tanishdingiz. Ijtimoiy hayotda o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lgan mazkur uslublardan o'rinli, nutq sharoitiga mos ravishda foydalanish uchun ularning biri-biridan farqli va o'xshash jihatlarini puxta bilishingiz zarur. Ana shundagina betakror tilimizning ifoda qudratlaridan, bebaho gavharlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lasiz.

Uyga vazifa: Litsey hayoti haqida gazeta maqolasi tayyorlab kelish.

Matnni o'qing va fanlararo aloqadorlik jihatlarini izohlang

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanining maqsad va vazifalari Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Darsning maqsadi	<p>Ta'limiy: fanning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish.</p> <p>Tarbiyaviy: ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyatini singdirish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish va fikrini og'zaki erkin bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish.</p>
Dars turi	Takrorlash
O'quv jarayonini amalga oshirish	<p>O'qitish usullari: og'zaki bayon, savol-javob, «3x3», «Bu bizniki»</p> <p>O'qitish shakllari: yalpi, yakka, guruhlarda ishlash.</p> <p>O'qitish vositalari: proektor, slaydlar, flipchart, marker.</p>

texnologiya-si	Monitoring va baholash: og‘zaki va yozma nazorat, rag‘batlantirish, 5 balli tizimda baholash.	
Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O‘quv fani nomini aytadi. Ekranga kursning mundarijasini tashkil etuvchi mavzular ro‘yxatini chiqaradi va ularga qisqacha ta’rif beradi.</p> <p>1.2. Mavzuning maqsadini aytadi.</p> <p>1.3. Talabalarning bilimlarini jonlashtirish va barchani faollashtirish uchun muammoli savol bilan murojaat etadi: Ma’naviyatni siz qanday tushunasiz? va ushbu savolga «3x3» usulida javob berish shartligini ta’kidlaydi. «3x3» texnologiyasi qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p>	<p>Tinglashadi</p> <p>Uchlikka bo‘linishadi, o‘ylashadi, muhokama qilishadi, fikrlarga munosabat bildirishadi, fikrlarni umumlashtirib, uchta javobni tanlab olishadi.</p>
2-bosqich. Asosiy (55 daqiqa)	<p>2.1. Ekranga «Ma’naviyat nima?» ma’rifiy matnini chiqaradi va o‘qib beradi. (2-ilova)</p> <p>2.2. Matn mazmuni yuzasidan fikrlashga yo‘naltiruvchi matnni tavsiya etadi (3-ilova)</p> <p>2.3. Darsning ta’limiy maqsadini amalga oshirish maqsadida matn asosida grammatik topshiriqlar beradi. (4-ilova), «Bu bizniki» ta’limiy usulini o‘tkazadi. (5-ilova)</p>	<p>Ko‘rishadi, tinglashadi.</p> <p>Fikrlashadi, klasster tuzishadi, munosabat bildirishadi.</p> <p>Topshiriqlarni bajarishadi, guruhlarga ajralishadi, yozadi va o‘qib beradi</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa qiladi, faoliyat natijalarini izchillikda izohlab beradi, baholaydi.</p> <p>3.2. O‘quvchilar tushunmagan ayrim jihatlarga savollarga javob berish orqali aniqlik kiritadi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun uy vazifasi beradi: «Jamiyat va ma’naviyat» mavzusida ijodiy insho yozish</p>	<p>Tinglaydi, xulosa chiqaradi</p> <p>Savollar beradilar. Mustaqil ish insho mavzusini yozib oladilar.</p>

№	Bo'limlar	O'rganilish ob'ekti
1	Fonetika va fonologiya	Nutq tovushlari sistemasi, tovush almashinishi va o'zgarishi, bo'g'in va urg'u, ularning turlari, fonema va ularning o'zaro munosabati o'rganiladi.
2	Orfoepiya	Nutq birliklarining talaffuz me'yori va qoidalari o'rganiladi.
3	Grafika	Harf, alifbo, harf va fonema o'rtasidagi munosabat, harflarning yozilish shakllari, turlari, xususiyatlari, so'zlardagi o'rni va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar o'rganiladi.
4	Orfografiya	So'z va uning ma'noli qismlarini to'q'ri yozish qoidalari o'rganiladi.
5	Leksikologiya	Leksema, leksik ma'no, lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tiplari o'rganiladi.
6	Frazeologiya	Frazeologizm, frazeologik ma'no, frazeologik birliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari o'rganiladi.
7	Leksikografiya	Lug'at va uning tiplari, lug'at tuzish asoslari bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'rganiladi.
8	Morfemika	Morfema, uning turlari, so'zning morfemik tuzilishi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.
9	So'z yasalishi	So'z yasalish strukturasi, so'z yasash usullari haqida ma'lumot beriladi.
10	Grammatika-morfologiya va sintaksis	So'z turkumlari, grammatik shakl va grammatik kategoriyalar, so'z birikmasi, gap va yirik sintaktik birliklar o'rganiladi.
11	Punktuatsiya	Punktuatsiya asoslari va tamoyillari, tinish belgilari va ularning ishlatilish qoidalari haqida fikr yuritiladi.

2-ilova

“3x3” texnologiyasi qoidalari

Ushbu usul hamkorlikdagi faoliyat bo‘lib, talabalarni muammoli savol ustida fikrlash, bir necha javob variantlarini shakllantirish va muayyan shaklda ifodalashga yo‘naltiradi.

- talabalar uch kishilik guruhlarga bo‘linadilar
- o‘qituvchi yrtaga muammoli savol tashlaydi
- talabalar savol yuzasidan o‘zaro fikr almashadilar va bir necha javob variantlarini topadilar
- topilgan javob variantlari orasidan savol mohiyatini to‘laroq aks ettiruvchi uchtasini tanlab oladilar
- o‘qituvchining taklifi bilan har bir guruh o‘z javobini o‘qib eshittiradi
- zarur o‘rinlarda qo‘shimcha izoh talab qilinadi
- barcha javoblar umumlashtirilib, o‘qituvchi ishtirokida xulosalanadi.

3-ilova

Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon, irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan va ijodini uyqotadiganqudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman.

I.A.Karimov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIV sessiyasidagi “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” ma'ruzasidan

4- ilova

Ma'naviyat nima?

«Ma'naviyat — insonning ruhiyatini, uning o‘z-o‘zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilishi, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir», – deb ta'rif beradi yurtboshimiz.

I.A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, ma'naviyat — taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlarini ta'siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning hattiharakatlarida, o'z oilasi, millati va Vataniga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota-onadan tug'iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya'ni ma'naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Insonning ma'naviy olami, asosan, ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa ham, u o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, imon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilallik, insonparvarlik, etiqod, vatanparvarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va masuliyatni his qilishi qanchalik kuchli, yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'lishiga olib keladi.

Xuddi shuning uchun ham Islom Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, Birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat — ma'rifatli insonning ikki qanotidir», - deb ko'rsatgan edi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarini ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin.

Ma'naviyat millatni taraqqiyotga etaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qaerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo'rlik, g'iybat qilishlik, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'poruvchilik, o'z Vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi.


(Jurnaldan)

5-ilova

Matn mazmuniga doir savol va topshiriqlar

1. Ma'naviyat tushunchasini ifoda etuvchi "Klasster" usulini bajaring. Uni musobaqa tarzida tashkil eting.

Namuna:



6-ilova

Matn asosida grammatik topshiriqlar

1. Ma'naviyat so'zini fonetik jihatdan tahlil qiling.
2. Matndagi ma'nodosh so'zlarni aniqlang va ma'no nozikliklaridagi farqlarni ayting.
3. Matndagi o'zakdosh so'zlarni aniqlang.
4. Matnni mavzuga alohadorlik jihatlarini toping.

“Bu bizniki” ta’limiy o‘yinini o‘tkazish tartibi

-mazkur ta’limiy o‘yin morfologiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni takrorlash uchun o‘tkaziladi;

-talabalar olti guruhga bo‘linadi;

-har bir guruh matndan muayyan so‘z turkumiga oid s‘zlarni ajratib ko‘chiradi;

1-guruh-fe'l 4-guruh-ravish.

2-guruh-ot 5-guruh- olmosh va son

3-guruh- sifat 6-guruh yordamchi so‘zlar

Matnni o‘qing va fanlararo aloqadorlik jihatlariga e’tibor bering

O‘ZBEK TILI

O‘zbek tili – o‘zbeklarning tili. Bu tilda so‘zlashuvchilarning umumiy soni yigirma million bilan yigirma besh million orasida bo‘lib, ularning asosiy qismini O‘zbekistonda va unga chegaradosh bo‘lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi va o‘zini o‘zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi.

O‘zbek tili oltay tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi va so‘zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so‘ng uchinchi o‘rinda turadi. O‘zbek tili eng qadimiy turkiy yozma tillardan biridir. Hozircha o‘rganilgan manbalarga ko‘ra, u deyarli bir yarim ming yillik tarixga ega. Ammo o‘zbek tilining asl tarixi bundan ko‘proq bo‘lib, miloddan avvalgi asrlar qa’riga taqaladi. Bu masalalar nazariy va metodologik jihatdan yoritilmagan, faktik jihatdan ham to‘la o‘rganilmagan. O‘zbek tilining tarixi, umuman, uning rivoji turkiy tillar tarixining tarkibiy qismi ekanligi nazariy-metodologik jihatdan ko‘rib chiqilmagan. O‘zbek tilining asrlar davomida fors-tojik tilining yaqin hamrohi bo‘lganligi va bu jarayon ikkala tilning boyishiga hamda rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi masalalari ham tilshunoslarning diqqat markazidan etarli joy olganicha yo‘q.

O‘zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta.

O‘zbek tilining takomillashish jarayoni to‘rt asosiy manbaning ishtirokida amalga oshgan:

a) asl turkiy tillar ta’siri;

b) fors-tojik tilining asrlar davomidagi har tomonlama ta’siri;

v) arab tilining oʻrta asrlardagi Sharq fanlarining va islom dinining umumiy tili sifatidagi taʼsiri;

g) XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ovrupo tillarining taʼsiri.

Ana shunday koʻptomonlama taʼsir, oʻzbek tilining grammatik jihatdan mukammal va lugʻaviy boy boʻlishini, fonetik jihatdan xushohang til sifatida shakllanishini taʼmin etdi.

Oʻzbek tili shevalarga boy tillardan biri hisoblanadi. Shevalar – umummilliy tilni boyitishning cheksiz manbaidir.

Hozirgi zamon oʻzbek tili, asosan, uch koʻrinishga ega boʻlib, birinchidan, shevalardan, ikkinchidan, umummilliy adabiy tildan va, uchinchidan, ularning qorishmasi boʻlmish kundalik jonli muloqot tilidan tashkil topgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XX asrning 30-yillarigacha oʻzbek tili yangi zamon oʻzbek millatining tili sifatida shakllandi, oʻz taraqqiyot yoʻllarini aniqlab, rivojlana boshladi. Afsuski, SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MKning 1938 yil 13 fevraldagi «Rus tilini milliy respublikalarda majburan oʻqitish toʻgʻrisida» qarori chiqqandan soʻng sobiq shoʻro mamlakatida keng miqyosda ruslashtirish siyosati amalga oshirildi, oʻzbek tili hayotning asosiy sohalaridan asta-sekin siqib chiqarila boshladi.

Mustaqillik oʻzbek tilini ozod va erkin rivojlanishning shoh koʻchasiga olib chiqdi. 1989 yilning oktyabr oyida oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berildi, shu asosda barcha majlislar, ilmiy va amaliy anjumanlar, uchrashuvlar, oliygohlardagi darslar va hayotning boshqa tomonlariga oid tadbirlar oʻzbek tilida oʻtkazila boshladi, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyot, asosan, oʻzbek tilida chop etilmoqda. Bu borada hali ish koʻp va ularni bajarish, birinchi navbatda, oʻzbek milliy ziyolilarining saʼy-harakatlariga bogʻliq.

Yarim asrdan oshiq (1938-1991) davr ichida oʻzbek tili mafkuraviy, siyosiy, maʼmuriy jihatlardan ulkan tazyiq ostida boʻldi. U shoʻro jamiyatining oʻgay tillaridan biriga aylantirildi. Oʻzbeklarning rasmiy vaziyatlarda yurtida oʻz ona tilida soʻzlashishi baynalmilalchilikdan chekinish deb talqin qilindi. «Ishchilar sinfi shoʻro jamiyatining asosiy rivojlantiruvchi inqilobiy kuchi» deyildi, ammo Oʻzbekistonda bu sinfning koʻpchiligi boshqa millat vakillari boʻlgani sababli, milliy tilimiz sinfiy nuqtai nazardan qarovsiz qoldi. Oʻzbek milliy ziyolilariga millatchilikning ibtidosi, azal manbai sifatida qaraldi, va shu boisdan, ular mavjud tuzum tazyiqida asosan rus tilida muloqot qilishga majbur etildilar. Ishchilar sinfi va milliy ziyolilardan milliy til masalasida etarli

madad ololmagan dehqonlar (o‘zbeklarning oltmish foizi) o‘zbek tilida bilganlaricha so‘zlashdilar.

O‘zbek tili borasidagi ana shu tarqoqlikni bartaraf etish - milliy ziyolilarimizning dolzarb vazifasidir.

«(Milliy g‘oya:targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati» kitobi, 312-bet)

4-ilova

Matn mazmuni quyidagi savol va topshiriqlar asosida ko‘rib chiqiladi:

1. Turkiy tillar orasida o‘zbek tilining tutgan o‘rnini belgilang.
2. Tilga tazyiq deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining zaruriyati nimada deb o‘ylaysiz?
4. O‘zbek tilining tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Til sofliqi, tozaligi deganda nimani tushunasiz?
6. Matndagi eng so‘nggi gapda ifodalangan fikr xususida o‘ylab ko‘ring. Sizingcha, bu borada qanday ishlarni amalga oshirgan ma'qul.
7. O‘zbek tili taraqqiyotida A.Navoiyning tutgan o‘rnini siz qanday belgilaysiz?
8. Shaxsning komillikka erishuvida tilning mavqei qay darajada? Fikringizni hikmatli so‘zlar, allomalarning fikrlari vositasida dalillang.

5-ilova

“Zanjir ” usulini o‘tkazish qoidalari

- ushbu usul orqali o‘quvchilarda komillik sifatleri xususidagi tushuncha kengayadi, so‘z boyligi ortadi, tavsiya etilgan so‘zlarning imlosi yuzasidan bilimlar mustahkamlanadi, o‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida boshqa tillardan so‘z olishning ahamiyati va sabablari yuzasidan o‘qituvchi ko‘magida bilim hosil qilinadi.
- bu ta'limiy o‘yinda barcha talabalar ishtirok etadi;
- har bir talaba komil insonga xos bo‘lgan sifatlardan birini aytadi va yozadi: Odobli-aqlli-bilimdon-pok-xushmuomala-rostg o‘y... kabi;
- o‘zi aytgan so‘zning qaysi tilga mansubligini aytadi va uning o‘zbek tiliga o‘zlashishi sabablarini sharhlaydi;
- zarur o‘rinlarda o‘qituvchi izohlarni to‘ldirib boradi;
- zanjirda uzilishga yo‘l qo‘ygan talabalar “jazolanadi”, ya'ni qo‘shimcha topshiriq oladi.

Matn yuzasidan grammatik topshiriqlar

1. Soʻzlarning oʻzaro birikish usullari haqidagi bilimlaringizni esga oling va ayting.
2. Matndan soʻz qoʻshilmasiga misollar toping.
3. Matndagi soʻz birikmalarini moslashuvli, boshqaruvli, bitishuvli birikmalarga ajratib yozing.

Mavzu: Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati

Mashgʻulotning texnologik xaritasi


Darsning maqsadi	<p>Taʼlimiy: yangi mavzu yuzasidan bilim hosil qilish.</p> <p>Tarbiyaviy: davlat tiliga hurmat va masʼuliyat tuygʻularini mustahkamlash</p> <p>Rivojlantiruvchi: oʻquvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini oʻstirish va fikrini ogʻzaki bayon etish koʻnikmalarini shakllantirish</p>	
Dars turi	Yangi bilim berish, mustahkamlash	
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Oʻqitish shakllari: yalpi, yakka, juftliklar bilan ishlash	
	Oʻqitish vositalari: proektor, slaydlar	
	Monitoring va baholash: ogʻzaki va yozma nazorat, oʻzaro nazorat, hamkorlikda baholash, ragʻbatlantirish, 5 balli tizimda baholash	
Ishlash bosqichlari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Talabalar
1-bosqich. Fan va mavzuga kirish (15 daqiqqa)	<p>1.1. Auditoriyani bahs-munozara texnologiyasi talablari asosida tayyorlaydi. (1-ilova) Darsni «Grammatik yoʻqlama» bilan boshlaydi (2-ilova)</p> <p>1.2. Barchani faollashtirish uchun proektorda oʻquvchilarni fikrlashga undovchi chizmani namoyish etish orqali</p>	<p>Tinglaydilar, ishtirok etadilar</p> <p>Koʻradi, fikrlaydi, bir-birini nazorat</p>

	<p>muammoli vaziyat hosil qiladi. (3-ilova)</p> <p>Vaziyat echimi bo'yicha juftliklarning fikrlari tinglanadi, hamkorlikda eng yaxshi javob variantlari aniqlanadi va rag'batlantiriladi.</p> <p>1.3. Yangi mavzuni va mashg'ulotning maqsadini aytadi.</p>	<p>qiladi va baholaydi.</p> <p>Tinglaydi.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy (55daqiq)</p>	<p>2.1. Ekranga «Davlat tili» ma'rifiy matnini chiqaradi va o'qib beradi. (4-ilova)</p> <p>2.2. Matn mazmuni yuzasidan fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat etadi</p> <p>2.3 Darslikda berilgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Davlat tili haqida»gi Qonuni matni ustida belgilangan yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar asosida bahs- munozara o'tkaziladi.(5-ilova)</p> <p>2.3.Darsning ta'limiy maqsadini amalga oshirish maqsadida matn asosida grammatik topshiriqlar beradi. (6-ilova)</p>	<p>Ko'rishadi, tinglashadi.</p> <p>Tinglashadi, fikrlashadi, javob berishadi.</p> <p>Tinglaydilar va yakka tartibda bahsda ishtirok etadilar.</p> <p>Topshiriqlar ni og'zaki va yozma bajaradilar</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (10daqiq)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi, faoliyat natijalarini izchillikda izohlab beradi, baholaydi.</p> <p>3.2. O'quvchilar tushunmagan ayrim jihatlariga savollarga javob berish orqali aniqlik kiritadi.</p> <p>3.3. O'quvchilarga uyda fikrlash uchun va yozib kelish uchun quyidagi muammoni tavsiya etadi: Sizningcha, «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunga yana qanday o'zgartirishlar kiritish mumkin?</p>	<p>Tinglaydi, xulosa chiqaradi</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Uyda ishlash uchun muammo mavzusini yozib oladilar</p>

1-ilova

Bahs-munozara o'tkaziladigan o'quv xona ko'rinishi

Doska




2-ilova

“Grammatik yo‘qlama” ni o‘tkazish tartibi

bu usul darsning tashkiliy davrida o‘tkaziladi;
o‘quvchilarning til bo‘yicha bilimlarini mustahkamlaydi va nazorat qiladi;
xotirani mustahkamlaydi;
o‘qituvchi tartib bo‘yicha o‘quvchilarning ism-familiyasini o‘qiydi;
nomi chiqqan o‘quvchi tilshunoslikka oid bitta atama aytgach, joyiga o‘tiradi;
aytilgan atama boshqa o‘quvchi tomonidan aytilmasligi kerak.

Ushbu chizmani siz qanday izohlaysiz?



1-mavzu	Sintaktik tahlil va uning turlari: so‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi
----------------	---

Ta‘lim berish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa	Talabalar soni 12-15 gacha	
Mashg‘ulot shakli	Laboratoriya mashg‘uloti	
Mavzu rejasi	1. Sintaktik tahlil va uning turlari: so‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi mazmuni. 2. So‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi. 4. Xulosa.	
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Sintaktik tahlil va uning turlari: so‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi mazmuni bo‘yicha umumiy tushuncha berish. So‘z birikmasi va gaplarni o‘rgatish metodikasi mazmuni bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanib tahlil namunalarini amalda bajartirish.		
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> • Sintaktik tahlil va uning turlari: so‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi to‘g‘risida tushuncha berish; • So‘z birikmasini o‘rgatish usullari bilan tanishtirish. 	O‘quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none"> • Sintaktik tahlil va uning turlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish; 	
Ta‘lim berish usullari	Amaliy, suhbat	
Ta‘lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, individual	
Ta‘lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, proyektor, tarqatmalar.	
Ta‘lim berish sharoiti	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob	

1.2. ma‘ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi bilan tanishtiradi. 1.2. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (1-	Tinglaydilar Tinglaydilar

	<p>ilova).</p> <p>1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p> <p>1.4. Ta'lim bosqichlarida gramatik tahlilning qaysi usullaridan foydalaniladi?</p> <p>1.5. Grammatik tahlilning shartli belgilarini ko'rsating.</p>	Savollarga javob beradilar.
<p>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Sintaktik tahlil va uning turlari: so'z birikmasini o'rgatish metodikasi mazmuni haqida.</p> <p>2.3. So'z birikmasini o'rgatish metodikasi.</p> <p>2.4. Xulosa. Sintaktik tahlil va uning ta'lim bosqichlaridagi o'rni hamda ahamiyati.</p> <p>2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi:</p> <p>2.6. Sintaktik tahlil va uning turlari: so'z birikmasi va gap mavzusida baxs-munozara uyushtiring. Ular orasidagi farqli jihatlariga e'tibor bering.</p> <p>2. So'z birikmasini o'rgatish metodikasi o'qitishning tarkibi va mazmuni qanday?</p> <p>3. Sintaktik tahlilni o'tkazish usullari haqida gapiring.</p>	<p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun «Sintaktik tahlil va uning turlari: so'z birikmasini o'rgatish» mavzusini slayd asosida taqdimotga tayyorlash.</p>	<p>Savol beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

Talabalar bilishi va bajara olishi kerak:

1-ilova

Sintaktik tahlil va uning turlari: so‘z birikmasini o‘rgatish metodikasi

Sintaktik tahlil jarayonida o‘quvchilarning barchasi ham topshiriqlarni birday bajara olmaydi. Ayniqsa, ular tushunchalarning eng muhim alomatlarini ajratishda, yangi o‘zlashtirilgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashda, hodisalarni tasnif qilish va umumlashtirish talab qilinadigan bilimlarni tatbiq qilishda, shartli belgilarni o‘qishda qiynalishadi.

Birgina otning bosh kelishikdagi hamda tushum kelishigining belgisiz holatidagi shakllari ularni chalg‘itishi mumkin. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha bunday holatlarda o‘quvchilar hodisalarning hamda tushunchalarning barcha belgilari yig‘indisiga emas, balki ko‘zga ochiqroq ko‘rinib turadigan belgilarigagina e‘tibor beradi, xolos. Shuning uchun ham bunday holatlarda ulardagi so‘z turkumlari hamda ularning shakllarini aniqlay olish, gapda so‘zlarning aloqalarini belgilay bilish, gap bo‘laklariga eng munosib savolni bera bilish, ega va kesim guruhi chegaralarini aniqlashda bosh bo‘laklarning mazmuni hamda grammatik aloqalariga tayanish singari eng muhim ko‘nikmalar barqaror tarzda shakllantirish kerak.

Quyi sinflardanoq gapning bosh bo‘laklarini ajratishda ega va kesimni tanib olishning asosiy belgilarini tanib olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantirishi lozim bo‘ladi. Buni shunday amalga oshirish mumkin:

Ega

Gapning grammatik asosini tashkil qiladi

Kesim bilan mazmuman bag‘lanib, gapning kim yoki nima to‘g‘risida ekanligini bildiradi va gapda boshqa bo‘laklarga tobe bo‘lmaydi. Gapda Kim? Nima? Qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Ega kesim tomonidan aniqlanib, quyidagicha ifodalanadi: Ot: kitob oldim;

Sifat: Yaxshi ish bitirur, yomon ish yitirur;

Olmosh: Hamma keldi;

Son: Biri qochoq, biri qahramon;

Harakat nomi: ishlamoq ishtaha ochar;

Modal soʻz: bor-boricha, yoʻq-holicha;

Taqlid soʻz: uning taq-tuqi eshitildi;

Ibora: Onaxonning yuziga oyoq qoʻyish bizning axloqimizda yoʻq;

Birikma bilan: Bogʻda hamon ikki dugona suhbatlashar edi.

Masalan: Karima – kim? keldi., kitob(ni) – nima? oldim, Toshkent–qayer? goʻzal shahar.

Gapda ega vazifasida qoʻllanilayotgan soʻz kelishik qoʻshimchalarni olishi bilan oʻzining grammatik vazifasini ham oʻzgartiradi. Masalan: Men singlim bilan oʻynadim gapida men ega vazifasida kelgan. *Mening singlim kichkina* – bu gapda men soʻziga qaratqich keishigi qoʻshimchasi qoʻshilishi bilan aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Yoki, *Ona ulugʻ zod.* Ush bu gapda ona –kim ? ega. *Karima onaning ulugʻ zod ekanligi haqida toʻlqinlanib gapirdi.* Bu gapda onaning soʻzi aniqlovchi vazifasida kelgan. Oʻquvchilarga eganing ot, olmosh bilan ifodalanishi maʼlum. Uning otlashgan soʻzlar, ibora va ajralmas birikmalar bilan ifodalanishi esa yangi maʼlumotdir. Oʻquvchilar koʻpincha ajralmas birikmalar bilan ifodalangan egani topishga qiylanadilar. Shunga koʻra, eganing ajralmas birikmalar bilan ifodalanishini tushuntirishda egasi soʻroq olmoshili birikma bilan ifodalangan soʻroq gaplarning va bu soʻroqqa javob boʻlgan darak gaplarning egasini topishini mashq qildirish mumkin.

Eganing aniqlanishida qiyinchilik tugʻiladigan jihatidan biri, oʻquvchilarning tushum va qaratqich kelishigini belgisiz qoʻllanishini yaxshi bilmasligidadir. Buning uchun yoʻl qoʻyiladigan xatolikni tuzatishda tahlildan foydalanish oʻrinli boʻladi. M: *Kitob oʻqidim* – gapida oʻquvchilar *nima oʻqidim?* Soʻrogʻi bilan egani aniqlashga urinadilar. Bu gapda tushum kelishigi tushib qolgan, aslida nimani oʻqidim? degan soʻroq berilish lozim. Bu gapda ega tushib qolgan, kitob esa toʻldiruvch vazifasida kelgan. *Maktab(ning) hovlisi gullar bilan bezatildi.*

Kesim

Gapning grammatik asosini tashkil qiladi.

Ega bilan mazmunan bogʻlanib, ega haqidagi xabarni bildirib unga grammatik jihatdan tobe boʻladi va qaysi soʻz turkumi bilan

ifodalanishiga ko‘ra ot kesim va fe‘l kesim bo‘ladi. Gapda quyidagicha so‘roqga javob bo‘ladi: Nima qilyapdi? Nima qildi? Nima dedi?

Fe‘l kesim – fe‘l bilan: *Karim keldi* – nima qildi?;

- fe‘lning sifatdosh shakllari: *dam olish uchun yig‘lishgan*- nima qilishgan?;

- ravishdosh shakllari bilan: *Tong otgach- qachon?*, *yo‘lga tushdik*; ot kesim esa, ot: *Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti*;

- sifat: *o‘qish yaxshi*;

- son: *Ularning tili bir*;

- ravish: *Mening ishim ko‘p*;

- fe‘lning harakat nomi shakllari bilan: *yashamoq xalqqa foyda keltirmoqdir*;

- modal so‘zlar bilan ifodalanadi: *Bundan mening habarim bor*.

Sintaktik tahlilda qo‘llaniladigan asosiy belgilar:

Ega _____, kesim =====

Aniqlovchi ~~~~ , to‘ldiruvchi -----, hol

Men uyga kech qaytdim.

_____ =====

Men-ega, uyga- to‘ldiruvchi, *kech-* hol, *qaytdim-* kesim.

Ikki bosh bo‘lakli gaplarda ega o‘ziga aloqador bo‘laklar bilan birga ega guruhini, kesim o‘ziga aloqador bo‘laklar bilan birga kesim guruhini hosil qilishini tushuntirishda quyidagicha ko‘rsatmalilikdan foydalanish mumkin: *A‘lochi o‘qyvchilar topshiriqni puxta bajardilar.*

~~~~ \_\_\_\_\_ ----- ..... =====

O‘qituvchi gapni ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatib, quyidagilarni ta’kidlaydi:

Ega guruhida tovush ko‘tariladi, kesim guruhida esa tovush pasayadi.

Ega guruhi va kesim guruhi og‘zaki nutqda bir-biridan pauza bilan ajratiladi. Bu pauza mantiqiy pauza bo‘lib, tinish belgilari qo‘yilmaydi.

1-topshiriq: Avval gapning ega va kesimini, keyin egaga bog‘langan ikkinchi darajali bo‘laklarni, so‘ngra kesimga bog‘langan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang. Ega guruhi va kesim guruhi orasida qisqa pauza qilib, gaplarni ifodali o‘qing.

1. *Ko‘m–ko‘k tok barglari ertalabki quyosh nurida jilvalanadi.*(Oybek.) 2. *Daraxtlar orasidan ko‘rinib turgan kul rang osmon sekin-sekin qizara boshladi.*(A.Qahhor.) 3. *Mayin tong shabadasi rang-barang gullarni sekin tebratdi.* (Oybek.)

2-topshiriq: Ega va kesimning ifodalanishi tuzilishiga ko‘ra turlari bilan bog‘lab tushuntiring. Bu haqdagi ma‘lumotlarni mustaqil ishlash usuli va qiyoslash bilan izohlang va quyidagi topshiriqni bajaring.

- Gaplarni o‘qing. Bosh bo‘laklarni ko‘rsating. Ega qaysi gaplarda bir so‘z bilan, qaysilarida birdan ortiq so‘z bilan ifodalangan?

1. *G‘ira-shira tongdan qishloqda 1. Brigada a‘zolaridan besh kishi qizg‘in hayot boshlanib ketdi. mukofotlandi.*

2. *Biz buyuk yangilanishlar davrida yashamoqdamiz. 2. Yilning yaxshi kelish bahoridan ma‘lum* (Maqol).

Savol: Ega haqidagi bu ma‘lumotlarning qaysilari sizga ma‘lum? Qaysilarini bilmaysiz?

3-topshiriq: «Sodda va murakkab eganing ifodalanishi» jadvalini mustaqil misollar bilan to‘ldiring.

| Sodda va murakkab eganing ifodalanishi              |          |
|-----------------------------------------------------|----------|
| Sodda eganing ifodalanishi                          | Misollar |
| Ot bilan<br>Olmosh bilan<br>Otlashgan so‘zlar bilan |          |
| Murakkab eganing ifodalanishi                       | Misollar |
| Ot bilan<br>Olmosh bilan<br>Otlashgan so‘zlar bilan |          |

4-topshiriq: Yuqoridagi namunadan foydalanib quyidagi gaplarni sintaktik tahlil qiling.

1. *Guruhimizda yigirma beshta talaba bor.* 2. *Valeybol bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqada birinchi ruruh g‘olib chiqdi.* 3.

*Valeybol bo'yicha o'tkazilgan musobaqada bizning fakul'tet talabalari ruruhi g'olib chiqdi.*

Egani aniqlashda so'zning shakliga qarabgina emas, uning gapda boshqa bo'laklarga grammatik tobe bo'lmasligi, kesim bilan o'zaro bog'liq bo'lishiga o'quvchilar e'tiborini qaratish lozim. Bunda, *O'quvchilar turli gullarning bargidan gerbariy tayyorlashdi* kabi to'ldiruvchili gapdan egani topish talab qilinadi.

Bunday gaplarda egani to'ldiruvchidan farqlash, ularning qaysi biri gapning grammatik asosiga kirishi, qaysi biri kesim bilan soz birikmasi hosil qilishini aniqlash orqali o'zlashtiriladi.

Bu gapda kesimdan anglashilgan harakatni bajaruvchi – *o'quvchilar* – ega, gapning kim haqida aytilganini bildiriyapdi; *tayyorlashdi* – kesim, ega haqida nima deyilganini bildiriyapdi. Shunga ko'ra bu gapning grammatik asosi – *O'quvchilar tayyorlashdi*; *gerbariy* so'zi harakatni o'z ustiga olgan, harakat yo'nalgan predmetni bildirib, to'ldiruvchi bo'lib kelgan; u kesim (*tayyorlashdi*) bilan birga so'z birikmasini hosil qiladi.

5-topshiriq: O'zingiz mustaqil matn tuzing va quyidagi topshiriqlar asosida tahlil qiling?

1. Ega va kesim nimani bildiradi? Ular qaysi so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Gaplarni o'qib, ega va kesimini ko'rsating.
3. Qaysi gapning kesimi bir so'z bilan ifodalangan? Uning nimadan ifodalanganligini ayting.
4. Qaysi gapning kesimi birdan ortiq so'z bilan ifodalangan?

So'zlarning gapdagi sintaktik vazifasi:

- Ega– \_\_\_\_\_ ;
- Kesim– ===== ;
- Aniqlovchi– ~~~~ ;
- to'ldiruvchi– ----- ;
- hol– ..... ;

Bundan tashqari, sintaksisda quyidagilar ham o'rganiladi:

- uyushiq bo'laklar;
- ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar;
- undalma;
- kirish so'z;
- kirish gap.

### Tahlil turlari

*Fonetik tahlil.* So'zning nechta harf va nechta tovushdan iboratligi, tovushlarning unli-undosh ekanligi, har bir tovushning hosil bo'lish o'rniga va h.k. tasnifi, nechta bo'g'in, ochiq yoki yopiq, urg'u qaysi bo'g'inga tushishi aytiladi.

*Morfologik tahlil.* 1. So'z tarkibi yuzasidan tahlil (o'zak, negiz, qo'shimchalar, so'zning turi: sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z, tub so'z, yasama so'z va h.k.). 2. So'z turkumlari yuzasidan tahlil.

*Leksik tahlil.* So'zning yoki gapning lug'aviy ma'nosi, so'zlarning tub yoki ko'chma ma'noda ishlatilishi, bir ma'noli yoki ko'p ma'noli ekanligi.

### *Sintaktik tahlil.*

So'z birikmasini sintaktik tahlil qilish tartibi:

1. So'z birikmasini ko'rsatish.
2. Oddiy birikma, murakkab birikma.
3. Bosh so'z, ergash so'z, ularning ifodalanishi.
4. Birikish usuli.

Namuna: Ta'tilni quvnoq o'tkazdik. Bu gapda 2 ta so'z birikmasi bor: ta'tilni o'tkazdik, quvnoq o'tkazdik.

Ta'tilni o'tkazdik – so'z birikmasi, bosh so'z - o'tkazdik, ergash so'z - ta'tilni, bosh so'z fe'l bilan, ergash so'z ot bilan ifodalangan, bosh so'z bilan ergash so'z tushum kelishigi qo'shimchasi vositasida boshqaruv yo'li bilan birikkan.

Ikki bosh bo'lakli gapni tahlil qilish tartibi:

- Gapning maqsadga ko‘ra turi (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap).
- His-hayajon gap (his-hayajon gap tahlil qilingandagina aytiladi).
- Ikki bosh bo‘lakli gap, bir bosh bo‘lakli gap.
- Yoyiq sodda gap, yig‘iq sodda gap.
- Grammatik asosini topish.

Avval bosh bo‘laklar, keyin ikkinchi darajali bo‘laklarning har biri haqida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- a) qaysi so‘roqqa javob bo‘ladi;
- b) gapning qaysi bo‘lagi;
- v) nima bilan ifodalangan;
- g) gapning qaysi bo‘lagi bilan bog‘langan.

Ega guruhi, kesim guruhi.

To‘liq gap va to‘liqsiz gap.

Bir bosh bo‘lakli gapni sintaktik tahlil qilish tartibi:

1. Ikki bosh bo‘lakli gap yoki bir bosh bo‘lakli gap.
2. Bir bosh bo‘lakli gapning turi.
3. Gapning maqsadga ko‘ra turi.
4. His-hayajon gap (his-hayajon gap tahlil qilingandagina aytiladi).
5. Yig‘iq sodda gap yoki yoyiq sodda gap.
6. Bosh bo‘lagi: so‘rog‘i, ifodalanishi.
7. Ikkinchi darajali bo‘laklar: so‘rog‘i, turi, ifodalanishi.

Namuna: Yig‘im-terimga puxta tayyorgarlik ko‘rildi.

Bir bosh bo‘lakli gap, shaxsi topilmas gap, darak gap, yoyiq sodda gap, bosh bo‘lagi – tayyorgarlik ko‘rildi, nima qilindi so‘rog‘iga javob bo‘ladi, fe‘l bilan ifodalangan.

yig‘im-terimga – nimagaq so‘rog‘iga javob bo‘ladi, to‘ldiruvchi, bosh bo‘lak (tayyorgarlik ko‘rildi) bilan bog‘langan, ot bilan ifodalangan; puxta – qandayq so‘rog‘iga javob bo‘ladi, vaziyat holi, bosh bo‘lak bilan bog‘langan, holat ravishi bilan ifodalangan.

Grammatika – til haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, morfologiya va sintaksis bo‘limlaridan tashkil topadi. Sintaksis ham grekcha so‘z bo‘lib,

«tuzish» degan ma'noni bildiradi. Til fanining katta bir qismi bo'lgan **sintaksis — soʻz, soʻz birikmasi va gaplarning oʻzaro aloqasini, soʻz birikmasi va gaplarni tashkil etgan boʻlaklarning xususiyatlarini oʻrganadi**. Sintaksis shu jihatdan morfologiyadan farqlanadi.

Mustaqil soʻzlar bir-biri bilan ma'no va grammatik jihatdan bogʻlanib, soʻz qoʻshilmasi hosil qiladi. Soʻz qoʻshilmasidagi soʻzlar bir-biri bilan 2 xil bogʻlanadi: a) teng bogʻlanish, b) tobe bogʻlanish.

Teng bogʻlanishda soʻzlar sanash ohangi yoki teng bogʻlovchilar yordamida bogʻlanadi: dehqonlar va hasharchilar.

Tobe bogʻlanishda bir soʻz boshqasiga tobe boʻladi va soʻz birikmasini hosil qiladi. Soʻz birikmasida bosh soʻz (hokim soʻz) va ergash soʻz (tobe soʻz) ajratiladi.

Bosh soʻz qaysi soʻz turkumiga mansubligiga qarab, soʻz birikmasi 2 xil boʻladi: *otli birikma, fe'lli birikma*.

Bosh soʻz bilan ergash soʻzning qanday birikishiga qarab, soʻz birikmasi 3 xil boʻladi: a) moslashuv (*mening ukam; daraxt kurtagi*); b) boshqaruv (*olma terish; hosil uchun kurash*); v) bitishuv (*katta tanaffus; tez oʻqish*).

Soʻz birikmasi tarkibiga koʻra 2 xil boʻladi: oddiy birikma, murakkab birikma. Murakkab birikma oddiy birikmaning kengayishidan hosil boʻladi. Bunda oddiy birikmadagi bosh soʻz kengayadi (*badiiy film – yangi badiiy film*), ergash soʻz kengayadi (*terilgan paxta – ertalab terilgan paxta*) yoki ularning har ikkalasi kengayada (*hikoyani oʻqish – qiziq hikoyani zavqlanib oʻqish*).

*Ikki qavatli maktab, qish faslida borish* kabi birikmalar tarkibidagi *ikki qavatli, qish fasli* soʻz birikmalari ajralmas birikma deyiladi, chunki bu birikmalar butunicha *maktab, borish* soʻzlari bilan birikadi.

Soʻz birikmalari Gaplar

koʻm-koʻk suvlar... Suvlar koʻm-koʻk.

bu sinf... Bu – sinf.

yoqimli shabada... Shabada yoqimli.

ikki qavatli maktab... Maktab ikki qavatli.

Ergashning yaxshi ishi... Ergashning ishi yaxshi.

## So‘z birikmasini sintaktik tahlil qilish tartibi

1. So‘z birikmasini ko‘rsatish.
2. Oddiy birikma, murakkab birikma.
3. Bosh so‘z, ergash so‘z, ularning ifodalanishi.
4. Birikish usuli.

Namuna: *Ta'tilni quvnoq o'tkazdik*. Bu gapda 2 ta so‘z birikmasi bor: *ta'tilni o'tkazdik, quvnoq o'tkazdik*.

*Ta'tilni o'tkazdik* – so‘z birikmasi, bosh so‘z - *o'tkazdik*, ergash so‘z - *ta'tilni*, bosh so‘z fe'l bilan, ergash so‘z ot bilan ifodalangan, bosh so‘z bilan ergash so‘z tushum kelishigi qo‘shimchasi vositasida boshqaruv yo‘li bilan birikkan.

Dars ishlanma

**Fan:** Ona tili

Mavzu: Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari. To‘ldiruvch, uning turlari, vositasiz to‘ldiruvchi

**Darsining maqsadi:** To‘ldiruvch, uning turlari va vositasiz to‘ldiruvchi haqida ma’lumot berish.

**1. Tarbiyaviy maqsad:** Talabalarni tilni sevishga, o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini o‘rganishga, uni rivojlantirishga hissa qo‘shishni o‘rgatish;

**2. Ta’limiy maqsad:** Talabalarni mustaqil fikrlash, bayon etish qobiliyatini rivojlantirish, mavzu haqida ilmiy yo‘nalish berish;

**3. Rivojlantiruvchi maqsad:** Talabalarning tafakkur olamini boyitish, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish.

**4. Kasbiy tarbiya:** Talabalarni o‘qituvchilik kasbiga qiziqtirish va muhabbat uyg‘otish, bu kasbning sir-asrorlarini ochib berish;

**Dars metodi:** Qisman izlanuvchanlik.

**Dars usuli:** Suhbat, savol javob darsi.

**Dars turi:** Aralash.



**Dars jihozi:** Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari; to‘ldiruvchi, uning turlari bo‘yicha chizilmalar, kitoblar, TSO, texnik vositalar, slaydlar, tarqatma materiallar.

### **I.Darsning borishi:**

#### **Tashkiliy qism:**

- a) salomlashish
- b) davomati aniqlash
- d) Uygʻa berilgan vazifani tekshirish.

Dars mustaqil ish bilan boshlanadi: Ushbu gaplarni yozing va har bir gapning Grammatik asosini topib, tagiga chizing.

1. Ariq bo‘yi ko‘m-ko‘k maysalar bilan qoplangan. 2. Konfrensiya kitobxonlarda katta taassurot qoldirdi. 3. Har tomondan qushlarning yoqimli ovozi eshitilib turadi.

Mustaqil ishni tekshirishda bir o‘quvchi ega va uning ifodalanishini, ikkinchi o‘quvchi kesim va uning turlari haqida gapirib beradi.

Bu borada o‘qituvchi gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqida o‘tilganlarni eslatadi. Bu darsda to‘ldiruvchi o‘tilishini ma’lum qiladi va «Toldiruvchi haqida ma’lumot» mavzusini yozuv taxtasiga yozib qo‘yadi. Bu mavzuni bayon qilishda o‘qituvchi muammoli ta’lim uculidan foydalanib, o‘quvchilarni fikrlashga da’vat etadigan quyidagi savollarni beradi:

1. Qaysi so‘zlar to‘ldiruvchi bo‘lib kelgan?
2. To‘ldiruvchilar qaysi so‘roqlarga javob bo‘lyapti?
3. To‘ldiruvchilar qaysi so‘z bilan ifodalangan?
4. To‘ldiruvchilar qaysi so‘zga qanday yo‘l bilan bog‘langan?

Topshiriq slayd orqaliy darslikdagi misollar asosida bajariladi.

Sirtan qaralganda, bu savollar juda murakkabga, bolalar uni bajara olmaydiganga o‘xshaydi. Lekin IV sinfda to‘ldiruvchi haqida berilgan ma’lumot o‘quvchilarning mazkur topshiriqni bajarishlari uchun etarli zamin bo‘la oladi.

To‘ldiruvchi asosan ot va olmoshlar bilan ifodalanadi.

So‘z birikmasi haqida esa o‘quvchilar 7- sinfda ma’lumot oladilar. Ana shularga suyangan holda yuqoridagi topshiriqni bajarish yuzasidan

o'quvchilarning mustaqil izlanishlari uyushtiriladi. Mustaqil ish jarayonida o'quvchilar berilgan misollarni yuqoridagi savollar asosida tahlil qiladilar. Tahlil, asosan, quyidagi mazmunda bo'ladi:

1- gapdagi *terimchilarni* so'zi to'ldiruvchi, kimlarni so'rog'iga javob bo'ladi, ot bilan ifodalangan, *tabrikladi* so'ziga boshqaruv yo'li bilan bog'langan.

2- gapdagi *g'o'zapoyadan* so'zi to'ldiruvchi, nimadan? so'rog'iga javob bo'ladi, ot bilan ifodalangan, *tozalanmoqda* so'ziga boshqaruv yo'li bilan bog'langan.

O'quvchilarda savollarga yozgan javoblarini og'zaki so'zlab berish malakasi ortgan sari shu javoblarni qisqartirib yozishni talab qilish ham mumkin. Yuqoridagi mashiqda berilgan 3-gapning muammoli savollar asosida qisqartirib yozilgan tahlilini namuna tarzida keltiramiz:

M: *Traktor bilan*(nima bilan?, boshqaruv, ot, ko'makchi) *haydadi*. (Bunda matindan olingan so'zlar qavs tashqarisida, savollarga javoblar esa qavs ichida yoziladi.)

O'quvchilar bunday tahlil yuzasidan quyidagicha xulosa chiqaradilar. (muammo qilib qo'yilgan savollar nechta bo'lsa, xulosa ham shuncha raqam tartibidan iborat bo'ladi.)

1. *Terimchilarni, g'o'zapoyadan, traktor bilan* so'zlari to'ldiruvchi.

2. Bu to'ldiruvchilar kimlarni? nimadan? nima bilan? so'roqlariga javob bo'ladi.

3. 1- va 2-gapdagi to'ldiruvchilar ot bilan, 3-gapdagi to'ldiruvchi esa ot va ko'makchi bilan ifodalangan.

4. To'ldiruvchilar fe'l-kesimga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi.

O'qituvchi o'quvchilar javobini yakunlaydi-da, darslikdagi mashiqni so'roqlar o'rniga to'ldiruvchilar qo'shib o'qiydilar.

Vositasiz to'ldiruvchi haqidagi ma'lumotlar darslikdagi misollardan foydalanib tushuntiriladi. O'quvchilar oldindan ko'chma yozuv taxtasiga yozilgan gaplardan vositasiz to'ldiruvchilarni topib, tagiga chizib, ustiga so'rog'ini yozib, gapning qaysi bo'lagiga bo'lanishini belgilab boradi.

Mustahkamlash. Darslikda berilgan masniqlar og'zaki bajariladi: o'quvchilar berilgan gaplarni o'qib, vositasiz to'ldiruvchilarni ko'rsatadilar, ifodalanishini aytib beradilar. Kelingi mashq mustaqil bajariladi. Yozganlarini tekshirishda tushum kelishik qo'shimchasi qo'llangan va qo'llanmagan o'rinlarini ko'rsatib, uni tushuntirib berish talab qilinadi.

Differensiyal usul vositasida mustaqil ish. Differensiyal usul bilan mustaqil ish olib borilganda sinif o'quvchilarining bilimi, uquvi, amaliy malaka va ko'nikmalariga qaraladi. O'qituvchi o'quvchilarni ma'lum tartibda kichik guruhlarga bo'lib olgach, har bir guruh o'quvchilarining bilimiga mos mustaqil ish topshiradi.

Vositasiz to'ldiruvchilarni o'rganishga bag'ishlangan darsda differensiyal usuldan tayanch so'zlarni qatnashtirib matn tuzish va darslikdagi mashqni bajarishda foydalaniladi. Bunda sinf o'quvchilarining ko'pchiligini bir guruh hisoblab, ularga *ko'rak, gazeta, choy, norma, tashakkur* singari tayanch so'zlar vositasida «Mening ish kunim» mavzusida bog'lanishli matn tuzish topshiriladi. O'zlashtirish bo'sh o'quvchilarga darslikdagi masniqdan 4ta gapni ko'chirib, vositasiz to'ldiruvchilarning tagiga chizib, ma'nosidagi farqni tushuntirib berishga hozirlanish topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar ishini kuzatib boradi. Lozim topilganda ayrim o'quvchilarga zarur yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatadi.

Mashg'ulot oxirida har ikki topshiriqning bajarilishi yuzasidan suhbat o'tkaziladi va mustaqil ish yakunlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. To'ldiruvchining ta'rifini ayting, misol keltiring va tahlil qiling.
2. To'ldiruvchi necha xil bo'ladi? Ularning farqini izohlab bering.
3. Vositasiz to'ldiruvchi qaysi so'roqlarga javob bo'ladi? Misollar keltirib, ifodalanishini aytib bering.
4. Vositasiz to'ldiruvchi nimani bildiradi?

Uyga vazifa . Badiiy asardan 4ta gap yozing va uini sintaktik tahlil qiling.

Topshiriq: Yuqoridagi dars ishlanmadan foydalanib Ega va kesim orasida tireni ishlatilish mavzusiga dars ishlanma tayyorlang.

**Morfologiya** soʻzlarning grammatik xususiyatlarini; tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini tekshiradi. Bu shakliy tekshirish albatta lugʻaviy maʼno asosida boʻladi. Sintaksis ana shu soʻz shakllar dinamikasini, oʻzaro bogʻlanishini ularning gapdagi vazifasini, maʼlum fikrni ifodalashdagi oʻrnini oʻrganadi.

**Punktuasiya** – tinish belgilari haqidagi fan. U matndagi gaplarning urgʻusini topishga, soʻzlarni gap mazmuniga mos ohangda, toʻgʻri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Shu bois, punktuasion qoidalar sintaksisga bogʻlab oʻrganiladi.

Punktuasiya (lotincha punktum – nuqta)ning maʼnosi nuqtalar ilmi demakdir, ushbu atama uch maʼnoda qoʻllanadi: a) tinish belgilari tuzumi va qoʻllanish qonun-qoidalarini oʻrganuvchi boʻlim; b) punktuasion qonun-qoidalar – meʼyorlar yigʻindisi, toʻplami; v) tinish belgilari v.h.

### **Soʻz birikmasi va gap**

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi sifatida fikrni shakllantiradi, ifodalaydi, bayon qiladi. Fikr — gap orqali yuzaga chiqadi.

Gap haqida egallangan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirishda, **soʻz birikmasining** ahamiyati beqiyos. Soʻz birikmasi — gapda aniq bir yoʻnalishga ega boʻlish, maqsadli fikrlash, qolaversa, gapning badiiy boʻyogʻini quyuqlashtirish, uni qiziqarli hamda mukammal holatga keltirish vazifasini bajaradigan hodisa. Shuning uchun soʻz birikmasidan gapning qurilish material sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa oʻz navbatida talabaning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, fikr ifodasini tezlashtiradi. Buni aniq bir misol yordamida kuzatish mumkin.

Quyida sizga «Soʻz birikmalari hosil qilish va ular yordamida gap tuzish» oʻquv topshirigʻining anʼanaviy «*berilgan soʻzlar ishtirokida gap tuzish*» topshirigʻidan ijobiy farq: leksik-semantik maydonning kengayishi, badiiy boʻyoqdorlik darajasining ortib borishi, **saralash va tanlash imkoniyatlarining** koʻpligi, talabaga «*kashfiyotchilik xuquqning*» berib qoʻyilganligi, bu narsa DTSning asosiy talablaridan biri boʻlgan «Ijodiy tafakkur sohibini», nutqiy barkamol shaxsni

tarbiyalab, voyaga yetkazdirishdek muhim va dolzarb masalaning lisoniy yechimi ekanini aniq ko‘rsatib beradigan o‘quv jadvali tavsiya qilindi.

### **So‘z birikmalari**

### **Gap**

ertalabki quyosh, ko‘m-ko‘k barglar, 1. Barglar jilvalanadi  
nafis barglar, mayin 2. Bahorning mayin shabbodasida  
shabbodada hilpirayotgan yam-yashil raqs tushayotgan ko‘m-ko‘k barglar  
barglar, quyosh nurida, to‘lin oy quyosh nurida jilvalanadi.  
nurida, ming bir rangda 3. Bahorning mayin shabbodasida  
tovlanadi, jilvalanadi raqs tushayotgan ko‘m-ko‘k barglar,  
ming bir rangda tovlanadi, ertalabki quyosh nurida erkalanib,  
jilvalanadi...v.h.

#### **1-topshiriq:**

1. Jadval bo‘yicha dastlab so‘z birikmalarining qanday hosil qlinish usullarini izohlang.

2. So‘z birikmasini gapdan qaysi xususiyatiga ko‘ra farqlanishini izohlang.

3. So‘z birikmasida bosh va ergash so‘zlarning vazifasi nimadan iborat va nimaga xizmat qiladi.

4. Jadvalda «Barglar jilvalanadi» yig‘iq gapi bilan «Ko‘m-ko‘k barglar quyosh nurida jilvalanadi» yoyiq gapini taqqoslang.

2-topshiriq. Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.

«Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil o‘tkazilganda,**Talabalar bilishi va bajara olishi kerak:**

«Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil o‘tkazilganda, o‘quvchilar so‘zlarning o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda ishlatilganligini fahmlay oladilar». So‘zlarning o‘z ma’nosi va ko‘chma ma’noda ishlatilganligi so‘z birikmasida aniqlanadi. U ham so‘z kabi predmet, ish-harakat va ularning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi, ham shu xildagi boshqa narsa, buyum, shaxs, belgi, ish-harakatlardan ajratib, fikrni so‘zga nisbatan aniqroq ifodalaydi: M:

xatni

nimani o‘qimoq? she’rni

hikoyani

uyda

o‘qimoq

qayerda o‘qimoq?

maktabda

kutubxonada  
astoydil  
qanday o‘qimoq?ifodali o‘qimoq  
to‘g‘ri  
shoshilib  
sekin

O‘quvchilarning so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqidagi tasavvurlarini boyitish uchun ayrim ijodiy o‘quv — topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

**3-topshiriq.** Klaster usulidan foydalanib berilgan so‘z birikmalaridan otli, sifatli, ravishli, ravishdoshli birikmalarni ajrating.

**4-topshiriq.** Yuqoridagi so‘z birikmalari ishtirok etgan gaplar tuzing. So‘z birikmalarining gapdan farqiga diqqat qling.

**5-topshiriq.** SBlarni kelishikli birikmalar, ko‘makchili birikmalar qo‘shimchasiz birikmalarga ajratish. Quyida so‘z birikmalari mavzusini takrorlash, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, talabada og‘zaki nutq mahoratini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan namunalar berildi:

**6-topshiriq.** Quyida berilgan hikmatlardan ergash va bosh so‘zni aniqlang. Ularning bog‘lanish yo‘llarini tushuntiring. Hikmatlar asosida munozara o‘tkazing, bunda siz uchun qo‘l keladigan BBB usulidan foydalaning.

Agar bir daraxt kessangiz, o‘rniga yangi novdalar ko‘karib chiqadi, ammo mehru muhabbat niholi jazo arrasi bilan arralansa, aslo ko‘karmaydi.

Ishning oqibatini, nima bo‘lishini bilish – oqillikdan, ammo keladigan falokatga chora izlamay qayg‘u chekib o‘tirish – nodonlikdan dalolat beradi.

**7-topshiriq.** Birikmalarni uch guruhga ajratib, perfokartaga joylashtiring.

| moslashuvli | boshqaruvli | bitishuvli |
|-------------|-------------|------------|
|             |             |            |
|             |             |            |
|             |             |            |

Vatan o'g'lonlari, yurtimiz jamoli, o'g'ilni topib, gullar oralab, qiz bola, choy quti, kitoblardan foydalanish, yengil mashina, kasbini sharaflamoq, mamlakat Prezidenti, dil so'zlari, ishini bajrib, yoshlarga o'rgatish, undan ko'ra kuchli, farovonlik haqida kitob, yerni o'lchash, ogohlikka da'vat, sog'lomlashtirish maskani, qo'lni qo'yib, ishlashiga kafolat, e'tiborli ayol, kasbga muhabbat, saxovatli inson, xalqni boyitish, farovonlik uchun kurash, dolzarb masala, go'zal hissiyot, tug'ma qobiliyat, ta'til kunlari, yoshlar jamg'armasi, kasbga sadoqat, paxta hisobi, tinchlik haqida suhbat, insonparvarlik yordami, ko'z bilan ko'rish, uning nigohi, uch kishini, qahraton qish, nufuzli o'rin. (48-bet.)

**8-topshiriq.** Gaplarni o'qing. Kesimlarni topib, ikki ustunga yozing va ularning tuzulish turini izohlang.

| Ot kesim | Fe'l kesim |
|----------|------------|
|          |            |

I. Tilimiz juda boy, chiroyli. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u yo'q. Afsuski, radiomizda ko'pincha xalq bilan mana shu boy, chiroyli, purqudrat tilda gaplashishmaydi. Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga milisiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotganlarga hech kim hushtak chalmaydi? Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar salmoqli, naqadar zarur bo'lsa, kitobxonning qalbiga olib kiradigan obraz shu qadar kuchli bo'lishi kerak. Badiiy asarga baho berishda yuz xotir, g'araz, hasad, laganbardorlik singari illatlar adabiyotga yo'l topolmaydi.

(A.Qahhor)

II. 1. Mirzacho'lda ham cho'lni bo'stonga aylantirayotgan odamlar juda ko'p. 2. U paytlarda xo'jalikda ko'zga ko'rinadigan muhtasham imoratning o'zi yo'q edi. 3. Toshkentga tushib, bir mashinada o'tin-ko'mir olib chiqdik, eski shahar bozoridan bitta o'ttizinchi lampa oldik. 4. Bog'imizning gavjum bo'lishi bejiz emas edi. 5. A.Qahhor oddiy dehqondan tortib, to akademikkacha – hammaning ko'nglini topa olardilar, odamning ko'ngliga tushadigan birgina kaliti bor, bu kalit –

kamtarlik, oddiylikdir. 6. Uyimizdan yaxshilar qadami sira uzilmas edi. (55-bet.)

**9-topshiriq.** Ko‘chiring. Kirish so‘zlarni toping. Ular qaysi uslubda ko‘proq qo‘llanishini ayting?

1. Modomiki, siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohazalarimiz uchun e’tirozga o‘rin qolmaydi. 2. Demak, yashash ma’nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. 3. Ajabo, armonga yo‘l qo‘ymaslik mumkin bo‘lgan holda bu azobni, bu gumrohlikni nechun o‘zingizga ravo ko‘rdingiz. 4. Tavba, shunchalik bag‘ritosh, bemehr, bemuruvvat bola bo‘ladimi! 5. Ha, darvoqe, uni gazetaga yozmoqchi ham bo‘ldik avval, lekin satqai gazeta ketsin senga, deb yozmadik. 6. Hayotning eng og‘ir, eng shafqatsiz kunlarida ham yiqilmadi, aksincha, qaddini tik tutib, o‘zini mehnatga urdi. 7. Qisqasi, yaxshi onaning peshonasida ne baxt bo‘lsa, hammasi Saodat buvida mo‘l-ko‘l. 8. Bu so‘zdan hamma qarilar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak! Aslo! Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko‘p. 9. Xo‘p, bugungi gapim tamom qizim. 10. Aksincha, dami ichiga tushib ketgan odamday churq etmay, hatto, nafas ham olmayotganday o‘tirib qolar edi.

(M.Ismoilij) (118-bet)

### **Savol va topshiriqlar.**

— So‘z birikmalari (SB) ning nutqdagi o‘rni va bajaradigan vazifasini tushuntiring.

— SB bilan so‘zning o‘xshash tomonlarini ayting.

— SB bilan so‘z o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

— SB nimalardan tashkil topadi?

— SBlaridagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’riflang.

— Sblarda grammatik aloqa nima orqali ifodalanadi?

— Sblarda mazmunij aloqa qayerda ko‘rinadi?.. v.h.

Ush bu mavzuni dars turlarining noan’anavi usulidan foydalanib dars ishlanmasini tayyorlang.

***Talabalar bilishlari zarur:***

**Gap. Gapning asosij belgilari**



Gap axborot, xabar, so‘roq, buyruq va his-tuyg‘uni ifodalash uchun xizmat qiladigan sintaktik birlikdir.

Tilning ifoda vositalarini (so‘z, so‘z birikmasi va gap) o‘zaro qiyoslash, gapning asosiy belgilaridan biri tugallangan fikr ifodasini bildirishini uqib oladilar va xulosalaydilar.

«Gap grammatik, intonasion va fikriy jihatdan bir butunlikka, nisbiy tugallikka ega bo‘ladi»<sup>24</sup>.

1. Gap tugallangan ohang ifodalashi haqidagi bilimni mustahkamlashda quyidagi matndan foydalansa bo‘ladi:

*Ro‘zaning hazm qilish sistemasiga ta’siri haqida to‘xtalaylik: hazm qilish tizimining eng og‘ir vazifalaridan biri — jigar faoliyati bilan bog‘liq, bunda jigar o‘n olti xil vazifani ado etadi.. .v.h.*

Gaplarni qiroat bilan o‘qing. Ularning chegarasini aniqlang. Zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring... kabi topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish orqali o‘quvchilar narsa va hodisalarni ularning belgilari, ular orasidagi o‘zaro bog‘lanishni tasavvur qiladilar, nisbiy tugallangan fikr nimaligini anglab yetadilar.

2. Gap nisbiy tugallangan fikr ifodalashini asoslash uchun gapning so‘z birikmasidan farqni ko‘rsatib o‘tish foydali.

|                       |            |
|-----------------------|------------|
| <b>So‘z birikmasi</b> | <b>Gap</b> |
|-----------------------|------------|

|                |                |
|----------------|----------------|
| Yoqimli musiqa | Musiqa yoqimli |
|----------------|----------------|

|                |                  |
|----------------|------------------|
| Yozuvchi Oybek | Oybek — yozuvchi |
|----------------|------------------|

|            |            |
|------------|------------|
| Ko‘p kitob | Kitob ko‘p |
|------------|------------|

Birinchi ustundagi so‘z birikmalarida ohang ham, fikr ham mantiqan davom ettirilishi talab qilinadi.

Masalan: **Yoqimli musiqa** (dillarga halovat baxsh etardi). **Yozuvchi Oybek** (o‘zining butun umrini xalq xizmatiga bag‘ishladi). **Ko‘p kitob** (o‘qish foydali).

Ikkinchi ustundagi gaplar – **Musiqa yoqimli, Oybek — yozuvchi. Kitob ko‘p** – mantiqan tugallangan fikr bo‘lib, so‘zlovchining musiqa, Oybek, kitob haqidagi xulosasi aytilgan. Fikrni davom ettirishga hojat yo‘qligi aniq ko‘rinib turibdi.

3. Gapning grammatik jihatdan shakllangan bo‘lishini bilishda so‘z birikmasidan so‘zlarning va gap bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishini –

gapdagi soʻzlar qoʻshilmasini tushunish muhim oʻrin egallaydi. Talabalarning soʻz birikmasiga oid bilimlarni puxta egallab olishlari, gap, gap boʻlaklariga oid maʼlumotlarni mustahkam oʻzlashtirishlariga, mazkur bilim va koʻnikmalarni oʻz nutqda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllash malakasini hosil qilishlariga zamin boʻladi.

4. Gap – fikr bayon qilishning eng sodda shakli. Nutqdagi bundan keyingi boʻlinishlar undagi tugallangan ohang va tugal fikr ifodalash, aniqlik va xususiylikning yoʻqolishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlar va ilmiy tahlilga asoslanib, quyidagi xulosaga kelinadi:

Gap – aloqa aralashuvning muhim vositasi; u nisbiy tugallangan fikr bildiradi; grammatik jihatdan shakllangan boʻladi; tugallangan ohang bilan aytiladi. Ammo bu xulosa tayyor holda berilmasdan, uni oʻquvchilarning oʻzi misollar tahlili orqali «kashf qilishsa», maqsadga muvofiq boʻladi.

Mazkur mavzuni oʻrganish jarayonida darak, soʻroq, buyruq, his-hayajon gaplar haqidagi bilimlar takrorlanadi, mustahkamlanadi; ularni gaplar oxiriga qoʻyiladigan tinish belgilariga asoslanib, ifodali oʻqish mashq qilinadi, «qiroat sanʼati» haqida maʼlum tushunchalar beriladi.

Har bir gap oʻziga xos va mos ohang bilan aytiladi, yozuvda bunday gaplar oxiriga qoʻyiladigan tinish belgilari orqali farqlanadi.

Gapda soʻzlarni bir-biri bilan bogʻlashga xizmat qiladigan vositalar ustida ishlash uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin:

1. Badiiy asar oʻqish (bilan) hordiq chiqaramiz. 2. Topshiriq oʻz vaqti (da) bajarildi. 3. Shahnoza shahar(ning) qurilishi(ni), u(ning) havosi (ni) maqtadi.

### **Tahlil uchun topshiriq**

1. Soʻzlarning bir-biri bilan qanday bogʻlanganini aniqlang.

a) birinchi gapdagi yordamchi soʻz bilan – koʻmakchisi;

b) ikkinchi gap qaysi kelishigi qoʻshimchasi yordamida bogʻlanganligini;

v) uchinchi gap qaysi kelishik qoʻshimchalari vositasida bogʻlanganligini ayting.

g) darak gaplarni aniqlang va uni sintaktik tahlil qiling.

### **1-topshiriq.** Matnni o‘qing.

Birinchi sentyabr. Mustaqillik bayramiga yig‘ilgan xalq, qiziqsh va hayajon bilan tadbir boshlanishini kutmoqda. Mana, nihoyat, bayram namoyishi boshlandi: turli viloyat vakillari o‘z san‘atlari bilan bayram qatnashchilarini xushnud qldilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

**1-topshiriq.** Gaplarni ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra turini ayting. Ularning o‘qilish ohangiga diqqat qling.

**2-topshiriq.** Yoyiq darak gaplardagi ega va kesim guruhlari orasida sintagma (qisqa to‘xtalish)ning o‘rnida tinish belgisi qo‘yilmasligi sababini ayting.

### **3-topshiriq. Matnni o‘qing**

**Bakalavriat bosqichi uchun mo‘ljallangan R. Yunusovning** «O‘zbek tili praktikumi 1- qism. Toshkent 2006 yil» kitobida shunday mulohazalar bor:

#### ***Talabalar buni bilishi kerak:***

#### **Mustaqil so‘z turkumlarida so‘z yasalishi**

Bir turkumdan boshqa turkumga oid so‘z yasash hodisasi tilda leksikaning boyish manbalaridan biri hisoblanadi.

So‘z yasalish hodisasi turkumlariga ko‘ra tahlil qilinganda, uning turlicha ko‘rinishlarini aniqlash mumkin. Ularni quyidagicha guruhlarga ajratsa bo‘ladi:

- tilda ma‘lum turkumga oid so‘zdan affiksasiya hamda kompazisiya usullari yordamida boshqa turkumga oid yangi so‘z yasaladi;

– tilda ma‘lum turkumga oid so‘zdan affiksasiya hamda kompazisiya usullari yordamida shu turkumning o‘ziga oid yangi so‘z yasaladi;

– tilda ma‘lum turkumga oid so‘zlar boshqa turkumdagi so‘zlardan hamda shu turkumning o‘ziga oid so‘zlardan yasalmaydi;

– yangi so‘z boshqa turkumga oid so‘zlardan hamda shu turkumning o‘ziga oid so‘zlardan yasalmaydi, balki u to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikmalar asosida yasaladi.

– tilda ma‘lum turkumdagi so‘zlardan boshqa turkumga oid so‘zlarning yasalishi ko‘p uchraydi. Bunda ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish, taqlid va undov so‘zlardan yangi so‘zlar yasaladi. Lekin yangi

soʻz yasalihi faqat ot, sifat, feʼl, ravish turkumlariga xosdir. Shu jihatdan qaralganda, son, olmosh, taqlid soʻzlar yasalmaydi.

– tilda ot, sifat, feʼl, ravish yasalihiining turli shakllari mavjud:

**Ot yasalihi tarkiblari:** *kes (feʼl)- kesak (ot), bir (son)- birlik (ot), tez (ravish)- tezlik (ot), shar-shar (taqlidiy soʻz)-sharshara (ot), kalta (sifat) kesak (ot)- kaltakesak (ot), besh (son)+barmoq (ot), beshbarmoq (ot), dunyo (ot)+qarash (feʼl)-dunyoqrash (ot), besh (son)+otar (feʼl)- beshotar (ot) kabi.*

**Sifat yasalihi tarkiblari:** *yogʻ (ot)- yogʻli (sifat), bugun (ravish)- bugungi (sifat), choʻz (feʼl)- choʻziq (sifat), yeg (feʼl)-egik (sifat), yumala (feʼl)- yumaloq (sifat), bozor(ot)+bop (sifat) – bozorbop (sifat), sof (sifat) +- dil (ot)- sofdil (sifat), bola (ot) + jon (ot) – bolajon (sifat), kam (ravish) + gap (ot) – kamgap (sifat), gʻam (ot) + xoʻr (feʼl) – gʻamxoʻr (sifat), ham (yordamchi soʻz) + dard (ot) – hamdard (sifat).*

**Feʼl yasalihi tarkiblari:** *arra (ot) – arrala (feʼl), tekis (sifat) – tekisla (feʼl), sekin (ravish) – sekinla (feʼl), dod (undov soʻz) – dodlamoq (feʼl), gumbur (tavlid soʻz) – gumburlamoq (feʼl), ikki (son) – ikkilanmoq (feʼl), sen (olmosh)- sensiramoq (feʼl), imzo (ot) + chekmoq (feʼl) - imzo chekmoq (feʼl), kasal (sifat)+boʻlmoq (feʼl) – kasal boʻlmoq (feʼl) kabi.*

**Ravish yasalihi tarkiblari:** *askar (ot)- askarcha (ravish), yangi (sifat) – yangicha (ravish), siz (olmosh) – sizcha (ravish), yururgan (sifatdosh) + yugurgancha (ravish), qaragani (ravishdosh) – qaragancha (ravish), bir (son) – birdek (ravish), har+ qachon (payt maʼnosini bildiruvchi soʻz) – hech qachon (ravish), bir (son) – yoqqa (oʻrin maʼnosini bildiruvi soʻz) – biryoqqa (ravish) kabi.*

2. Maʼlum turkumga oid soʻzdan yangi soʻz yasalihi haqida gapirilganda, affiksasiya hamda kompazisiya usulida, asosan, ot, sifat, ravish turkumlaridagi yasalihi nazarda tutiladi. Chunki feʼl turkumiga oid yangi soʻz feʼlning oʻzidan affiksasiya usulida yasalmaydi. Lekin feʼl + feʼl shaklida qoʻshma feʼllar yasaladi.

Ot yasalihi tarkiblari: *ashula (ot) – ashulachi (ot), gul (ot) – gulzor (ot), oʻt (ot) – oʻtloq (ot), bobo (ot) + dehqon (ot) – bobodehqon (ot), zar (ot) + kokil (ot) – zarkokil (ot) kabi.*

Sifat yasalish tarkib: ulug‘ (sifat) – ulug‘vor (sifat), g‘ayri (sifat) + tabiiy (sifat) – g‘ayritabiiy (sifat) kabi.

Ravish yasalish tarkiblari: hozir (ravish) – hozircha (ravish), ko‘p (ravish) – ko‘plab (ravish), nari (ravish) + beri (ravish) – nari-beri (ravish), oldin (ravish) + keyin (ravish) - oldin-keyin (ravish) kabi.

Fe‘l yasalish tarkiblari: sotib (fe‘l) + olmoq (fe‘l) – sotib olmov (fe‘l), borib (fe‘l) + kelmoq (fe‘l) – borib kelmok (fe‘l) kabi.

3. Ba‘zi turkumga oid so‘zlar boshqa turkumdagi so‘zlardan ham, shu turkumning o‘zidan ham affiksasiya usulida yasalmaydi. Bularga mustaqil so‘z turkumlaridan olmosh va son turkumlariga oid so‘zlar kiradi. Lekin *tilda yigirma besh, bir yuz ellik besh* kabi qo‘shma sonlar; *beshtolti, o‘n-o‘n besh* kabi juft sonlar; *har kim, har nima, hech narsa, ba‘zi bir* kabi qo‘shma olmoshlar mavjud.

4. So‘z yasalishining bu turida yangi so‘z affiksasiya usulida ham, kompazisiya usulida ham yasalmaydi. Balki to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikmalarning qisqarishi asosida yasaladi. Bunda abbreviasiya usulida so‘z yasaladi. Abbreviasiya usulida o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan bo‘lib, ot turkumiga oid qisqartma so‘zlarni yasaydi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilot (to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikma) - BMT (qisqartma so‘z), O‘zbekiston Milliy Universiteti (to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikma) – (O‘zMU) (qisqartma so‘z) kabi.»<sup>1</sup>

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zingiz mustaqil matn tuzing. ularda *ot yasalish tarkiblari, sifat yasalish tarkiblari, fe‘l yasalish tarkiblari, Ravish yasalish tarkiblari bo‘lishiga hamda:*

– Ularda turli izohlar, tushuntirishlar, jadval va sxemalar bo‘lishiga alohida e‘tibor qarating.

*Masalan:* «Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2-kitob- Toshkent, 2008» kitobida shunday izohlar uchraydi:

### **Tayanch tushunchalar**

«**Leksikologiyaning ob‘ekti** – tilning lug‘at boyligi, leksik tizim.

**Lug‘aviy birliklar** – so‘z va iboralar (leksema va frazemalar).

---

<sup>1</sup> R. Yunusov. O‘zbek tili praktikumi 1-qism. Toshkent, 2006 yil 91-92- betlar.

**Lisoniy omillar** (lingvistik faktorlar) – tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

**Nolisoniy omillar** (ekstralingvistik faktorlar) – til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tuzum, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot, sa'at va boshqalar.

**Umumiy leksikologiya** – leksikologiyaning barcha (yoki ko'pchilik) tillar lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlash va yoritisho' bilan shug'ullanuvchi turi.

**Tavsifiy leksikologiya** – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti bilan bog'lamay o'rganadigan leksikologiya.

**Tarixiy leksikologiya** - ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'lab o'rganadigan leksikologiya.

**Semasiologiya** – leksik birliklarning semantik tarkibi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha.

**Onomasilogiya** – leksik birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsipi hamda qonuniyatlari haqida ma'lumot beruvchi soha.

**Etimologiya** – tilshunoslikning so'z va morfemalarining kelib chiqishini o'rganuvchi bo'lim»<sup>2</sup>.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. *Oliy ta'limda tilshunoslik turkumidagi fanlar ro'yxatini sanang?*
2. *«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan «Adabiy tilning taraqqiyot omillari» mavzusi uchun ma'ruza matnini tuzing.*
3. *Ona tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha bir soatlik amaliy mashg'ulot rejasini tuzing.*
4. *Shu fanning bitta mavzusi uchun test topshiriqlari, bitta mavzusi uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.*
5. *«Til va adabiyot ta'limi» jrnali maqolalari asosida yangi metodik adabiyotlar annotasiyasini tuzing.*
6. *Shu fanni bo'limlari uchun ko'rgazma tayyorlang.*

---

<sup>2</sup> H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-kitob - Toshkent, 2008. 6-bet.

|                |                                                                                                                                                                       |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>2-mavzu</b> | <b>Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari, ulardagi uzviylik va uzluksizlik</b> |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### **Ta’lim berish texnologiyasi**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b>                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Mashg‘ulot shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari, ulardagi uzviylik va uzluksizlik bo‘yicha umumiy tushunchalarni mustahkamlash, dastur va darsliklar mazmuni bilan yaqindan tanishtirish.                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b><br><ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan mavzular to‘g‘risida tushuncha berish;</li> <li>• Akademik litseylardagi ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari haqida ma’lumot berish;</li> <li>• Kasb-hunar kollejlari ona tili fani dasturlari bilan tanishtirish.</li> </ul> | <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b><br><ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy o‘rta ta’lim maktablari;</li> <li>• Akademik litseylar;</li> <li>• Kasb-hunar kollejlaridagi ona tili fani dasturlarining mazmunini va tartibi haqida tushuncha hosil qiladi.</li> </ul> |
| <b>Ta’lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Amaliy, suhbat                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>Ta’lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | Ommaviy, jamoaviy, individual                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Ta’lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | O‘quv qo‘llanma, proyektor, tarqatmalar.                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Ta’lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Og‘zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                   |

### **1.2. Laboratoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| <b>Ish bosqichlari va vaqti</b> | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                                                                                                                       |                          |
|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
|                                 | <b>Ta’lim beruvchi</b>                                                                                                                                                        | <b>Ta’lim oluvchilar</b> |
| <b>Tayyorgarlik bosqichi</b>    | 1. Mavzu bo‘yicha reja tayyorlash.<br>2. Kirish darsi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.<br>3. Mavzuni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzib chiqish. | Tanishadi                |

|                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                                       |
|---------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)</b>  | <p>1.1. Mashg‘ulot mavzusininng maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <p>Tinglaydilar, tanishadilar</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>                  |
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>  | <p>2.1. Power Point dasturi yordamida mavzuga oid slaydlarni namoyish qilish va izohlash.</p> <p>2.2. Umumiy o‘rta ta’lim maktab dasturlarida uzviylik va uzluksizlik haqida.</p> <p>2.3. Akademik litsey dasturi va uning vazifasi.</p> <p>2.4. Kasb-hunar kollejidagi ona tili dasturining uzviylikka asoslanganligi va uning ahamiyati.</p> <p>2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi.</p> | <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p> |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | <p>3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun «Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejidagi ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari, ulardagi uzviylik va uzluksizlik» mavzusida referat yozish.</p>                                                                                                           | <p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>                             |

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik Litsey kasb-hunar kollejlariida ona tili faniga oid dasturlarning xususiyatlari, ulardagi uzviylik va uzluksizlik.**

**Savol:** *Darsliklarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar nimalardan iborat? Ularni sanab qursatishga harakat qiling.*

Darsliklar bilan ishlashda ikkita holatni e’tiborda tutish kerak bo‘ladi: 1) o‘quvchilarni darsliklar bilan ishlashga o‘rgatish. Bunda o‘qituvchining faoliyati nazarda tutiladi;

2) bevosita o‘quvchilarning darsliklar bilan ishlashlari.

**Topshiriq:** Har ikki holatni izohlaydigan misollar keltiring.

**1-topshiriq:** Metodist olim S.Matchonov to‘g‘ri ko‘rsatganiday, «darsliklar ustida ishlash boshqa turdagi adabiyotlar bilan ishlashdan



farqli o'laroq, butun o'quv yili davomida qat'iy tartib asosida olib boriladi»<sup>3</sup>. U darslik ustidagi ishlarni quyidagi qismlarga bo'ladi:

1. Tayyorgarlik davri. 2. Bilimlarni o'zlashtirish. 3. Bilimlarni mustahkamlash. 4. Yakuniy bosqich<sup>4</sup>.

**2-topshiriq:** Siz buni qanday tushunasiz? Misollar bilan o'z fikringizni izohlang.

**Matnni o'qing;**

Amaliyotda o'quvchilarning darsliklar bilan ishlashda ancha qiyinchiliklarga duch kelishi, bu sohadagi ko'nikma va malakalarining pastligi ko'rinib qoladi. Buning asosiy sababi sifatida «nazariy qismlar tilining o'ta rasmiy va og'irligi, savol-topshiriqlarning jo'nligi, suratlar va boshqa qo'shimcha didaktik materiallarning tegishlicha berilmasligi va hokazolar» ko'rsatiladi. Buning asosiy o'zak nuqtasi o'qituvchiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi: «Ammo eng muhimi, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatida asosiy manba bo'lgan darslik va majmualar ustida ishlashga talab darajasida o'rgatilmaligidadir»<sup>5</sup>.

S.Matjon o'quvchilardagi darsliklar ustida ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanishida ota-onalarning roli masalasiga ham to'xtab o'tadi. Bunday ayrim salbiy holatlarga to'xtab, shunday yozadi: «Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik ota-onalar farzandlari uy vazifalari yuzasidan murojaat qilganlarida, tushuntirmasdan, ularni o'zlari ishlab berar ekanlar»<sup>6</sup>.

«Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»<sup>7</sup>da ta'kidlanganidek: «Milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Mafkuraviy hamda mazmun va mohiyati jihatdan eskirgan, to'liq an'anaviy (bosma) usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma'lum qismi

<sup>3</sup> Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent, O'qituvchi, 1996, 60-bet

<sup>4</sup> O'sha kitob, 60-61-betlar.

<sup>5</sup> O'sha kitob, 61-bet.

<sup>6</sup> O'sha kitob, 62-bet

<sup>7</sup> Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – Tuzuvchilar: A.A.Karimov, E.Z.Imamov, Q.I.Ro'ziyev, O.S.Bo'tayorov. - Toshkent, Sharq, 2002.

yangi ta'lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob berolmay qoldi»<sup>8</sup>. Hujjatda uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi alodini yaratishning maqsad va vazifalari quyidagicha belgilangan: «Konsepsiyaning maqsadi uzluksiz ta'lim tizi-mining barcha ta'lim turlari uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish tamoyillari va ularni tayyorlash mexanizmlarini belgilashdan iboratdir.

Ushbu Konsepsiyaning asosiy vazifalariga o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy– didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, o'quv adabiyotlaridan to'g'ri va rasional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllar va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish uchun strategik masalalar ko'lamini aniqlash kiradi»<sup>9</sup>.

Ona tili darsliklari o'quvchilarning milliy mafkura asosida shakllanadigan dunyoqarashlarida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida Prezidentimizning darsliklar haqidagi mulohazalarini ko'rib o'tdik. Bu bezovtalik bejiz emas. Yaxshi darslik mukammal dars, puxta bilim, o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini yo'lga qo'yish degani hamdir. Bugina emas, yaxshi darsliklar o'quvchilar egallaydigan bilimlarning hajmi va sifatini ham kafolatlaydi. Demak, darslik tufayli biz pedagogik maqsad sifatida ko'zda tutadiganimiz asosiy holat – aks aloqani ham ta'minlagan bo'lamiz.

«O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ba'zi misollarni boshqa manbalardan keltirishi, ayrim qoidalarni o'z so'zi bilan tushuntirishi mumkin, lekin ta'rif va har qanday xulosa darslik bilan mos kelishi shart. Darslikdagi hamma tekstlar xoh uyda, xoh sinfda o'quvchilarning ko'zidan o'tishi kerak. O'quvchilarning uyda ishlash faoliyatini yengillashtirish maqsadida uyga berilgan vazifa tushuntiriladi, mashqdan namunalar ishlanadi»<sup>10</sup>.

---

<sup>8</sup> O'sha kitob, 3-bet.

<sup>9</sup> O'sha hujjat, 4-bet.

<sup>10</sup> Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent O'qituvchi, 1975 y. 84-bet.

Ko'pgina olimlarimiz darsliklardagi asosiy kamchiliklarni faqat uning mazmuni bilangina emas, balki shu mazmuni ochib berishga qaratilgan shakl va usullarning nomunosibligi bilan ham aloqalantirishadi. Buning ustiga darsliklar bilan ishlash metodikasining puxta ishlanmaganligi, yosh, tajribasiz o'qituvchilarimizning bu boradagi no'noqliklari ham o'quvchilarning darslik ustida ishlashga oid ko'nikma va malakalarining tez va puxta shakllanishiga xalaqit beradi.

O'quvchilarning ona tiliga oid bilimlari, til nazokatini, so'zni his etish darajalari, badiiy adabiyotning sir-sinoatini tushunib, undan zavq tuyishlariga oid bo'lgan jarayonlarni, shu jarayonlar bilan aloqador bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini qay tarzda barqaror va mustahkam qilish, ularni tezlashtirish mumkin bo'ladi. Buning ustiga ona tilining o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini ham nazarda tutish kerak bo'ladi. Zero, har qanday bilim – ko'pincha aqliy mehnat mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Bu o'qish-o'qitish jarayonining o'zi tegishli ko'nikmalarning shakllantirilishiga asos bo'ladi degan gap. Biroq, til, ona tiliga tegishli grammatik tushuncha va ma'lumotlarni bilishdan tashqari, shu tilda ifoda etilgan fikr go'zalligini, ifodaning o'ziga xosliklarini his etishni ham taqazo etadiki, Ona tiliga oid darsliklar mana shu o'ziga xoslikni ham diqqat markazida tutishi kerak bo'ladi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «buyuk manaviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andazalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda»<sup>11</sup>.

Buning bevosita isboti sifatida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni eslash mumkin. Ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida mana shu Qonun talablarini amalga oshirish uchun astoydil harakatlar qilindi.

Endilikda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik Litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlari,

---

<sup>11</sup> Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997 yil 29 avgust. Toshkent: Sharq, 1997. 5-bet.

darsliklar, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi yaratildi. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi yangi bo'g'in – akademik Litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ham me'yoriy hujjatlar komplekslari muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun til va adabiyot fanlaridan davlat ta'lim standartlari yaratildi. Shu asosda o'quv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib ravishdagi darsliklarga ham egamiz. Xo'sh, bu darsliklar qanday talablar asosida yaratilgan?

Bu darsliklar birinchi navbatda DTS talablariga javob berishi kerak. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

**3-topshiriq.** Yuqoridagi materiallarni uzviylik va uziuksizlik nuqtaiy nazaridan tahlil qiling.

**4-topshiriq.** *Quyidagi materillar bilan tanishing:*

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ona tili fanidan birinchi marta davlat ta'lim standarti yaratildi<sup>12</sup>. Uning yangi avlodi ish tajribalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda.

«Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim

---

<sup>12</sup> Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. Toshkent, Sharq, 1999, 1-maxsus son.

mazmunining o‘zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli muassasalarda ta‘limning barqaror darajasini ta‘minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta‘lim standarti o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar, nizomlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi»<sup>13</sup>.

Darsliklar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Davlat ta‘lim standarti talablariga javob berishi;
- dastur asosida yaratilishi;
- yo‘riqnoma (konsepsiya)ga muvofiq bo‘lishi;
- ta‘lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka javob bera olishi;
- darsliklar hajm jihatidan katta bo‘lmasligi;
- tili sodda, ravon, tushunarli bo‘lishi;
- misol va mashqlar uchun tanlangan asarlar (parchalar) o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi;
- misol va mashqlar uchun tanlangan asarlarning rang-barang uslublarga mansub bo‘lishi; uning turi va janriga ham e‘tibor berish; eng sara va yuksak badiiyat talablariga javob beradigan badiiy asarlardan olinadigan misollarning salmog‘i til darsliklarida hamma vaqt juda baland bo‘lishi;
- bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib, matnlarni tanlashning quyidagi tamoyillariga diqqatni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:
- o‘rganish, tahlil qilish uchun tanlangan mashq va misollar, matnlar o‘quvchilarning tanlaydigan kasblari bilan bog‘liqligi; qiziqishlariga mos kelishiga e‘tibor berish;
- matn mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi, uning yoshiga mos bo‘lishi;
- ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni tanlash;
- tanlanadigan matn til jihatidan tushunarli bo‘lsin yoki o‘quvchida tushunish bilan bog‘liq ko‘plab qiyinchiliklar tug‘dirmasligi;
- asar tilining hozirgi adabiy til me‘yorlariga yaqin bo‘lishiga e‘tibor berish;
- tanlangan matn badiiy jihatdan yuksak bo‘lmog‘i, o‘quvchiga estetik ta‘sir ko‘rsata oladigan, uning badiiy didini tarbiyalashga, ma‘naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan bo‘lishi;

---

<sup>13</sup> Umumiy O‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, “Sharq”, 1999, 1-maxsus son, 6-bet.

- mavzu va janrlari xilma-xil, uslubi rang-barang matnlarni tanlashga e'tibor berish;
- hajm jihatidan juda katta bo'lmagan asarlarni mo'ljallash.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Ta'lim bosqichlaridagi dasturlar orasidagi uzviylik va uzluksizlikka e'tibor berdingizmi. Uzviylik ta'minlangan o'rinlarni misollar asosida ko'rsating.*
2. *Dasturda nazariy ma'lumotlarning sinflararo uzviyligiga e'tibor bering. Fikringizni misollar asosida izohlang.*
3. *Umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturidagi kirish so'zi (uqtirish xati) bilan tanishib chiqing. Undagi eng asosiy masalalar sifatida sinflararo uzviyligiga e'tibor berilganini izohlab bering.*
4. *Dasturning tarkibiy qismlarini haqida ma'lumot bering.*
5. *Dastur va darslikning mutanosibligini kuzating. Buning uchun mavzular va ularga ajaratilgan soatlar, darslik materiallarini tahlil qiling.*
6. *Dasturlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinganmi? Bu nimalarda namoyon bo'ladi? O'z tushunchangizni o'rtoqlashing.*
7. *Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining ona tili dastur bilan tanishib uning akademik Litsey va kasb-hunar kollejlarining sinflardagi ona tili darslari bilan uzviyligiga va uzluksizligi haqida ixcham taqriz tayyorlang.*

|                                                                                                                     |                                                                                                                |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>3-mavzu</b>                                                                                                      | <b>Sodda gap sintaksisini o'rgatish, qo'shma gap sintaksisini o'rgatish</b>                                    |
| <b>Ta'lim berish texnologiyasi</b>                                                                                  |                                                                                                                |
| <b>Mashg'ulot vaqti<br/>80 daqiqa</b>                                                                               | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b>                                                                              |
| <b>Mashg'ulot shakli</b>                                                                                            | <b>Laboratoriya mashg'uloti</b>                                                                                |
| <b>Mavzu rejasi</b>                                                                                                 | 1. Sodda gap sintaksisini o'rgatish usullari.<br>2. Qo'shma gap sintaksisini o'rgatish usullari.<br>3. Xulosa. |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> qo'shma gap sintaksisini o'rgatish usullari bo'yicha umumiy tushuncha berish. |                                                                                                                |

|                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Pedagogik vazifalar:</b>                                                                                                                                                                    | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b>                                                                                                                                                                                                         |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>sodda gap sintaksisini o'rgatish usullarini tushuntirish.</li> <li>qo'shma gap sintaksisini o'rgatish usullari to'g'risida tushuncha berish;</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>sodda gap sintaksisini o'rgatish usullari haqida tasavvur hosil qilish.</li> <li>qo'shma gap sintaksisini o'rgatish usullarini amalda qo'llashga oid ko'nikma va malakalar hosil qilish;</li> </ul> |
| <b>Ta'lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                  | Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Ta'lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                 | Ommaviy, jamoaviy, yakka                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Ta'lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                | O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Ta'lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                  | O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                            |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                  | Og'zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                               |

### 1.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti              | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                        |
|---------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                       | Ta'lim beruvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Ta'lim oluvchilar                                                                                      |
| <b>Tayyorgarlik bosqichi</b>          | 1. Dars mavzusi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.<br>2. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzish. (1-ilova)                                                                                                                                                                                                                                                                           | Tanishadi                                                                                              |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)         | 1.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savollar beradi. (2-ilova)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Savollarga javob beradilar.                                                                            |
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>  | 2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.<br>2.2. Sodda gap sintaksisini o'rgatish usullarini tushuntiradi. (3-ilova)<br>2.3. Qo'shma gap sintaksisini o'rgatish usullari to'g'risida tushuncha beradi. (4-ilova)<br>2.6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sodda gaplarni o'qitish mazmunini tushuntirib beradi. | Tinglaydilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar.<br><br>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | 3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>3.2. Mashq va topshiriqlar ustida ishlash (5-ilova)<br>3.2 Mustaqil ishlash uchun «Sodda gap sintaksisini o'rgatish, qo'shma gap sintaksisini o'rgatish» mavzusini taqdim etadi. Klaster                                                                                                                        | Savollar beradilar<br><br>Vazifani yozib oladilar.                                                     |

## Sodda gap sintaksisini o'rganish

Fonetika, leksika, morfologiya, so'z yasalishini o'rganish tilni o'rganishda qanchalik muhim bo'lsa, grammatikani o'rganish ham shunchalik muhimdir. Zero, grammatika tilning qurilishini ko'rsatadigan asosiy unsurdir. U so'zlarning so'z birikmasi va gap tarkibida o'zaro bog'lanishlarini izohlaydi, ya'ni tilning obyektiv amal qiladigan qonuniyatlarini mujassamlashtiradi.

Grammatikani o'rganishdagi qiyinchiliklar

### 1. Grammatik tushunchalarning abstraktligi.

Ma'lumki, bolalarda aniq kankret tafakkur mavjud bo'lib, ular so'z va predmetni yaxlit holda tasavvur etishadi. Albatta, bu bosqichda ham umumlashtirish bo'ladi masalan: Olma deganda bola faqat qizil yoki ko'k olmani emas, balki shu mevaga mansub bo'lgan barcha turdagi olmalarni ham nazarda tutadi. Grammatik ma'no esa yanada abstraktroqdir, masalan: ko'plik, son, kelishik kategoriyalari barcha otlarni qamrab oladi. Xuddi shuningdek zamon, shaxs, mayil, nisbat kategoriyalari barcha fe'llarni qamrab oladi.

Odatda, so'zda predmetlilik nisbatan ochiqroq ko'rinib turadi. Grammatik kategoriyalarda esa bunday bog'lanish juda xiralashgan bo'ladi.

### 2. Grammatik shakllarning ko'p ma'noliligi.

Masalan: fe'ldagi o'zlik va majhullik nisbati bir xil ko'rinishga ega. Grammatik tushunchalarning amaliyotga tatbiqi bilan bog'liq kamchiliklar ancha ko'p uchraydi. Xususan, ega bilan kesimning shaxs va sondagi moslashuvi, boshqaruvli va moslashuvli so'z birikmalarining gap tarkibida qo'llanishida shunday xatolar uchraydi (besh nafar bolalar, oltita kitoblar).

Grammatikani mazmunini o'rganish

Grammatika aslida boshlang'ich sinflardan boshlab o'rganiladi. Faqat, u chog'da atamalar hamda grammatik kategoriya va shakllarning nazariy anglanishiga urg'u berilmaydi. Shunga qaramasdan til ta'limi sintaktik asosda olib boriladi. Bunda asosiy urg'u grammatik shakllarga qaratiladi. Grammatik ma'no esa ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Bu



boradagi asosiy kamchiliklardan biri ta'lim mazmunining til materiallari bilan chegaralanib o'quvchilar tomonidan bu materiallarning o'zlashtirilishi ikkinchi darajada qolib ketishi bilan belgilanadi. Biz bolalarga grammatik bilimlarni beramiz, ammo bu bilimlarni o'zlashtirishga oid aqliy faoliyat usullarini o'rgatmaymiz. Garchi o'quvchidan faol fikr yuritishni talab qilsak ham ayni shunday fikrlashga o'rgatmaymiz. Til faktlarini tahlil qilishni, grammatik hodisalarning asosiy xususiyatlarini bilib olish usullarini tartibga solmaymiz, ya'ni o'quvchini o'ziga kerak bo'ladigan fikrlash usullari bilan qurollantirmaymiz. Nega shunaqa? Sen nima uchun shunday deyapsan? tarzidagi savollar bilan bir qatorda sen qanday qilib shu xulosaga kelding? Buni qanday qilib bilib olding? singari savollarni ham berish o'rinli bo'ladi.

### Grammatikani o'rganish prinsiplari

Grammatikani o'rganishda rivojlantiruvch ta'limning zamonaviy talablari quyidagi prinsiplarni talab qiladi:

- Grammatikaning nutq o'stirish bilan aloqasi, grammatik nazariyaning nutq amaliyoti bilan yaxlitligi;
- Grammatikaning leksika, fonetika, so'z yasalishi, so'z turkumlari shigari tilning turli qirralari bilan bog'lagan holda o'rganish;
- Sintaksisni o'rganishda morfologiya bilan zich aloqadorlikni nazarda tutish ya'ni morfologiyani sintaksis asosida o'rganish.

### Grammatikaning nutq o'stirish bilan aloqasi

O'quvchilar nutqini shakllantirishda grammatikaning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Shuning uchun biz o'quvchilarga muloqot jarayonida so'z qo'llash qoidalariga va ohangga alohida e'tibor berishlari kerakligini o'g'atishimiz lozim. Chunki muloqot jarayonida nutqdagi ohangni noto'g'ri ifodalash tufayli tinglovchiga yetkazilayotgan ma'lumotning mazmuni mutlaqo o'zgarib ketishi mumkun. Buning uchun esa o'quvchi so'zning o'z va ko'chma ma'nosini to'g'ri izohlab berishi, tinish belgilarining vazifasini, gap qurilishlarini aniq va tushunarli qilib misollar bilan izohlab berishi lozim. O'quvchining so'z zaxirasi qanchalik ko'p bo'lsa, nutqi shunchalik ravon bo'ladi. Shunda o'quvchi

ravon so‘zlash, fikrini to‘g‘ri ifodalay olishi, grammatik qoidalarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay bilish, aniq xulosa chiqara olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladi. Masalan: Mashinadan ikki bolali ayol tushdi. Mashinadan ikki bolali ayol tushdi. Avtobusdan semiz, sumkali kishi tushdi. Avtobusdan semiz sumkali kishi tushdi.

### **Qo‘shma gap sintaksisini o‘rgatish**

Sintaksisning o‘rganish obyekti so‘z birikmasi va gapdir.

#### ***Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar:***

Amaliy mashg‘ulotlarni samarali va yuqori saviyada o‘tkazish uchun talabalarning guruhlarda va o‘zaro hamkorlikdagi o‘qitish usullaridan keng foydalanish muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularga erishish omillari hamda oldingi yillar bilan taqqoslash holatlarini guruhlarga ajragan holda, taqdimot ko‘rinishida bayon etish muhimdir. Bunda Insert, grafik organayzerlar texnikasi,

«T-sxema», kategoriyalar jadvali, «B/BH/BO» jadvalidan foydalanish tavsiya etiladi.

Muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topishga qaratilgan holatlarda «Baliq skleti», «Harakatlarni yo‘naltirish», «Nima uchun?» kabi usullardan foydalanish samarali hisoblanadi. Mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish maqsadida videoma‘ruza, multimediya vositalari, videoprojektor, flip-chat va boshqa texnik vositalarning qo‘llanilishi jarayonlarini oldindan texnologik xaritalarda rejalashtirib qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

«Iqtisodiyot» nashriyoti tomonidan 2009-yilda chop etilgan «Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari» (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N., o‘zbek va rus tillarida) ilmiy-ommabop qo‘llanma, «O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizasiyalash yo‘lida» (Bekmurodov A.SH., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G‘afurov U.V. va Ne‘matov I.U., o‘zbek tilida) ekspress-prospektidan, «2009-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida» ekspress-

testlaridan, jumladan, ularning elektron-vizual versiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**1- topshiriq.** — qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring. Jahongir keldi va muzokara boshlandi. — Jahongir kelgandan keyin muzokara boshlandi.

Gapning uyushiq bo‘laklari va qo‘shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchi deb ataladi.

Talabalarda hosil bo‘lgan zaruriy ko‘nikma va malakalar:

- gapning kesimi – markazini topish;
- kesimning gap qurilishidagi ahamiyati haqida xulosa chiqarish;
- ixcham (faqat kesimdan iborat) gaplarning egasini tiklash;
- sodda yig‘iq gaplar (men keldim)ni sodda yoyiq gap (men bugun uyga keldim)larga aylantirish;
- kesimdan so‘roq berib gapni kengaytirish;
- sodda yoyiq gaplardan iborat kichik matn hosil qila olish v.h.

Gap turlarini o‘rganishda berilgan ixcham gaplardan sodda yig‘iq gap, sodda yoyiq gap, boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, ularni teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida qo‘shma gaplarga aylantirish, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish, qo‘shma gapli matnni sodda gapli matnga aylantirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Kesimning qaysi so‘z turkumiga mansubligi, uning tarkibidagi zamon, tasdiq-inkor, shaxs-son ma’nolarini ifodalovchi vositalar mavjudligini aniqlash, kesim haqidagi bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi va shakllantiradi.

DTS talablari bo‘yicha o‘quvchi qo‘shma gap, qo‘shma gap turlari, qo‘shma gap tuzilishi, qo‘shma qismlarini bog‘lovchi vositalar va tinish belgilarining qo‘llanilishi holatlarini bilishi talab etiladi. 5-sinfda «Qo‘shma gap» mavzusi yuzasidan o‘quvchilar dastlabki ma’lumotga ega bo‘lsalar, 9-sinfda bu mavzu bo‘yicha chuqur, mukammal batafsil ma’lumot beriladi. Oldingi sinflarda o‘quvchilar ma’lumotga ega bo‘lganligi uchun sodda va qo‘shma gaplarni ozmi-ko‘pmi farqlay oladilar. Shuning uchun o‘tilgan materiallarni takrorlash darslaridayoq

o‘quvchilarning qo‘shma gap haqidagi ma’lumotlarni ham aniqlab olish zarur bo‘ladi. Bunda «Aqliy hujum», «Klaster», «Geyzer», «Venn» diagrammasi usullaridan foydalanish mumkin.

**2-topshiriq.** Bunda ikki sodda gapni - va, shuning uchun, shu sababli, chunki bog‘lovchilari bilan birga bitta gapda birlashtirib qo‘llab ko‘ring.

1. Tong otdi. Atrof yorishdi.
2. Bahor keldi. Dalada ish qizg‘in.
3. Havо issiq. Biz yengil kiyindik.

**3-topshiriq.** Sodda gaplardan qo‘shma gaplar tuzing.

«Tong otdi va atrof yorishdi», «Bahor keldi, shuning uchun dalada ish qizg‘in», «Havo issiq, shu sababli yengil kiyindik.»

**4-topshiriq.** Sodda va qo‘shma gaplarni qiyoslang va gap oxiridagi ohangni kuzating. Qo‘shma gapga izoh bering.

**5-topshiriq.**

To‘liq matn yarating unda avval sodda gaplar, so‘ngra shu gaplardan bog‘lovchi vositalar ishtirokida qo‘shma gaplar hosil qiling.

Namuna.

Tong yorishdi. Cho‘pon bolaning «Hayda-a» degan ovozi yangradi. Nigora mashqlardagi topshiriqlarni tushunib bajardi. U «a‘lo» baho oldi. Nigora mashqdagi topshiriqlarni tushunib bajardi, shuning uchun u a‘lo» baho oldi.

**6-topshiriq.** Sodda gaplarning o‘qilishidagi ohangi bilan qo‘shma gaplar ohangini solishtiring. Ularni farqi aniqlang.

«Qattiq izg‘irin ko‘tarildi-da, hech kim uydan chiqmay qo‘ydi.» «Yurtimizning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo‘ladi.» «Bulbul gulzorni izlaydi, boyo‘g‘li esa xarobani ko‘zlaydi». «Ro‘paradagi g‘orning bag‘ridan qora tutun ko‘tarildi va yerdan yo‘tal tovushi eshitildi.»

**7-topshiriq.** Har bir qo‘shma gap tarkibidagi sodda gapning egasi va kesimi toping va ohangini izohlang. Ularning tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro qanday bog‘langanligini tushuntirib bering.

**8-topshiriq.** Endi sinonim bog‘lovchilar ustida ish olib boring. «Bolalar yig‘ildi va musobaqa boshlandi.» «Bolalar yig‘ildi hamda musobaqa boshlandi.» «Bolalar yig‘ildi-yu, musobaqa boshlandi.»

Bu gaplarni uchalasi ham qo‘shma gap. Birinchi va ikkinchi qo‘shma gaplarning sodda gaplari va, hamda bog‘lovchilari orqali, uchinchi gap - yu yuklamasi orqali bog‘langan .

Xulosa chiqaring. Bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashga xizmat qiladigan bog‘lovchilar har xil bo‘lib , ba‘zan –u, –yu,–da, yuklamalari, esa, bo‘lsa fe‘llari ham bog‘lovchi vazifasida qo‘llanishi mumkin.

1. Berilgan matndan bog‘langan qo‘shma gaplarni ajratib yozing.
2. Sintaktik tahlil.

Berilgan gapni ma‘lum tartibda tahlil qiling.

**9-topshiriq.** Bog‘langan qo‘shma gapni quyidagi usulda tahlil qildiring:

1. Mazmuni.
2. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va ularni bog‘lovchi vositalar
3. Tinish belgilari,
4. Sodda gapdan birining sintaktik tahlili.

Na‘muna: «Gullar sarg‘ayar, ammo sarg‘aymas go‘zal inson .»

Berilgan gap darak ma‘nosini bildiradi, ikki sodda gapdan tuzilgan, bog‘langan qo‘shma gap; gullar sarg‘ayar- gapi ikkinchi sodda gap (sarg‘aymas go‘zal) bilan «ammo» bog‘lovchisi yordamida bog‘langan; zidlik mazmuni ifodalangan; zid bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi. Gullar sarg‘ayar- ikki bosh bo‘lakli yig‘iq gap; egasi - gullar; bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan,nimalar? savoliga javob bo‘ladi. Sarg‘ayar – fe‘li – kesimi nima qilar? savoliga javob bo‘ladi; tuzilishi - sodda; ega bilan shaxsda moslashgan. Lekin sonda moslashmagan: ega ko‘plik, kesim birlik formada kelgan.

1.Berilgan sxemaga moslab gap topish

A) \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_

B) \_\_\_\_\_ ham \_\_\_\_\_

V) \_\_\_\_\_ lekin \_\_\_\_\_

G)\_\_\_\_\_yo\_\_\_\_\_

Goh\_\_\_\_\_goh\_\_\_\_\_

2.Nuqtalar o‘rniga mazmun talab etgan bog‘lovchini qo‘yib ko‘chirish.

Odam ham o‘simlmkga o‘xshab, oftobga intiladi, . . . uning oftobi odamdan ko‘radigan mehr – okibatidir.

1.Kor yog‘di va yerlar oppok buldi (ketma – ketlik).

2. Kor yog‘di , lekin sovuk bo‘lmadi (zidlik).

3. Dam kor yog‘adi , dam yomg‘ir yog‘adi (navbatma – navbatlik).

3. Berilgan gaplarning bog‘lovchisini ma‘nodagi bog‘lovchilar bilan almashtirish.

4. Qo‘shma gaplarni ishtirok ettirib matn yozish. og‘langan qo‘shma gaplarni o‘tishda mustahkamlash darsida arra usulidan foydalanaman.Bunda o‘kuvchilar 5 – ta guruhga bo‘linishadi. Har bir guruhga 2 – tadan misol yozish topshiriladi. Ularning bittasi teng bog‘lovchi , ikkinchisi bog‘lovchi vazifasidagi yuklama yordamida tuzilgan bo‘lishi lozimligi uktiriladi . Bu topshiriqqa

1)..... va .....

2).....yu..... koliplari chizildi.

Har bir guruh o‘zlari tuzgan qo‘shma gapni aytib tushuntirib beradilar.Keyingi topshiriqda har guruhga tarkatma beriladi.Gaplar ichidan o‘zlariga ajratilganini , ya‘ni bog‘langan qo‘shma gapning bir turini ajratib yozadilar.

Keyingi topshiriqda guruhlarga zigzag usulida «O‘zbekistonda» mavzusida bog‘lanishli matn tuzish topshiriladi . Ushbu topshiriqda matn yaratishda bog‘langan qo‘shma gaplarni katnashtirishlari shart . Yana bir usulda guruhlar boshka guruhga savol beradi va o‘z navbatida o‘zi ham boshka guruhning savoliga javob beradi.

Ergash gapli qo‘shma gapni izohlashning eng kulay usuli uni bog‘langan qo‘shma gap bilan kiyoslashdir .

Hamma yig‘ildi va musobaqa boshlandi.

Hamma yig‘ilgach , musobaqa boshlandi .

Birinchi qo‘shma gap tarkibida sodda gaplar topilib, ularni teng hukukli ekanligi , teng bog‘lovchi orqali bog‘langanligi aniqlanadi.

Ikkinchi qo'shma gap takibidagi birinchi sodda gapga ergashib unda ifoda qilingan ish – harakatning bajarilish paytini ko'rsatib kelayotir. Shunga kura, ularning biri bosh gap, ikkinchisi ergash gap sanaladi. Bosh gapning mazmuniga karab ergash gapga so'rok berish mumkin. Musobaqa qachon boshlandi? Bu sorokka ergash gap javob bo'ladi. O'qituvchi o'kuvchilarning fikrini umumlashtirib mavzuni yakunlaydi. Shunday kilib, ergash gapli qo'shma gaplardan tuziladi. Bosh gapni yoki uning bir bo'lagini izohlab kelgan gap esa bosh gap bo'ladi.

Ergash gap ba'zan bosh gapdagi birgina bo'lakka tobe bo'lishi mumkinligi bu bo'lakning, odatda ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanishi ham izohlanishi kerak, chunki o'kuvchilar ayrim ergash gaplar uchun xos bo'lgan o'rinni yaxshi tushunib o'kuvchilar ayrim ergash gaplar uchun xos bulgan o'rni yaxshi tushunib olmasalar ergash gaplarni turini aniqlashda ham, ergash gapning xarakterli belgisi ergashtiruvchi bog'lovchi orqali, bosh gapga bog'lanishidir. O'qituvchi, geyzer, klaster, kichik guruhlarda ishlash, galereya kabi usullar yordamida ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida keladigan yuklamalar ( – mi, – da, – chi ) ko'makchilar uchun, sari, bilan, kabi ), turli fe'l formalari ( – ib, –gach, –guncha, –ar (–r)), –mas, –sa, –sin), kelishik ko'shimchalari va nisbiy olmoshlar haqida to'xtalib, ko'prok misol berishi lozim. Ana shu bog'lovchilar ko'p vakt ergash gapning o'rnini belgilashga ham yordam beradi. Maktabda ergash gapli qo'shma gaplarni o'rgatish o'kuvchilarning tinish belgilariga oid malakalarini oshirish bilan birga, ularni nutk madaniyatini o'stirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun ergash gapli qo'shma gaplarni tahlil qilish lozim va u quyidagicha o'tkaziladi:

#### **10- Topshiriq.**

1. Ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar toping.
2. Bosh va ergash gaplar aniqlang.
3. Ergash gapning savoli, uni bosh gapga yoki bosh gapdagi kaysi bo'lakka bog'langanligi aniqlang.
4. Ergash gapning bosh gapga bog'lanish yuli ( vositasi).
5. Tinish belgilarni izohlang.

Maktabda ergash gapni turlarini o'rgatishdan maksad o'kuvchilarning bog'lanishli nutkini o'stirishdir. Bunday nutk ko'nikmasi, odatda, grammatikadan o'tilgan nazariy ma'lumotlarni muntazam ravishda amalda ko'llash, mashq kilib ko'rish orqali hosil kilinadi. O'qituvchi ergash gap yuzasidan olib borilgan mashg'ulotlarda ularning nutkdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berishi zarur. Ergash gapning turlarini takrorlashda bog'li tekstlardan ham foydalanish lozim. Dastlab, o'kuvchilar tayyor tekstlardan ergash gaplarni topib, turlarini aniqlang va ularni ishtirok ettirib, boshka qo'shma gap tuzing.

Boglovchisiz qo'shma gapning sodda gaplari o'zaro bog'lovchilarsiz, intonasiya yordamidagina birikadi. Bunday gaplar ixcham ifoda vositasi va ta'sirli nutk formasi hisoblanadi. Ulardan har xil tinish belgilari qo'llanadi. Bu ohang bilan alokador bo'ladi: Suv keldi, nur keldi ( sanash ); Suv keldi: nur keldi (sabab); Suv keldi (payt yoki o'xshatish).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ishlatiladigan tinish belgilarini intonasiyaga bog'lab o'rgatish o'kuvchilarning adabiy o'qishga bo'lgan havaslarini kuchaytiradi, bu sohada ular ma'lum darajada ko'nikma hosil qiladilar . Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatdan qo'shma gap yoki ergashgan qo'shma gapga teng kelishi mumkin.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga o'xshash tomonlarini o'kuvchilarga tushuntirish uchun bog'lovchilarni ishtirok ettirib gap tuzish va ularni bog'lovchisiz qo'shma gaplarga yoki ergash gapli qo'shma gapga aylantirish mashqlari o'tkaziladi. Berilgan gaplarning mazmuni , intonasiyasini, tinish belgilarini kuzatadilar va bog'lovchili qo'shma gaplarning bog'lovchisiz qo'shma gapdan farqini bilib oladilar . Bunda o'kuvchining chuqur va puxta bilim olishi esa o'qituvchidan katta kuch, mehnat, ijodkorlik talab etadi.

Yukorida keltirib o'tilgan yangi ped.texnologiyada interfaol usullardan tashkari o'kuvchilar bilan kodoskopda va kompyuterda ishlash ham yaxshi samara beradi

## **11- Topshiriq. Matnni o'qing**

### **Qo'shma gaplarni o'rganish**



Qo'shma gap sintaksisini o'rganish talabalarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Darsliklarimizda qo'shma gaplar talqni anchayin murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi.

Ona tili o'qitish metodikasida qo'shma gaplarni o'rganish yuzasidan an'anaviy darslikdagi mashqlar, savol va topshiriqlar 1950 yillarda shakllantirilgan va hozirgi kunga qadar amalda qo'llanilayotgan dastur va darsliklar talablari doirasida qolib ketgan edi.

**Topshiriq.** Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlariga tayangan holda qo'shma gaplarni:

1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
2. Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi yangi tasniflarga asoslanib o'rganib chiqing.

«Kesim-gap markazi» degan talqni o'quvchilar ongiga singdirmay turib, qo'shma gaplar tasnifini puxta o'rganib bo'lmaydi.

Bunda kesimdan so'roq berish orqali gapni kengaytirish usullari, (faqat kesimdan iborat gaplar «Ixcham gap» sanalishi;) sodda yoyiq gaplardan uyushiq bo'lakli gaplar hosil qilish; sodda gap juftlaridan teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida qo'shma gaplar qurish; ulardan foydalanib, turli mavzularda kichik matnlar yaratish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan unumli foydalanish orqali o'quvchi ongiga qo'shma gaplar tuzish yuzasidan, zaruriy ko'nikma va malakalarni singdirish lozim. Quyida kesimdan savol berib gaplarni kengaytirish

usuli bilan ishlashga yo'naltiruvchi mustaqil ishlardan namunalar beramiz:

Namuna: **O'qidi.** (Kim o'qidi?) Oybek o'qidi. Oybek kutubxonadan olgan kitobni qiziqib o'qidi(qaysi kitobni o'qidi?). U hikoya o'qishni yaxshi ko'radi (nimani yaxshi ko'radi?). Oybek kitobni qiziqib o'qidi, chunki u hikoyalar o'qishni yaxshi ko'radi (Nima uchun kitobni qiziqib o'qidi?).

## **12-Topshiriq. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar matni bilan tanishing.**

Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar — qo'shma gapning bog'lovchisiz yoki grammatik vositalarsiz tarkib topishidir.

Masalan: Qorlar eridi, havo yurishib ketdi. Yaxshi o'g'il yedirar, yomon o'g'il pand berar (maqol). Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat (maqol).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'z tarkibidagi sodda gaplarning mazmun munosabatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Qizlar olma terishdi, yigitlar olma joylangan yashiklarni mashinaga joyladilar. Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi. Bunday ko'rinishli sodda gaplar mazmunidan harakat, voqea-hodisaning bir paytda yoki ketma-ket yuz berishi anglashiladi.

2. Davlat tugar, bilim tugamas (maqol). Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla (maqol). Maqolda to'plangan molu dunyo sarf qilinganda tugab qolishi, egallangan bilimlar esa tugamasligi, umrning oxirigacha o'z sohibiga xizmat qilishi; oz so'zlab, ko'proq ishlash dono kishiga xos fazilat ekani ta'kidlanadi.

Hozirgi ona tili ta'limi yoshlarning nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh omil deb hisoblar ekan, qo'shma gap sinonimiyasi ustida doimiy ravishda amaliy-ijodiy ishlash talab etiladi:

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini o'rganish, bunday gaplarni og'zaki va yozma nutqda o'rinli qo'llash malakalarini mustahkamlaydi.

1. Voqea-hodisalarning bir paytda, ketma-ket yuz berishini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari zidlanish yoki qiyoslash mazmunida ifodalansa, ular orasiga tire (—) qo'yiladi:

Masalan: Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ (maqol). Yaxshidan ot qoladi, yomondan isnod (maqol). 2. *Qo‘shning tinch — sen tinch* gapi shart ma‘nosini anglatrsa, ...*barcha savollarga javob berdim, o‘qituvchi yuqori bal qo‘ydi* gapi — natija mazmunini bildirib keladi. *Barchamiz ter to‘kib ishlagan edik, hosil mo‘l bo‘ldi*, gapi esa nima uchun hosil mo‘l bo‘lganligi sababini tushuntirib, ta‘kidlab kelgan.

O‘quvchilar mazkur gaplar ustida ishlash jarayonida qo‘shma gaplarning ikkinchi qismi shart, sabab, natija, to‘siqsizlik mazmunini anglatishi mumkinligini bilib oladilar: *Onaning yuragi shuv etib ketdi: eshik taqillayotgan edi*. Ikkinchi gap birinchi gapdagi biror bo‘lak ma‘nosini izohlasa ham birinchi gapdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *To‘g‘risi shu: Bog‘dagi mevalarni tezroq yig‘ib olish kerak*.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari qiyoslanish, zidlanish ma‘nolarini bildirganda, bog‘langan qo‘shma gap shart, sabab, natija bildirganda, ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lib keladi: *Qo‘shning tinch bo‘lsa, sen tinch bo‘lasan. To‘g‘risi shuki, bog‘dagi mevalarni tezroq yig‘ib olish kerak*.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar sinonimiyasi va uslubiyati ustida ijodiy-amaliy topshiriqlar bajarish jarayonida ikki nuqta yoki tirening ishlatilish sabablarini aniqlash; ohang bilan bog‘langan gaplardan foydalanib, ijodiy matnlar yaratish, mavzu yuzasidan egallangan BKMLarni mustahkamlash, ularni amaliyotda qo‘llab ko‘rish yaxshi natija beradi.

### **13-topshiriq. Yuklama vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar**

Ushbu mavzuni o‘rganishda, «Yuklama» mavzusi yuzasidan egallangan BKMLar qisqa takrorlanadi. Buning uchun:

1. Biz Vatanimizni sevamiz. Uning tarixini yaxshi bilmog‘imiz lozim.
2. Qo‘ng‘iroq chalindi. Mashg‘ulotlar boshlandi.
3. Soy yoqalab biroz yurdik. Yo‘l o‘ngga burildi, gap juftlari beriladi.

Mustaqil ish sifatida berilgan sodda gaplardan **–mi, –da, –u(–yu), –ku** kabi yuklamalar vositasida qo‘shma gaplar tuzish vazifasi topshiriladi: 1. Biz Vatanimizni sevamiz**–mi**, uning tarixini ham

bilmog'imiz kerak. 2. Qo'ng'iroq chalindi-yu mashg'ulotlar boshlandi. 3.Soy yoqalab biroz yurdik-**da**, yo'l bo'ylab o'ngga burildik.

O'quvchilar berilgan matnlardan faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni ajratish, shu gaplarni yuklamalar vositasida bog'lab ko'rish, ma'noda yuz bergan o'zgarishlarni sharhlash kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajarish orqali qo'shma gap haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishiga erishadilar.

Mazkur mavzuni o'rganishda ham asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ikki sodda gapni bir necha yuklama vositasida bog'lab, qo'shma gap hosil qilish, vergulni o'rinli qo'llash, yuklamalarni imlo qoidalariga muvofiq yozish, o'qilish ohangiga e'tibor berish talab qilinadi.

#### **14- topshiriq. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap**

Mavzuni o'rganishda o'quvchilarga badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, izohlash, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar yordamida matn tuzish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish havola qilinadi: Namuna.

##### **Qissadan hissa.**

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir.

Birinchisi – ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilmu odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan bo'ladilar.

Ikkinchisi – baxtiyor tabiatli, saodatmand kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar.

Uchinchisi – beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqqy bo'ladi, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi. Xursandchilikda birga bo'lgandek, qayg'u-kulfat chog'larida ham hamisha yoningda bo'ladi. Ularga doimo suyanish, orqa qilish mumkin.

(Abdulbarakot Qodiriy)

Ko‘m-ko‘k osmonni qora bulutlar qoplaydi, beozorgina tog‘ shamoli borgan sari zo‘rayadi, qurigan ravoch barglari bir-biriga uriladi. Talabalar baxshi kuylayotgan qadimiy afsonalarni zavq bilan tinglaydilar **hamda** unga Avesto tarixiga doir savollar beradilar. Shohida dugonasining gaplarini sabr-qanoat bilan eshitdi, **ammo** yupatuvchi bir so‘z demadi.

### **15- topshiriq. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma otlar**

Mavzuni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar e‘tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida qo‘shma gaplar tuzish so‘raladi:

1. Bahor keldi. Qushlar issiq o‘lkalardan qaytib kela boshladi.

2. Gulchehra chet tillarini o‘rganishni yaxshi ko‘radi. U rus va ingliz tillarida yaxshi gapiradi.

Namuna: *Bahor keldi, **shuning uchun** qushlar issiq o‘lkalardan qaytib kela boshladilar...*

Mavzuni o‘rganishda bog‘lovchi vositalarni ma‘nodoshi bilan almashtirish, ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplardagi ma‘noviy munosabatni aniqlash, ulardan o‘rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, sodda gaplarning mazmuni jihatidan birining boshqasiga ergashishidan tuziladi:

«Siz tilagingizga yetasiz, chunki orzuingiz yuksak, qalbingiz toza» gapida ikki sodda gap biri ikkinchisining mazmunini izohlaydi. Bu gapning mazmunini yanada tiniqlashtirish uchun uning sinonimini misol tariqasida keltirish mumkin: *Orzuingiz yuksak, qalbingiz toza bo‘lgani uchun ham siz tilagingizga yetasiz.*

Qo‘shma gaplarni o‘rganishda gap sinonimiyasi ustida ishlash uning mazmunini to‘liq tushunishga, nutqni ravon, rang-barang hamda jozibador qilishga yordam beradi. Badiiy matnlarni lisoniy tahlil qilish, undagi qo‘shma gaplarning qanday yo‘l bilan tuzilganini sharhlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishi bilan birga nutqiy mahoratning risoladagidek shakllanishiga yordam beradi.

### **16- topshiriq. Nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma**

## **gaplar**

Mavzusini o'rganishda ham o'qituvchi tomonidan tanlab berilgan yoki o'quvchilar tomonidan tuzilgan sodda yig'iq va sodda yoyiq gap juftlaridan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuziladi.

1. Mashinalar qatnovi yaxshilandi. Ko'chalar kengaytirildi.  
*Mashinalar qatnovi yaxshilansin deb, ko'chalar kengaytirildi.*

2. **Qaerda** intizom yaxshi bo'lsa, **u yerda** obodonchilik ham bo'ladi.

3. **Kim** ko'p mehnat qilsa, **u** hurmatga sazovor bo'ladi.

O'quvchilar gaplarni tahlil qilish orqali nisbiy so'zlar (**qaysi, shu, kim, o'sha, qayerda, shu yerda, deb** kabi) bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilishda muhim rol o'ynashini bilib oladilar. Bunda nisbiy so'zlar fikrni, mazmun va maqsadni aniq ifodalash imkonini berayotganini anglab yetadilar.

Nisbiy so'zli qo'shma gaplarni ma'nodoshi yoki zid ma'nosi bilan almashtirish, nisbiy so'zli maqol va hikmatli so'zlar ustida ishlash, ulardagi so'zlarning o'rnini va o'zini (ma'nodoshiga) almashtirib ko'rish, hosil qilingan gaplar, hikmatlar ishtirokida matn yaratish kabi ijodiy-amaliy ishlar bajariladi: Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi bebaho gavhardir. (Oybek)

Men shunday komil (fozil, donishmand, valene'mat, solih, fasih, oliynasab, shaxs) inson birla tanishmoq baxtiga musharraf bo'ldimki, ul zotning har bir kalomi olmosdek keskir, yoqutdek bebahodir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Dars berilgan topshiriqlarga e'tibor bering: u qanday qismlardan tashkil topgan?

2. Dars maqsadi bilan tanishing. Uni yanada aniqroq ifodalashga urinib ko'ring.

3. Mavzuga oid savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

4. Namunadan foydalanib, bitta mashg'ulot uchun ishlanma tayyorlang.

5. Ta'lim bosqichlarining qaysi dasturlarida qo'shma gap haqida ma'lumot berilgan, tushunchangiz qanday?

6. Umumta'lim ona tili dasturi haqida gapiring.

7. Dastur va darslikning o'zaro bog'liqligini tushuntiring.

|                |                                                                                   |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>4-mavzu</b> | <b>«Leksika haqida ma'lumot» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash</b> |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|

### **Ta'lim berish texnologiyasi**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mashg'ulot vaqti<br/>80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Mashg'ulot shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>Laboratoriya mashg'uloti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Mavzu rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Leksika haqida ma'lumot» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash.</li> <li>2. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish usullari.</li> <li>3. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini o'qitish usullari.</li> <li>4. Xulosa.</li> </ol> |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari «Leksika haqida ma'lumot» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash bo'yicha umumiy tushuncha berish, amalda dars ishlanmasini yaratish                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• «Leksika haqida ma'lumot» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasining tarkibi va mazmuni haqida.</li> <li>• Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish usullari haqida tushuncha berish;</li> <li>So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini o'qitish usullari haqida ma'lumot berish.</li> </ul> | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• «Leksika haqida ma'lumot», «Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlay olish, «So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari» mavzularini o'qitishga oid ilk ko'nikmalarga ega bo'ladi.</li> </ul>       |
| <b>Ta'lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Ta'lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Ommaviy, jamoaviy, yakka                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>Ta'lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar, maktab darsliklari                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Ta'lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Og'zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |

### **1.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| <b>Ish bosqichlari va vaqti</b> | <b>Faoliyat mazmuni</b>                  |                             |
|---------------------------------|------------------------------------------|-----------------------------|
|                                 | <b>Ta'lim beruvchi</b>                   | <b>Ta'lim oluvchilar</b>    |
| <b>1. Mavzuga kirish</b>        | 1.1. Mavzuga doir bilimlar takrorlanadi. | Savollarga javob beradilar. |

|                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                               |
|---------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>(15 daqiqa)</b>                    | 1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Tinglaydilar                                                                                                  |
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>  | 2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlar izohlanadi.<br>2.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi.<br>2.3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Leksika haqida ma'lumot» mavzusida bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlashni tushuntiradi. | Tinglaydilar, yozadilar.<br><br>Savollarga javob beradilar.<br><br>Bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlashadi. |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | 3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Leksika haqida ma'lumot» mavzusida dars ishlanmasini tuzish topshiriladi.                                                                                                                | Savollar beradilar<br><br>Vazifani yozib oladilar.                                                            |

### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** talabalarga leksika va imlo bo'yicha dars o'tish metodikasini o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** talabalarning leksika va grafikadan olgan bilimlari orqali bog'lanishli nutq egalari bo'lishga erishish.

**Rivojlantiruvchi:** talabalarning mazkur mavzu yuzasidan dars o'tish metodikasi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash.

**Dars shakli:** laboratoriya mashg'uloti.

**Dars metodi:** og'zaki, amaliy, ko'rgazmali.

**Foydalaniladigan jihozlar va materiallar ro'yxati:** DTS, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, jurnallar, imloga oid didaktik tarqatmalar, rasmlar.

### **Asosiy mazmuni (qisqacha nazariy ma'lumotlar)**

Dars o'tish yuzasidan talabalarga quyidagi metodik tavsiyalar beriladi.



O'zbek tili darslarida leksikologiya bo'limiga ajratilgan soat haqida ma'lumot berish. Umumiy o'rta ta'limning 5-sinfida 31 soat ajratilgan bo'lib, shundan 8 soati takrorlash va mustahkamlash, qolgan 23 soat dars leksikologiya bo'limini o'rganishga bag'ishlangan. Har bir tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar shu tilning lug'at tarkibi, ya'ni leksikasini tashkil qiladi. Demak, leksika tilning so'z boyligi, lug'at tarkibi haqidagi ta'limotdir.

Leksikologiyaning tarkibiy qismlaridan biri etimologiya bo'lib, yunoncha etimon (haqiqat) va logos elementlaridan tuzilgan. Etimologiya so'zlarning, ayniqsa, yasama so'zlar va olinma so'zlarning qaysi qismlardan hosil bo'lganligini izohlaydi. Ana shu xususiyatiga ko'ra etimologiya so'zning tovush tomonini ham, ma'no tomonini ham hisobga oladi va uni tarixiy jihatdan tahlil qiladi.

Leksikologiyaning yana bir bo'limi leksikografiya bo'lib, yunoncha lexis (so'z) va grapō (yozaman) so'zlaridan hosil bo'lgan. Leksikografiyada so'zlarni to'plash, ularni ma'lum tartib asosida (ko'pincha alfavit tartibida) joylashtirib, turli lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi.

Iboralar haqidagi ta'limot frazeologiya bo'lib, u frazeologik birliklarni o'rganadi.

Leksikologiya hamda frazeologiya tilning lug'at boyligini o'rganuvchi nazariy qismlar, leksikografiya esa ularning amaliy qismi hisoblanadi.

**Ishni bajarish tartibi:** Talabalar bu bo'limning har bir mavzusi va undagi mashq hamda topshiriqlar bilan tanishib borishlari shart. Talabalar darslik bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradilar. Shu asosda dars ishlanmasini tayyorlaydilar, ko'rgazmali qurol va turli didaktik materiallardan foydalanadilar.

**Topshiriqlar:** Talabalarga mustaqil ravishda leksikologiya bo'limi yuzasidan so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi so'zlar tarixiy so'zlar, yangi va eskirgan so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, atamalar, olinma so'zlar,

ibora va tasviriy ifodalardan biriga mustaqil ravishda bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash topshiriladi.

*leksikologiyaning boshqa til bo‘limlarini o‘rganishda asosiy, rivojlantiruvchi vazifani bajarishini ta’kidlash;*

*— leksikologiya til o‘qitish metodikasining tarkibiy qismi ekanligini amaliyotda isbotlash;*

*— shu bilimlarga oid ko‘nikma va malakalarni ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan holda mustahkamlash hamda amaliyotga joriy etish yaxshi samara beradi.*

**Nazorat (hisobot, taqdimot) shakli:** talabalar mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini amalda sinab ko‘radilar. Ular o‘tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog‘liqliqni ta’minlay olishlari savol-javob orqali amalda sinab ko‘riladi.

«Leksikologiya»ni o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini farqlash, ko‘p ma’noli, ma’nodosh, uyadosh, shakldosh zid ma’noli, paronim so‘zlar ustida ishlash — o‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyitishga, nutqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o‘z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Namuna:

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni o‘qing. **Bosh** so‘zi qaysi ma’noda ekanligini aniqlang va sharhlang.

1.1. Bolaning **boshi** og‘ridi.

1.2. Botirning **boshi** yaxshi ishlaydi.

1.3. Urushda qancha bahodirlarning **boshi** ketdi.

1.4. Fermernga **o‘n bosh** qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Qaysi gap o‘z ma’nosida, qaysisi ko‘chma ma’noda ishlatilganini ayting.

Navoiy **asarlarini** o‘qiyman – **Navoiyni** o‘qiyman.

Abdulla Oripov **she’rlaridan** yod oldim – **Abdulla Oripovdan** yod oldim.

Samovardagi suv qaynadi – Samovarda o‘tirdik, choyxo‘rlik qildik.

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, talabalarda diqqat, xotira, tafakkur kabi

intellektual qobiliyatlarni o‘stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga o‘rgatadi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Dars ishlanmasiga e’tibor bering: u qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Dars maqsadi bilan tanishing. Uni yanada aniqroq ifodalashga urinib ko‘ring.
3. Mavzuga oid savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.
4. Vaqt taqsimotini alternativ tarzda bo‘lishga harakat qiling.
5. Namunadan foydalanib, bitta mashg‘ulot uchun ishlanma tayyorlang.
6. Mavzuga mos test bankini yarating.
7. Umumta’lim maktabi va kasb-hunar kollejlari ona tili dasturidagi uzviylik haqida gapiring.
8. Dastur va darslikning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.

|                |                                                                                                                                                                                                          |
|----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>5-mavzu</b> | <b>Fonetika, orfografiya, grafika bo‘limlari yuzasidan, munozara uyushtirish. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollej darsliklaridagi til bo‘limi yuzasidan bahs-munozara</b> |
|----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

### **Ta‘lim berish texnologiyasi**

|                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                   | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Mashg‘ulot shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                            | <b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Mavzu rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                 | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fonetika, orfografiya, grafika bo‘limi yuzasidan, munozara uyushtirish.</li> <li>2. Umumiy o‘rta ta‘lim maktab darsliklaridagi til bo‘limi yuzasidan bahs-munozara</li> <li>3. Akademik litsey darsliklaridagi til bo‘limi yuzasidan bahs-munozara</li> <li>4. Kasb-hunar kollejlarda ona tili o‘qitish kursining tarkibi va mazmuni.</li> <li>4. Xulosa.</li> </ol> |
| <b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Fonetika, orfografiya, grafika bo‘limi yuzasidan, munozara uyushtirish. umumiy o‘rta ta‘lim maktab darsliklaridagi til bo‘limi yuzasidan bahs-munozara bilan yaqindan tanishtirish.                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy o‘rta ta‘lim maktab darsliklaridagi mazkur til bo‘limlari to‘g‘risida tushuncha berish;</li> <li>• Akademik litsey darsliklaridagi mazkur til bo‘limlari bilan tanishtirish.</li> </ul> | <b>O‘quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuga oid tegishli tushunchaga ega bo‘lishadi.</li> <li>• Mavzuga bog‘liq holda bahs-munozara tashkil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.</li> </ul>                                                                                                                                                                              |
| <b>Ta‘lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                       | Ko‘rgazmali ma‘ruza, suhbat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Ta‘lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                                                                                      | Ommaviy, jamoaviy, yakka                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Ta‘lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                     | O‘quv qo‘llanma, proyektor, tarqatmalar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Ta‘lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                                                                                       | O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                       | Og‘zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

### **1.2. Laboratoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| <b>Ish bosqichlari va vaqti</b>      | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                                                                        |                          |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
|                                      | <b>Ta‘lim beruvchi</b>                                                                                                         | <b>Ta‘lim oluvchilar</b> |
| <b>1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)</b> | <ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. Dars ishlanmasi taqtimoti (1-ilova)</li> <li>1.2. Talabalar bilimlarini</li> </ol> | Tinglaydilar             |

|                                       | faollashtirish maqsadida savollar beradi.                                                                                                                                                                                                                                                                           | Savollarga javob beradilar.                                                                                           |
|---------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>  | <p>2.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktab darsliklaridagi tegishli bo‘limlar mazmuni bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Akademik litsey darsliklaridagi tegishli til bo‘limlari yuzasidan bahs-munozara uyushtiradi.</p> <p>2.3. Kasb-hunar kollejlari da ona tili o‘qitish kursining tarkibi va mazmunini tahlil qiladi.</p> | <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p> |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | <p>3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun «Fonetika, orfografiya, grafika bo‘limi yuzasidan, munozara uyushtirish» mavzusini taqdim etadi.</p>                                                                        | <p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>                                                             |

### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** talabalarga fonetika, imlo, grafika bo‘yicha dars o‘tish metodikasini o‘rgatish.

**Tarbiyaviy:** talabalarning fonetika, imlo va grafikadan olgan bilimlari orqali bog‘lanishli nutq egalari bo‘lishga erishish.

**Rivojlantiruvchi:** talabalarning mazkur mavzu yuzasidan dars o‘tish metodikasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash.

**Dars shakli:** laboratoriya mashg‘uloti.

**Dars metodi:** og‘zaki, amaliy, ko‘rgazmali, muammoli ta’lim

**Foydalaniladigan jihozlar va materiallar ro‘yxati:** DTS, dasturlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, jurnallar, imloga oid didaktik tarqatmalar, rasmlar.

### **Asosiy mazmuni (qisqacha nazariy ma’lumotlar):**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimidagi ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so‘z boyligini oshirish va matn yaratish ko‘nikmalarining shakllantirilishiga qaratilishi lozim.

O'quvchi har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirishi, so'zning ma'nosi, urg'usi, mohiyatiga qarab o'z nutqida qo'llashi, ravon va aniq so'zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan, fonetika bo'limini o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirishga qaratilgan mustaqil ishlardan namunalar keltiramiz:

**1-topshiriq.** ...il,...ul,...ol so'zlari oldiga bir undosh qo'shib, yangi so'zlar yasang.

**Bil,** dil, jil, zil, yil, nil, sil...

**Bul,** gul, kul, pul, tul, shul, qul...

**Bol,** lol, mol, tol, fol, pol, hol, qol xol.... kabi.

**2-topshiriq.** Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nodosh va uyadoshlarini toping va ular ma'nosining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini sharhlang.

Namuna: **bil** —o'rgan, izlan, top..; **bul**— shul, o'shal; **bol**— asal, **hol**— holat, ahvol, kayfiyat...v.h.

So'zlarning ma'nolarini sharhlash — o'quvchi nutqiy malakasining mustahkamlanishi va intensiv suratda rivojlanishiga olib keladi.

**3-topshiriq.** Talabalar o'zlari badiiy asarlardan topgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari hosil qiladilar, gap tuzadilar, matn yaratib, turli didaktik tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, jadvallar tayyorlaydilar. Ona tili mashg'ulotlarida bunday topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undasa, o'qituvchiga o'quv jarayoniga musobaqa ruhini kiritishda ko'makchi bo'ladi.

O'quvchilarda faollikni amalga oshirishda ular olgan nazariy va amaliy bilimni qo'llashda mustaqil ravishda badiiy matnlardan so'z va uning turli ma'nolarini izlab topish vazifa qilib beriladi. Bu orqali o'quvchilarda ona tili ta'limi tizimini takomillashtirish, ularning bilish faoliyatini, ijodiy mustaqilligini tarbiyalashda muxim vosita vazifasini bajaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik Litsey va kasb – hunar kollejlari fonetika va imloni yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Bu esa o'quvchilarda turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar,

lingofon, magnitofon, diktofona, radio va televidenie ko'rsatuvlari, o'quv-o'rgatuv texnikasining so'nggi yutuqlari: kompyuter, multimedia, kodoskop, videoko singlarlardan unumli va samarali foydalanish talabaniing ijodiy va nutqiy barkamolligini ta'minlash, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Ona tilidan zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalari takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan fonetika va imloga oid jadvallar, kompyuterda ishlashga yo'naltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan turli va rang-barang o'quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

*Fonetika (grekcha pohne — tovush) nutq tovushlari*, ularniing hosil bo'lishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvniing o'zaro munosabati, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi xususiyatlari haqidagi fan. Unda nutq tovushlari — so'zlarniing, qo'shimchalarniing eng kichik bo'lagi **t o v u s h va uning talaffuzi** o'rganiladi.

5-sinfda bu bo'lim takrorlash bilan boshlanadi. Bunda berilgan so'zlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarniing o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq a'zolari belgilanadi. Berilgan so'zlarga tovushdosh (tosh, tish, tush, to'sh kabi), shakldosh (**tosh** — suvda erimaydigan qattiq tog' jismi, ot; sakkiz chaqrimga teng masofa, ot: bir **tosh**dan ortiq yo'l bosdi kabi); fe'l — **tosh**moq, qrg'oqdan chiqb ketmoq; **tosh**bag'ir — ko'ngilchan, ko'ngli bo'sh kabi zid ma'noli so'zlar topib, ma'nolarini sharhlaydilar va izohlaydilar.

*Talabalar topshiriq asosida so'zdagi nuqtalar o'rniga i va u harflaridan birini qo'yib ko'chiradilar.* Hosil bo'lgan so'zlarniing ma'nolarini namunadagidek og'zaki sharhlashlari va so'z ma'nolarini farqni tushuntirishlari mumkin:

Namuna: urish — fe'l so'z turkumi, harakatni bildiradi. Musht urish, mushtlashish; urush — ot so'z turkumi, jang, uyushgan qurolli olishuv. M: Ikkinchi jahon urushi 1939-yilda boshlandi;

yumish — fe'l, ko'z yumish, ko'rmaslikka olish; ko'zi yumildi; 1. Uxladi (o'z ma'no). 2. Ko'chma ma'no: Ko'z yumdi — chin dunyoga

ketdi, o'ldi... v.h. M: Bu dunyodan ko'z yumdi. **Yumush** – ot so'z turkumi, ish, mehnat: Og'ir yumushni bajardi...

**Unlilar imlosi va talaffuzi ustida** ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar ma'nosini sharhlang. So'zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so'zlar hosil qiling. **Il, el, choy.**

**il**–in, is, it, ip, ish ...; **el**, ep, em, esh, et, en, er, es, ez...;

**choy** – soy , toy, boy, moy, joy, loy, voy ...;

2-topshiriq. **A** unlisi bilan boshlanuvchi bir bo'g'inli so'zlar qatori tuzing. Adl, avj, azm, aql, ark ... Ma'nolarini sharhlang.

3-topshiriq. **U** – o' tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: uz - o'z, uy - o'y, un - o'n, o'q - uq ... Ma'nolarini sharhlang.

**Ishni bajarish tartibi:** bajarilgan vazifalarni yozma shaklda topshirish.

**Topshiriqlar:** Mustaqil ravishda mavzuga oid dars ishlanmalar tayyorlash.

**Nazorat (hisobot, taqdimot) shakli:** bir soatlik dars ishlanmasi tayyorlash va uning taqdimoti.

Darsning yakunlovchi qismida talabalar o'zlashtirgan bilimlar umumlashtiriladi va xulosalanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Umumiy o'rta ta'lim maktab darsliklaridagi Fonetika, orfografiya, grafika bo'limlari yuzasidan, munozara uyushtiring.

2. Akademik Litsey darsliklari tarkibi va mazmuni haqida munosabat bildiring.

3. Kasb-hunar kollejlari ona tili o'qitish kursining fonetika, orfografiya, grafika bo'limlarining tuzulish yuzasidan baxs-munozara uyushtiring.

4. Dars rejasiga e'tibor bering: u qanday qismlardan tashkil topgan?

5. Dars maqsadi bilan tanishing. Uni yanada aniqroq ifodalash uchun nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz.

6. Mavzuga oid savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

7. Vaqt taqsimotini alternativ tarzda bo'lishga harakat qiling.

8. Namunadan foydalanib, bitta mashg'ulot uchun dars rejasini tayyorlang.

9. Mavzuga mos test bankini yarating.



|                |                                                                                                                                               |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>6-mavzu</b> | <b>Grammatika bo‘limlari bo‘yicha: morfologiya, sintaksis bo‘limidan «Uyushiq bo‘laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish</b> |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Ta’lim berish texnologiyasi**

|                                   |                                                                                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mashg‘ulot vaqti 80 daqiqa</b> | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b>                                                                                                                                                                                                                         |
| <b>Mashg‘ulot shakli</b>          | <b>Laboratoriya mashg‘uloti</b>                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Mavzu rejasi</b>               | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Grammatika bo‘limlari bo‘yicha: morfologiya, sintaksis bo‘limidan «Uyushiq bo‘laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish.</li> <li>2. Morfologiya bo‘limidan «so‘z turkumlari» mavzusi</li> </ol> |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> grammatika bo'limlari bo'yicha: morfologiya, sintaksis bo'limidan «Uyushiq bo'laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish bilan yaqindan tanishtirish.                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Grammatika bo'limlari bo'yicha: morfologiya, sintaksis bo'limidan «Uyushiq bo'laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish to'g'risida tushuncha berish;</li> <li>• Morfologiya bo'limidan «so'z turkumlari» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish haqida ma'lumot berish.</li> </ul> | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Grammatika bo'limlari bo'yicha: morfologiya, sintaksis bo'limidan «Uyushiq bo'laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasini sharhlab beradi;</li> <li>• Morfologiya bo'limidan «so'z turkumlari» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzishni aytib beradi.</li> </ul> |
| <b>Ta'lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| <b>Ta'lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Ommaviy, jamoaviy                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Ta'lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | O'quv qo'llanma, proektor, tarqatmalar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>Ta'lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Og'zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |

## 1.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti             | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                  |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|
|                                      | Ta'lim beruvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Ta'lim oluvchilar                                                                |
| <b>1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)</b> | 1.1. Talabalarga mavzuning asosiy mohiyati bilan tanishtiruvchi adabiyotlarni tavsiya qiladi.<br>1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.                                                                                                                                              | Tinglaydilar<br><br>Savollarga javob beradilar.                                  |
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b> | 2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.<br>2.2. Grammatika bo'limlari bo'yicha: morfologiya, sintaksis bo'limidan «Uyushiq bo'laklar» mavzusi yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish to'g'risida tushuncha | Tinglaydilar, yozadilar.<br><br>Tinglaydilar, yozadilar.<br><br>savollarga javob |

|                                       |                                                                                                                                                                                              |                                                    |
|---------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
|                                       | berish.<br>2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beriladi.                                                                                           | beradilar.                                         |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | 3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>3.2 Mustaqil ishlash uchun mavzu yuzasidan bir soatlik dars rejasi tuzish topshiriladi. | Savollar beradilar<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

### Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari

#### 1. Vergul qo'yilmaydi.      2. Vergul qo'yiladi:

\_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ ,  
 \_\_\_\_\_ ham \_\_\_\_\_ ,  
**ammo** \_\_\_\_\_ **hamda** \_\_\_\_\_ ,  
**lekin** \_\_\_\_\_ **bilan** \_\_\_\_\_ , **biroq**  
 \_\_\_\_\_ **yo** \_\_\_\_\_ **emas,**  
 \_\_\_\_\_ **yoki** \_\_\_\_\_ **-da,**  
 \_\_\_\_\_ **-u(-yu)** \_\_\_\_\_

**yoki** \_\_\_\_\_ , **yoki** \_\_\_\_\_

**na** \_\_\_\_\_ **na** \_\_\_\_\_

**ba'zan** \_\_\_\_\_ , **ba'zan** \_\_\_\_\_

**na** \_\_\_\_\_ , **na** \_\_\_\_\_

**goh** \_\_\_\_\_ , **goh** \_\_\_\_\_

**ham** \_\_\_\_\_ , **ham** \_\_\_\_\_

**bir** \_\_\_\_\_ , **bir** \_\_\_\_\_

**yo** \_\_\_\_\_ , **yo** \_\_\_\_\_

#### 3. Umumlashtiruvchi so'z- uyushiq bo'lak; uyushiq bo'laklar – umumlashtiruvchi so'z

##### Topshiriqlar:

1. Dars rejasiga e'tibor bering: u qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot bering.
3. Uyushiq bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanilishi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
4. Gapning qaysi bo'laklari uyushib keladi. Misollar keltiring.

5. Uyushiq bo‘laklarning gapda va nutqda tutgan o‘rnini izohlab bering.
6. Ushbu mavzu yuzasidan test bankini yarating.

**Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., 2001.
2. To‘xliiev B., va b. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. «Yangi asr avlodi». T.: 2006.
3. Qodirov M., va boshq. «Ona tili» 8-sinf. – T.: «Ma’naviyat», 2011.
4. Mahmudov N., va boshq. «Ona tili» 9-sinf. – T.: «Ma’naviyat», 2011.
5. Shamsieva M. O‘rta maktablarda uyushiq bo‘lakli gaplarni o‘rgatish. Qo‘llanma. – T.: 1991.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Sharq, 2002 –352.
7. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Akademik litseylarning ikkinchi bosqich talabalari uchun darslik. – T.: Sharq, 2005. – 353 b.
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik /A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. – T.: Xalq merosi, 2003. – 192 b.
9. Rafiev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyoti (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: «Sharq», 2002. – 300 b.

|                |                                                                                                                                                                                                        |
|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>7-mavzu</b> | <b>Gap va uning tuzilishiga ko‘ra turlarini o‘tish jarayonida matn ustida ishlash. O‘zga gap. Ko‘chirma gapda tinish belgilarining qo‘llanilishi. Nutq uslublari yuzasidan ko‘rgazmalar tayyorlash</b> |
|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Ta’lim berish texnologiyasi**

|                   |                                   |
|-------------------|-----------------------------------|
| <b>Mashg‘ulot</b> | <b>Talabalar soni 12-15 gacha</b> |
|-------------------|-----------------------------------|

|                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>vaqti 80 daqiqa</b>                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Mashg'ulot shakli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Laboratoriya mashg'uloti</b>                                                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Mavzu rejasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                          | <p>1. Gap va uning tuzilishiga ko'ra turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash.</p> <p>2. O'zga gap. Ko'chirma gapda tinish belgilarining qo'llanilish usullari.</p> <p>3. Nutq uslublari yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash usullari.</p> <p>4. Xulosa.</p>                         |
| <b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> gap va uning tuzilish turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash. O'zga gap. Ko'chirma gapda tinish belgilarining qo'llanilishi. Nutq uslublari yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash bilan yaqindan tanishtirish.                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• gap va uning tuzilish turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash to'g'risida tushuncha berish;</li> <li>• O'zga gap. Ko'chirma gapda tinish belgilarining qo'llanilish usullari haqida ma'lumot berish;</li> </ul> | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• gap va uning tuzilish turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash mavzularni sharhlab beradi;</li> <li>• O'zga gap. Ko'chirma gapda tinish belgilarining qo'llanilish usullarini aytib beradi.</li> </ul> |
| <b>Ta'lim berish usullari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                | Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat                                                                                                                                                                                                                                                               |
| <b>Ta'lim berish shakllari</b>                                                                                                                                                                                                                                                               | Ommaviy, jamoaviy                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| <b>Ta'lim berish vositalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                              | O'quv qo'llanma, proyektor, tarqatmalar.                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Ta'lim berish sharoiti</b>                                                                                                                                                                                                                                                                | O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya                                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Monitoring va baholash</b>                                                                                                                                                                                                                                                                | Og'zaki nazorat: savol-javob                                                                                                                                                                                                                                                              |

### 1.2. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

| <b>Ish bosqichlari va vaqti</b>      | <b>Faoliyat mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                 |
|--------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
|                                      | <b>Ta'lim beruvchi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Ta'lim oluvchilar</b>                                        |
| <b>1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)</b> | <p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>                                                                                                                                                                               | <p>Tinglaydilar</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>          |
| <b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b> | <p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Gap va uning tuzilishiga ko'ra turlarini o'tish jarayonida matn ustida ishlash to'g'risida tushuncha beradi.</p> <p>2.3. O'zga gap. Ko'chirma gapda tinish</p> | <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> |

|                                       |                                                                                                                                                                                                                                            |                                                    |
|---------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
|                                       | belgilarining qo‘llanilishini tushuntiradi.<br>2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.                                                                                                       | Savollarga javob beradilar.                        |
| <b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b> | 3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun «Gap va uning tuzilishiga ko‘ra turlarini o‘tish jarayoni uchun ko‘rgazmali qurollar tuzishni topshiradi. | Savollar beradilar<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

**Topshiriq.** Quyidagi dars ishlanmasini Toshkent shahar Mirzo Ulugbek tumanidagi 112-maktab o‘qituvchisi Muborak Mirzarahimova tuzgan. Uni diqqat bilan o‘qib chiqing:

**FAQAT OHANG VOSITASIDA  
BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR  
mavzusida bir soatlik dars ishlanma**

**Darsning uslubi:** Modul (andozali) usuli.

**Darsning maqsadi:** O‘quvchilarni o‘z fikrini aniq, to‘g‘ri va ifodali bayon etishga o‘rgatish, matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek tushunishni o‘rgatish.

**Darsning jihozi:**

1. Texnik vositalar: audio kassetalar, kompyuter, kodoskop.
2. Ko‘rgazmalar: ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, rasmlar, 9–sinf ona tili darsligi, Said Ahmadning «Ufq», Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi», Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar», Tursunoy Sodiqovanning «Hazrati ayol», «Mehr qolur», Matlabbeka Ulug‘bek qizining «Hikmatlar guldastasi» hamda Shavkat Rahmonning «Saylanma» kitoblari.

**Darsning shiori:** Odobning boshi – tildir.

**Guruhlarning shiori:** 1. Gap – fikrning surati.

2. Yaxshi nutq – rang-barang gulzorga o‘xshaydi.
3. Shirin so‘z – inson qalbining chirog‘i.
4. Mag‘zi butun suhbat – odamni fikrlashga undaydi.  
(Matlabbeka Ulug‘bek qizi, «Hikmatlar guldastasi»).

Mana, o'lkamizga Navro'zi olam kirib keldi. Atrof xushbo'y gullar ifori bilan burkandi. Shu bois, biz ham bugungi darsimizga to'rtta savatda go'zal gullar namunasidan: chinnigullar, lolalar, binafsha va moychechaklar guldastasini keltirdik.

Aziz o'quvchilar! Savatdagi gullardan yoqtirganingizni tanlab, shu gul qo'yilgan stol atrofiga o'tiring. Guruhingiz nomi ham ushbu gul nomi bilan ataladi. Dars jarayonida to'g'ri javobingiz uchun bu gullardan terib, baho kartochkalariningizni yig'asiz.

Bugungi darsimiz «Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar» mavzusi ustida boradi. Har biringiz quyidagi modul dasturi bilan tanishib, darsga tayyorgarlik ko'ring.

15-maktabning 9–sinf uchun «Ona tili»dan «Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar» mavzusi yuzasidan o'quvchilarning kichik guruhlarida o'zaro hamkorlikda ishlashga mo'ljallangan **MODUL USULI**.

**Modulning didaktik maqsadi:** Siz o'quvchilar kichik guruhda hamkorlikda mustaqil ishlab, ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarining vazifasini, xususiyatlarini bilishingiz, nutqiy tafakkuringizni kengaytirishingiz, nutq va muloqot madaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

| № | <i>O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriqlar.</i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | <i>Topshiriqlarni bajarish</i>                                                                | <i>Baho</i>                               |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| I | <p>Maqsad: faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarning xususiyatlarini o'rganish.</p> <p>1. Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, tegishli mashqda berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'layotgan vositalarni aniqlang.</p> <p>2. Magnit lentasidan berilgan matnga yozma va og'zaki izoh bering.</p> <p>3. O'tgan mavzuni takrorlash uchun kompyuterda test ishleng.</p> | <p>O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishleng.</p> <p>Kompyuterdan to'g'ri foydalaning.</p> | <p>O'z faoliyatingizni baholab boring</p> |
| I | Maqsad: ohang yordamida                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | O'quvchilar                                                                                   | Nechta                                    |

|         |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                 |                                                        |
|---------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| I       | <p>bog‘langan qushma gaplarni har qanday matndan topa bilish va uning vazifasini anglatish.</p> <p>1. Berilgan adabiyotlardan ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplarni toping.</p> <p>2 «Zakovat» o‘yinida qatnashib tinish belgilarining vazifalarini tushuntiring.</p> <p>3. Kodoskopda berilgan qo‘shma gaplarni topib, tinish belgilarini qo‘ying, perfokarta bilan ishlang.</p>                                                          | <p>jamoasi bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.</p>                                          | <p>to‘g‘ri javob topdingiz?</p> <p>Belgilab boring</p> |
| I<br>II | <p>Maqsad: og‘zaki nutqni rivojlantirish, mavzuga ijodkorlik bilan yondashish.</p> <p>1. Adabiyotlardan topilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi tinish belgilarini yordamchi so‘zlar bilan almashtiring.</p> <p>2. Badiiy adabiyotdan tayyor matnni toping va uni ifodali o‘qib, tinish belgilari o‘rnini sxemada belgilang.</p> <p>3 Yozuv taxtasida berilgan gaplarni ijodkorlik bilan to‘ldiring.</p>                                              | <p>Tezkorlik bilan ishlang.</p> <p>Adabiyotlardan foydalaning.</p> <p>Trening usulida guruh bilan ishlang.</p>  | <p>O‘z kuchingizni sinab boring.</p>                   |
| I<br>V  | <p>1. Modulni yakunlash! Modulning didaktik maqsadini o‘qing.</p> <p>2. Siz moduldan ko‘zlangan maqsadga erishdingizmi? Qay darajada?</p> <p>3. O‘quv materialini o‘zlashtirishga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?</p> <p>4. Qaysi topshiriq tushunarsiz bo‘lib qoldi? Dars davomidagi faoliyatingizni baholang.</p> <p>5. Uyga vazifa: belgilangan mashq. Har bir berilgan tinish belgisiga ikkitadan qo‘shma gap tuzib matn tuzing.</p> | <p>O‘z fikringizni bayon eting.</p> <p>Guruh sardori faoliyatingiz haqida o‘qituvchiga hisobot tayyorlaydi.</p> | <p>Umumiy bahoni hisoblab chiqing.</p>                 |

Aziz o‘quvchilar! Qo‘lingizdagi modul bilan tanishib chiqdingiz. Topshiriqlarni bajarishda vaqtdan unumli foydalaning. Yozma nutqda tinish belgilarining ahamiyati katta. Tinish belgilari o‘z o‘rnida ishlatilmasa, gapning mazmuni ham, sintaktik tuzilishi ham o‘zgarib ketadi. Tinish belgilari yozma nutq mohiyatini yaxshi tushunishni ta‘minlaydi. Yozuv taxtasidagi misollarni o‘qib, ma‘nosini tushuntirib bering:



1. Sen katta bola emassan.

*(Kichkintoyga uning kichikligi ta'kidlanyapti)*

2. Sen katta, bola emassan.

*(O'smirga endi kichik bola emasligini ta'kidlanyapti)*

3. Solining kelgani rost, emas yolg'on.

*(Rost so'zidan keyin qo'yilgan vergul Solining kelganini bildirishga xizmat qilyapti, ishontiryapti)*

4. Solining kelgani rost emas, yolg'on.

*(Bu gapda vergul joyini o'zgartirib, gapning yolg'onligini ta'kidlayapti).*

**O'qituvchi:** Men ham darsni Afandi latifasidan boshlasam: Afandi bir kuni gaplashib o'tirib, qozini «Siz ahmoq odamsiz» – debdi. Xafa bo'lgan qozi afandini podshohning oldiga sudrabdi. Voqeadan xabar topgan podshoh afandiga do'q qilib: «Darhol uzr so'rab, «Siz ahmoq odam emassiz», – degin, yo'qsa hozir jallod chaqiraman», – debdi. Ilojsiz qolgan afandi qoziga qarab: «Siz ahmoq, odam emassiz!» – debdi.

*(O'quvchilar darslikda berilgan mashq asosida qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'layotgan vositalarni aniqlashadi. Magnit lentasidan quyidagi matn o'qib eshittiriladi. O'quvchilar matn tarkibidagi tinish belgilarining o'rnini sxema tarzida belgilaydilar, qo'shma gaplarni aniqlab, bog'lovchi vositalarni sharhlaydilar.*

«Oqil bobo deydi: – O'z vatanini sevmagan odam – yomon odam. Kimda-kim o'z ona diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho'llari-yu, dala dashtlarini qalbdan seva olsa, unday odam kam bo'lmaydi, zavol ko'rmay kamol topadi. Vatangado esa xalq qahrg'azabiga uchragan kishidir. Vaqti kelib unga hatto bir parcha yer ham, kafan ham buyurmaydi. «Bir siqim ona yer tuprog'i bir hovuch oltindan qimmat», – deb bejiz aytilmagan».

**Chinnigul guruhi:** Biz bu matnning sxemasini quyidagicha chizdik:

— : — — — — — . — — — — — , — , — — — — — , — — — — — .

— . — — — — — . «— — — — — », — — — — — .

**Lola guruhi:** Biz bu matn tarkibida 3 ta sodda gap va bitta nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gap borligini aniqladik.

**Moychechak guruhi:** Bu matn tarkibidagi qoʻshma gap uyushiq boʻlaklar bilan bogʻlangan. Sodda gap tarkibida ham ega uyushib kelgan. Uyushiq boʻlaklarda ham vergul, ikki nuqta va tire ishlatiladi.

**Binafsha guruhi:** Bu matnda *kimda kim, unday* nisbiy soʻzlari, *-yu, ham* bogʻlovchi yuklamalari, *tire, vergul, ikki nuqta* tinish belgilari sodda gaplarni oʻzaro bogʻlagan. *Ham* bogʻlovchisi takror qoʻllangani uchun har bir boʻlak vergul bilan ajratilgan.

**Oʻqituvchi:** Oʻtilgan mavzularni takrorlash uchun quyidagi testlarni kompyuterda ishleng.

Test bilan ishlash:

1. Ohang vositasida bogʻlangan qoʻshma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Maktabda oʻqimoq kerak, ammo maktabdan chiqqandan keyin yana koʻproq oʻqish kerak.

B) Kim oʻqishni istamasa, hech qachon haqiqiy inson boʻlolmaydi.

C) Hamma sohada chalasavod boʻlmasliging uchun hamma narsani bilishga intilma.

D) Boʻlar-boʻlmasga qattiq kulaverish farosatsizlik va yomon tarbiya alomati.

E) Bemaʼni fikrlar har kimda ham boʻladi, faqat aqlli kishigina uni aytmaydi.

2. Qoʻshma gap tarkibiy qismlarini bir-biriga bogʻlovchi vositalar toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni belgilang.

A) Ohang, bogʻlovchilar, yordamchi soʻzlar.

B) Yordamchi soʻzlar, kelishiklar, ohang.

C) Yuklamalar, ergashtiruvchi bogʻlovchilar, koʻmakchilar.

D) Teng bogʻlovchilar, ergashtiruvchi bogʻlovchilar, bogʻlovchi - yuklamalar, nisbiy soʻzlar, ohang.

E) Toʻgʻri javob yoʻq.

3. Soʻzlarga qoʻshilib yoziladigan yuklamalar qatorini belgilang.

A) – chi, – ku, – da; –

B) – a, – yoq, – ya;

- C) – u, – yu, – da;
- D) – ku, ham, – chi;
- E) – mi, – oq, – gina.

4. Tog‘larda hatto yoz oylarida ham yomg‘ir yog‘adi. Ushbu gapda yuklamaning qaysi turi qo‘llangan?

- A) so‘roq yuklamasi;
- B) ta‘kid yuklamasi;
- C) ayiruv yuklamasi;
- D) kuchaytiruv yuklamasi;
- E) ushbu gapda yuklama qo‘llanmagan.

5. *Ham* so‘zi qanday vaqtda bog‘lovchi sanaladi?

- A) hamma vaqt;
- B) faqat teng bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanganda;
- C) uyushgan bo‘laklarning oxirida takrorlanib kelganda;
- D) faqat uyushiq bo‘laklarning oldida kelgandagina bog‘lovchidir;
- E) *ham* so‘zi bog‘lovchi emas, yuklama hisoblanadi.

6. Qaysi gapdagi nuqtalar o‘rniga ergashtiruvchi bog‘lovchini qo‘yish mumkin?

- A) Osmonni quyuv bulut qopladi,..... yomg‘ir yog‘a boshladi;
- B) Osmonni quyuv bulut qopladi,..... yomg‘ir yog‘madi;
- C) Ichkaridan ovoz eshitilar, ..... so‘zlari anglashilmas edi;
- D) Ko‘chatlar yaxshi parvarish qilindi, ..... ular tez o‘sa boshladi;
- E) Qor yoqqani yo‘q, ..... qalin qirov tushgan.

7. Bog‘lovchi vazifasidagi *–u (–yu)* yuklamalari qaysi bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanishi mumkin?

- A) biriktiruv bog‘lovchilar.
- B) zidlov bog‘lovchilar.
- C) ayiruv bog‘lovchilar.
- D) biriktiruv va zidlov bog‘lovchilar.
- E) biriktiruvchi, zidlovchi va ayiruv bog‘lovchilar.

8. Yordamchi so‘zlarni toping.

- A) Asablarning sog‘lom bo‘lishi uchun badantarbiya bilan shug‘ullanish lozim;
- B) O, qanday chin baxtga to‘lg‘in bu onlar!

C) Munofiqlik va soxtalik do'stlik uchun yotdir;

D) Suvning yuzi jimir-jimir qiladi;

E) A va C to'g'ri.

(Test kalitlari: 1–D, 2–D, 3–E, 4–D, 5–B, 6–D, 7–D, 8–E )

**O'qituvchi:** O'quv faoliyatining ikkinchi elementida siz ko'rgazmada taqdim etilgan badiiy adabiyotlar sahifalaridan faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topishingiz va «Zakovat» o'yinida qatnashib, tinish belgilarining vazifalarini guruhingiz bilan hamkorlikda tushuntirishingiz kerak bo'ladi.

**Chinnigul guruhi:** 1. Bu xunuk xabarni eshitganda qiz butun borlig'ini unutgan, (shu sababli) esankirab nima qilishini bilmay tong otguncha yurib chiqqan edi.

2. Qiz bola nozik narsa, (shu sababli) tengi chiqsa tekin ber, degandek, (shuning uchun) vaqtida egasiga topshirsak, yomon bo'lmasdi.

3. U uyga qaytarkan: «To urush tamom bo'lguncha yerto'ladami, o'radami kun kechiraman», degan o'yda edi.

4. Ufqdan uch nuqta qoldi, bu – Nizomjon, bu – Dildor, bu – Zebi.

(Said Ahmad «Ufq» romanidan)

5. Nodirajon, Shoirajon,

Tanam qimir etmaydi,

Boring, qorli tog'larga:

Bir shoir yotibdi deng,

Xudoning hovlisida.....

Osmon to'la havolar,

Faqat menga yetmaydi. (ikki nuqta, vergul)

6. Jismingda jon bo'lsa

Undan xazar qil,

Haqorat – xotirga sanchilgan nayza.

(Shavkat Rahmon, «Saylanma»).

**Lola guruhi:** 1. Qissadan hissa: Nonni ko'z qorachig'iday saqla, dehqon mehnatini oqla. (ikki nuqta)

2. Xalq maqolida: – Yerni go'zal qilgani sayin, go'zal bo'lar o'zi ham inson, – deb bejiz aytishmagan. (ikki nuqta)

3. Eng noyob boylik - bo'sh vaqtini behudaga o'tkazib, bir-birlari bilan gap sotib o'tirish, arzimagan mayda-chuyda narsalar ustida bahslashish, yoxud ko'cha-ko'yda sanqib yurish bilan kun o'tkazuvchi bolalarni ko'rib afsuslanasan, kishi. (tire, vergul)

4. Vaqt - tig'iz, qadrlagan – aziz. (tire)

(Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi» odobnomasi)

5. El qirildi turkiy o'lkada,

El qolmadi – keldi ajali,

Kim qoniga botdi u o'lkada,

Kim g'ajildi namoz mahali.

6. Sezaman – poyonsiz qorong'ilikda

Chinqirib o'sadi xo'rlangan maysa.

(Shavkat Rahmon, «Saylanma»).

**Moychechak guruhi:** 1. Ammo roostingni ayt: ko'nglingda bu yo'lni ixtiyor etib to'g'ri qildimmu, yo'qmu, degan bir ishtiboh yo'qmu? (ikki nuqta).

2. Dargohi ilohiyning gadosi - haq-taoloning suyukli bandasi erur. (tire).

3. Ha, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, o'n gulidan bir guli ochilmagan bu nozik qiz: qirqqa borib qolgan, chekmagan zahmati, ko'rmagan balosi qolmagan. (ikki nuqta).

(Odil Yoqubov, «Ulug'bek xazinasi»).

4. Qutidor xotiniga kulib qaradi: – Eri yaxshi bo'lsa, kundosh balosi nima degan gap? (tire).

5. Zero, Anvar hozir butun shaharga dong' tortg'an, shaharning ulamosi, ashrafi, bek va bekbachchasi Anvarni taniydir; Anvarga mazkur oliy tabaqalarning har qaysisi ham o'z qizini berib, kuyov qilishg'a tayyor (nuqtali vergul, vergul).

6. Andisha va ehtiyot yuzasidan bu xatni alohida yozib, kitob ichiga yashirdim: Anvar aka, og'ir soatlarda yoningizda turg'uchi do'stdir; qochquchi esakim – buni sizning hukmingizga havola qilaman (ikki nuqta, nuqtali vergul, tire).

(Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»).

**Binafsha guruhi:** 1. Azizim, har qanday yomon ishning bir jihati xosiyatdir: 16-fevral katta-yu kichikka bir dars, hushyor torttiruvchi bir saboq bo‘ldi! (ikki nuqta, vergul)

2. Bolalar dunyosi chinnidan qurilganday nafis – salga darz ketadi (tire).

3. Ayol qaynar buloq: uning bir ismi Mehr, bir ismi Muruvvat, yana bir ismi Fidoyidir (ikki nuqta).

4. Mardlik, tantilik, lafzda turish kabi xislatlar ayol toifasida kuchliroqdir: sevgisini yashirin asrash – mardlik; shaytonning yo‘liga yurmay, sharm-hayo bilan turish – mardlik; hamisha o‘zini kamtar va siniq tutish – mardlik (tire, ikki nuqta).

5. Bola – shamol, tiyaylik, – deb ayt,

Guldir – xorin qiyaylik – deb ayt.

Oy misoli jinday dog‘i bor,

Artib, so‘ngra suyaylik, deb ayt.

Yomon, deb ayt hammaga bir-bir,

Onasiga aytma baribir.

6. Kelsam onam: jonimga jon qo‘shgani,

Tursun Jonim kelibdi, deya yayraydi.

Men esam-chi, tashib qo‘sha-qo‘sha g‘amni,

Nuqul bolam tashvishidan sayrardim.

Joningizga jon bo‘lmadim, onam-a. (ikki nuqta)

7. Nogoh yo‘ldan baxil chiqdi, bo‘sh so‘zimni terdi u,

O‘z so‘zim-la o‘z-o‘zimni savaladi: o‘ylandim,

Ziyrak tortdim – til tiyishdan,

Ajib saboq berdi u. (ikki nuqta, tire)

(Tursunoy Sodiqova «Mehr qolur», «Hazrati ayol»)

**O‘qituvchi:** Siz badiiy adabiyot sahifalaridan faqat ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni topdingiz. Endi dam olish bekatida quyidagi topishmoqlarga javob topib, so‘ngra har bir stolga qo‘yilgan tinish belgilarning (tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul) gapdagi o‘rni haqida guruhingiz ma’ruza qiladi.

1. Jinqarcha deb, meni demang norasida,

O‘rnim tengdosh bo‘laklarning orasida.

Fikrlarning «raz'ezdi» – men, menda birpas –

Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas... (vergul)

2. Yozuvlarga izlab ma'no, Yo'l ko'rsatay o'zim dono.

Har gap, so'zga, harfga hatto, Etolaman izoh ato. (tire)

3. Erkin duradgor, Tolib shifokor.

Erkin, Tolibdan keyin ne darkor? ( tire )

4. Katta akang Samandar ishchan, ilg'or paxtakor.

Samandardan oldin, so'ng bir nimalardir darkor? (vergul)

**Chinnigul guruhi:** Vergul quyidagi o'rinlarda qo'yiladi: Bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida; takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasiga; zidlovchi bog'lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasiga; undalmalarni ajratish uchun; kirish so'zlari va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lmagan kirish gaplarni ajratish uchun; *ha* va *yo'q* so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun; gapning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun; bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda; *va*, *ham*, *hamda*, *yoki* kabilardan boshqa bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarda; muallif gapini ko'chirma gapdan ajratishda vergul ishlatiladi.

**Lola guruhi:** Nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi: 1. O'z ichida vergul bo'lgan yopiq uyushiq bo'laklar orasida: «Mehnat, ijod, odam; sharaflil dil yorug'i, hayot quvonchi - hammasining asl manbai sen, vatanim – tinchlik tayanchi».

2. O'z ichida vergul bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: Shinel jiqqa ho'l; Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.

**Moychechak guruhi:** Ikki nuqta fikrning to'la tugallanmaganligini, bundagi tugallik keyingi gap orqali ochilishini anglatish uchun qo'llaniladi. Bu uning asosiy xususiyati bo'lib: 1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratish uchun qo'llanadi: Bir gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa; natijasini ko'rsatsa; agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa; ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng qo'llaniladi. 2.

Umumlashtiruvchi soʻz uyushiq boʻlaklardan ilgari kelganda, umumlashtiruvchi soʻzdan keyin qoʻyiladi.

**Binafsha guruhi:** Tire quyidagi oʻrinlarda qoʻllanadi: Umumlashtiruvchi soʻz uyushiq boʻlaklardan keyin kelganda umumlashtiruvchi soʻzlardan oldin qoʻyiladi. Baʼzan ajratilgan boʻlaklarda ham ishlatiladi. Kiritma gap ham tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi. Dialog shaklidagi koʻchirma gaplarda, tenglik maʼnolarini bildirishda ham ishlatiladi. Kesim yoki ega harakat nomi bilan ifodalansa, egadan keyin tire qoʻyiladi. (Oʻqish - hayotni tushunish.) Ega koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanib, alohida ajratib koʻrsatilsa, bogʻlama va kesimlik qoʻshimchasi boʻlmasa, egadan keyin tire qoʻyiladi. Bogʻlovchisiz qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid boʻlsa, birinchi gapning mazmuni ikkinchi gapning mazmuniga oʻxshatilsa, birinchi gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning paytini yoki shartini bildirsam ham tire qoʻyiladi. (Koʻz qoʻrqoq - qoʻl botir).

(Kodoskopda berilgan qoʻshma gaplarning tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qoʻyib, sodda gaplar qay vosita orqali oʻzaro bogʻlanganini oʻz variantingiz asosida qoʻlingizdagi perfokarta- dan belgilang).

1. Jangda oʻlgan emas biror bahodir (,) bari halok boʻlgan xiyonatlardan.
2. Toshday uxlaganda toʻshlarin ochib yo zahar qoʻshilgan ziyofatlardan.
3. Hamal (-) bol nafasli (,) tonglari (-) pushti (-) quyosh qahrabo may toʻla kosadir.
4. Gʻijirlyaydi bezovta chinor (,) ogoh etib shovillaydi (: ) ku-uz (,) ammo uchta sap-sariq ilon agʻochlarga oʻrlardi (,) afsus (Sh.R.).
5. Eshikka qarang (,) birov keldi-yov.
6. Aʻlo mamlakatning aʻlo farzandi bilib qoʻyki (,) seni Vatan kutadi (Gʻ.Gʻ.).



7. O'ldimi (,) uxladimi (,) endi baribir unga (H.O.).
8. Har kimki vafo qilsa (,) vafo topqusidir (Bobur).

### **PERFOKARTA BILAN ISHLASH**

|  | ! ergashtiruvchi | ! bog'lovchi  | ! nisbiy     | ! Ohang   |
|--|------------------|---------------|--------------|-----------|
|  | bog'lovchilar!   | bog'lovchilar | ! yuklamalar | ! so'zlar |
|  | ! vositasi       |               |              |           |

---

|    |   |   |  |   |
|----|---|---|--|---|
| 1. |   |   |  | X |
| 2. | X |   |  |   |
| 3. |   |   |  | X |
| 4. | X |   |  |   |
| 5. |   | X |  |   |
| 6. | X |   |  |   |
| 7. |   | X |  |   |
| 8. |   |   |  | X |

---

(Guruhlar keyingi bosqichda badiiy adabiyotlardan topilgan, quyidagi qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lovchi tinish belgilarini yordamchi so'zlar bilan almashtiradilar).

1. Ro'zg'or Tohir Zuhrolik, (va) Layli – Majnunlik emasligini, ro'zg'or cheki yo'q kurash, (hamda) yutish - yutqizishlar maydoni ekanligini yod etib yur!

2. O'qituvchi bolaga chandon nafis tarbiya, (va) ishlov bermasin, (ammo) uning uyida otasining og'zidan bodi kirib, shodi chiqib tursa, (yoki) yeydigan ovqati birovning haqi bo'lsa, bola qanday poklansin!

3. Padaringiz uyi avlodingizning ruhlari-yu, (hamda) tiriklari to'planadigan joy, (shuning uchun) imkoningiz yetgancha u yerni obod qilishga intiling.

4. Tilingizni yomon so'zdan tiying – (chunki) bir marta aynigan til yana ayniyveradi.

**O'qituvchi:** Darsimizning ijodkorlik bosqichida siz yozuv taxtasida berilgan gaplarni maqsadi nuqtai nazaridan tahlil qilib, guruh bilan hamkorlikda o'z fikringizni bildiring. Bu topshiriq trening usulida o'tadi.

1. Nazardan qolmoqlik ulkan fojiaadir – nazardan qolganlarning oilasi ham hech qachon ungan emas, o‘sgan emas.

**Chinnigul guruhi:** Unday kishilar aybini tan olmaydi, boshqalarga ozor beradi; biri ikki bo‘lmaydi; uyidan baraka ketadi; oila tanazzulga yuz tutadi: nomardlik uning hamrohiga aylanadi; nomard taqdiridan noliydi; uyida janjal ko‘p bo‘ladi; noshud - qo‘rqqanidan firib beradi; oiladan omad ketadi; atrofdagilarga qo‘shila olmaydi, e‘tibordan qoladi.....

2. Dunyo bergan bor narsasini yo‘qotgan keksalar bora-bora mung‘ayib qolarkan, shunday paytda ularni: onasi bo‘lib erkalatmoq kerak.

**Lola guruhi:** otasi bo‘lib ko‘nglini olmoq kerak; eng yaqin kishisi bo‘lib mehribonchilik ko‘rsataylik; xasratlarini erinmay tinglaydigan dardkashi bo‘laylik; yuragiga malham, beliga quvvat bo‘laylik; ulardan tez-tez xabar olaylik; vaqtimizni ajratib sayrga olib chiqaylik; shirin gapimizni ayamaylik; chehramizni ochib gaplashaylik; imkon qadar sovg‘alar qilaylik; yo‘limizga termultirmaylik va h.k.

3. Mehr qozonish insonga qanot beradi:

**Moychechak guruhi:** mehr – hayot lazzati; mehr – oilaning quvvati va joni; mehr – ko‘ngil uyini tozalovchidir; mehrlil ko‘ngilda g‘ubor bo‘lmaydi; qalb muzini mehr eritadi; mehr-muhabbati yo‘q xonadonga baxt kelmaydi; qalbnl zabt etish uchun jang emas, mehr kerak; odam hech qachon mehrdan to‘ymagan; ota-ona mehri – o‘zidan so‘ng ham nur qoldiradi va h.k.

4. Har bir odamning suyanch tog‘lari bo‘ladi: bandalari oyog‘ingdan ming tortsinlar – xudo suyasa, seni hech kim kamsitolmaydi;

**Binafsha guruhi:** Vatan – tayanch nuqtamiz; ota-ona uchun farzand – qalb g‘ururi; ota – umr bog‘boni; bola og‘ir yuk ko‘tarsa, onaning beli og‘riydi; panjalar to‘plansa – musht hosil bo‘ladi; do‘st – do‘stga suyanchiq; do‘stning mehri – umr oftobidir; bilim – kelajakning yo‘li; aql – odamning qanoti va h.k.

**O‘qituvchi:** Darsimizning yakunida modulning didaktik maqsadini o‘qing. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz moduldan ko‘zlangan maqsadga erishdingizmi?
2. O‘quv materialini o‘zlashtirishga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?
3. Qaysi topshiriq tushunarsiz bo‘lib qoldi?
4. yuqoridagi matn yuzasidan o‘z xulosalaringizni bayon eting.

Keling, dastlab, birgalikda mazkur dars ishlanmasi ustida fikr yuritib ko‘raylik. Odatda, darsning tuzilishi, uning maqsad va vazifalari, mavzusi, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, yoshi singari ko‘plab omillarga tayangan holda tanlanadi. U an'anaviy yoki no'anavaiy bo‘lishi mumkin. Buni oldindan belgilab olish kerak bo‘ladi. Masalan, «Faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar» mavzusini tanlab olaylik.

Endi darsning uslubini belgilaymiz: u konferentsiya, seminar, modul va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. O‘qitkichi esa modul usulini tanlagan.

Shundan keyin darsning maqsadi belgilanadi: u o‘quvchilarning qo‘shma gap haqidagi bilimlarini kengaytirish, faqat ohang yordamida bog‘lanadigan qo‘shma gaplar haqida tasavvur hosil qilish va ularning o‘z nutqlarida shunday gaplarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning o‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish va hokazo tarzda belgilanishi mumkin. Endi yuqorilagi ishlanmada belgilangan maqsadni kuzating. Unda maqsad «O‘quvchilarni o‘z fikrini aniq, to‘g‘ri va ifodali bayon etishga o‘rgatish, matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek tushunishni o‘rgatish», tarzida belgilangan.

## GLOSSARIY

**ADAPTATSIYA** – bolaning maktab sharoitiga, uning talab va mezonlariga moslashishi; indivdning ijtimoiy shaxs bo‘lib etishish

 A) Qoidalar uchun tanlangan misollar ijodiy mehnat qahramonlari, tinchlik, ilmiy, ijodiy faoliyatini aks ettirishi.  
 B) Ahloq, odob mavzusidagi hikmatlar aytish.  
 C) Ahloqqa oid rivoyatlar aytish.  
 D) \*Hamma javoblar toʻgʻri.
247. Nazariy bilimlar bilan amaliy tayyorgarlik orasidagi farq qanday bartaraf etiladi?  
 A) Oʻtgan qoidalar mustahkamlanadi.  
 B) \*Grammatik qoidalar uchun jonli nutqdan misollar olinadi.  
 C) Ona tili oʻqitish amaliyot bilan bogʻlab olib boriladi.

*D) Har bir mavzu orfografiya bilan bog‘lab olib boriladi.*

*248. 5-sinfga birinchi marta dars beradigan o‘qituvchi ishni nimadan boshlash kerak ?*

- A) Boshlang‘ich sinf dasturi bilan yaxshi tanish bo‘lishi.*
- B) 3-sinf dasturi bilan yaxshi tanish bo‘lishi.*
- C) O‘quvchilar bilim darajasini bilishi.*
- D) \*Hamma javoblar to‘g‘ri.*

*249. O‘quvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishning takomillashgan usullari?*

- A) Kitobni muntazam o‘qish, o‘qituvchining maroqli suhbat.*
- B) Ekskurtsiyalar, o‘qishga oid kinofilmlar ko‘rish.*
- C) Turli konkurslar, olimpiadalarda ishtirok etish.*
- D) Barchasi to‘g‘ri javob.*

*249. Yangi bilim berishning yuqori nuqtasi nima?*

- A) O‘quvchiga yangi notanish narsani ochish.*
- B) \*O‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish.*
- C) Darsni muammoli tarzda bayon qilish.*
- D) Yangisini oldingisi bilan bog‘lash.*

*250. Qanday holatda deduksiya usulidan foydalaniladi?*

- A) Mavzu o‘quvchilarga qisman tanish bo‘lsa.*
- B) \*Hodisalarning umumiy belgilarini aniqlashda.*
- C) O‘tiladigan mavzular mutlaqo notanish bo‘lsa.*
- D) Ona tili darslarida bu metod qo‘llanilmaydi.*

*251. O‘qituvchi darsga tayyorgarlikni qachon boshlaydi?*

- A) Dars o‘tishga bir kun qolganda .*
- B) Dars o‘tishga bir hafta qolganda.*
- C) \*O‘quv yilining boshida, xatto avgust oyida.*
- D) Dars jadvali qo‘yilgan vaqtda.*

*252. O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammo nimalar asosida echiladi?*

- A) \*Mavjud bilim va ko‘nikmalar asosida.*
- B) To‘plangan tajribalar asosida.*
- C) Olingan bilimlar asosida.*
- D) Javob yo‘q.*

*253. O‘quvchilarning o‘z nutq ohangiga tayanishi, tovushni morfema tarzida chiqarish, tovush va harf qanday metodik printsip sanaladi?*

- A) Umumiy metodik printsip*

- B) *Pedagogik-psixologik printsip.*
- C) *\*Xususiy metodik printsip.*
- D) *Javob yo‘q.*

254. *Fonetikani yaxshi o‘zlashtirmagan o‘quvchi qaysi bo‘limlarni yaxshi o‘zlashtirmasligi mumkin?*

- A) *Leksikologiya.*
- B) *\*So‘z yasaliş va orfografiya.*
- C) *Orfografiya va morfologiya.*
- D) *Punktuatsiya va stilistikani.*

255. *Tovush bilan harfning mos kelmaydigan holatlarini tushuntirishda nimalarga e‘tibor berish kerak?*

- A) *Tovush va harfning o‘zaro munosabatiga.*
- B) *\*Tovush va harfning o‘zaro munosabatiga to‘ri kelmaydigan harflar bilan ko‘prok mashq qilishi.*
- C) *«NG» tovushining talaffuziga.*
- D) *«Yu» harfining talaffuziga.*

256. *Qisqartirma so‘zlarni o‘tishda qanday muammoli vaziyat hosil qilish mumkin?*

- A) *Qisqartirma so‘zlardagi yasalişni.*
- B) *Qisqartirma so‘zlarning imlosi.*
- C) *Qisqartirma so‘zlarning talaffuzi.*
- D) *\*Hamma javoblar to‘g‘ri.*

257. *Maktab grammatikasi qaysi nuqtai nazardan o‘qitiladi?*

- A) *Amaliy nuqtai nazardan*
- B) *Ilmiy nuqtai nazardan*
- C) *Ilmiy-amaliy nuqtai nazardan*
- D) *\*Hamma javoblar to‘g‘ri.*

258. *Ona tili darolarida imlo va nutq madaniyatini rivojlantirish yo‘llarini izohlab bering.*

- A) *O‘qituvchi va o‘quvchilar orfoepiya, orfografik, punktuatsion talablar va chiroyli yozuv qoidalariga to‘la amal qilishi.*
- B) *Imlo lug‘atidan notanish so‘zlar lug‘atidan lug‘at doskasidan muntazam foydalanish.*
- C) *O‘quvchilar daftari ko‘rgazmasini o‘tkazish, o‘qituvchi hamda fan, madaniyat, san‘at vakillari bilan nutq madaniyati haqida suhbatlar uyushtirish.*
- D) *Hamma javoblar to‘g‘ri.*

259. *Ona tili darsligining yaratilishiga nima asos bo'lib xizmat qiladi?*

- A) *Ona tili dasturlari.*
- B) *O'quv ishlari rejasi.*
- C) *Davlat ta'lim standarti.*
- D) *\*Hamma javoblar to'g'ri.*

260. *5- sinf « Ona tili» darsligi mualliflari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.*

- A) *B.Mirzahmedov, Y.Abdullaev.*
- B) *A.G'ulomov, Z.Ma'rufov, M.Olimxonova, Y.Abdullaev.*
- C) *\*N.Mahmudov va boshqalar.*
- D) *Barcha javoblar to'g'ri.*

## **ИЛЮБАЛИП:**

1-ilova

**Fan:** Davlat tilida ish yuritish

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Guruh:** \_\_\_\_\_

**Dars mavzusi:** «Hujjat matnlarida tinish belgilarining qo'llanilishi va yozuv me'yorlariga amal qilish».

**Dars maqsadi:**

**I. Ta'limiy:** O'quvchilarda hujjat matnlaridagi tinish belgilari va yozuv me'yorlariga amal qilish haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, hujjat matnlarida o'rinli foydalanishga o'rgatish.

**II. Tarbiyaviy:**

- O‘quvchilarning ma’naviy boy, sog‘lom fikrlashini shakllantirish.

Hujjat turlari misolida ilmga, badiiy adabiyotga, ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish.

- O‘quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoiylilik, insonparvarlik fazilatlarini yanada oshirish.

- Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining tarbiyaviy ahamiyatini dars jarayonida tatbiq qilish.

### **III. Rivojlantiruvchi maqsadi:**

O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash, xususan:

- O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish.
- O‘quvchilarni kitob ustida ishlash, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishga yo‘naltirish.

- Muammoli savollar, test tarqatmalaridan foydalangan holda o‘quvchilar faolligini oshirish.

### **IV. Fan kafedrasining maqsadi:**

- Dars jarayonida noan’anaviy usullardan foydalanish.
- Dars jarayonida zamonaviy o‘qitish usulini qo‘llash.
- Ko‘rgazmali qurollar, stend, jadvallar, testlar, tarqatmalar tayyorlash.

- Tayyorlangan uslubiy ishlanmalardan dars jarayonida foydalanish.

### **V. Motivatsion maqsadi:**

- O‘quvchilarni bilim olishga, hayotda yashashga, tanlagan kasbini sevishga, o‘quv yurti sharafini himoya qilishga, milliy iftixor tuyg‘usini oshirishga yo‘naltirish.

### **Ma’ruza rejasi:**

1.Tinish belgilari haqida ma’lumot.

2.Hujjat matnlarida tinish belgilarining qo‘llanilishi va yozuv me’yorlariga amal qilish qoidalari.

**Dars turi:** Amaliy, aralash.

**Darsda qo'llaniladigan metod:** Savol-javob, «Bumerang» texnologiyasi

**Darsning jihozi:** Ko'rgazmali qurollar, hujjat turlari namunalari, bukletlar, shirmalar, tarqatma materallar

**Darsning borishi va mazmuni:**

**Darsning tuzilishi:**

**1) Tashkiliy qism: 2 daqiqa.**

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash;

d) o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish (forma, beyjig, maska, o'quv qurollari);

**2) O'tilgan mavzuni takrorlash, savol-javob, xulosalash.**

**3) Yangi mavzu yuzasidan guruhlarda ishlash, «Bumerang» metodi, «Zig-zag» usulidan foydalanish**

a) savol-javoblar;

b) guruhlar ishining yakuni;

c) darsni mustahkamlash;

**4) Uyga vazifa va darsni yakunlash.**

**I. Tashkiliy qism:**

Navbatchi o'quvchilar dars boshlanishidan 10 daqiqa oldin kelib, xonani mashg'ulotga tayyorlashadi. O'qituvchi darsga kirib, xonaning tozaligiga va o'quvchilarning tashqi kiyinishiga, o'quv qurollarining bor-yo'qligiga ahamiyat beradi. Navbatchi o'quvchining davomat varaqasi bilan darsga kelmaganlarni o'quv jurnaliga belgilaydi va qanday sababga ko'ra kelmaganligini aniqlaydi.

**II. O'qituvchining kirish so'zi:** O'qituvchi o'quvchilardan uyga berilgan vazifani aniqlaydi. O'quvchilarda mavzu bo'yicha tushunmovchilik tug'dirgan savollar bor-yo'qligini aniqlab oladi va ular qiynalgan o'rinlar bor bo'lsa, yana alohida to'xtalib o'tadi. O'qituvchi umumiy, yakka savollar berib, ular diqqatini o'ziga jalb etadi.

**III. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini baholash.**

O'quvchilardan o'tilgan mavzuni so'rashda «SAVOL-JAVOB» metodidan foydalanish mumkin.



1. Ma'lumotnoma deb qanday hujjatga aytiladi? Uning mazmuniy qurilishi haqida nima deya olasiz?

2. Dalolatnoma deb qanday hujjatga aytiladi? Uning mazmuniy qurilishi haqida nima deya olasiz?

3. Bildirishnoma deb qanday hujjatga aytiladi? Uning mazmuniy qurilishi haqida nimalarni bilasiz?

4. Bildirishnomaning asosiy tarkibiy qismlaridan foydalanib kollej rahbari nomiga bildirishnoma yozing.

5. Hisobot deb qanday hujjatga aytiladi? Uning mazmuniy qurilishi haqida nima deya olasiz?

6. Hisobot quyidagi zaruriy qismlarga bo'linadi:  
yuqoridagi namunadan foydalanib o'quv yilining birinch yarmi ychun hisobot yozing.

Endi quyidagi jadval bandlari bilan tanishing. Ularning tarkibidagi o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor bering.

|   | Bildirishnoma                                                                                | Hisobot                                                                                                                              |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Yuboriladigan tashkilot va rahbarning lavozimi va ism familyasi.                             | Sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilmoqda.                                                 |
| 2 | Bildirishnomani yozgan kishi yoki tashkilot va uning rahbarining lavozimi va ismi-familyasi. |                                                                                                                                      |
| 3 | Hujjat nomi (Bildirishnoma)                                                                  | Hujjat nomi (Hisobot).                                                                                                               |
| 4 | Xat mazmuni.                                                                                 | Hisobot matni.                                                                                                                       |
| 5 |                                                                                              | Hisobot berayotgan tashkilot yoki uning bo'limi nomi, tuzuvchining lavozimi, ismi va otasi ismining bosh harflari, familiyasi, imzo. |
| 6 | Bildirishnomani tayyorlagan xodim yoki rahbarning imzosi.                                    | Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.                                                                                                |

|   |       |       |
|---|-------|-------|
| 7 | Sana. | Sana. |
|---|-------|-------|

#### IV. O‘tilgan mavzuni umumlashtirish.

4.1. quyidagi bildirishnoma bilan tanishing, tinish belgilarini o‘rniga qo‘yib matnni ko‘chiring:

Alisher Navoiy nomidagi  
Adabiyot instituti rektori A.  
N. Bahodirovichga «Qiyosiy  
Adabiyotshunoslik» kafedrasida  
mudiri A. B. G‘iyosovdan

#### BILDIRISHNOMA

«Qiyosiy adabiyotshunoslik» kafedrasida «O‘zbek adabiyoti» yo‘nalishi bo‘yicha 1-kursda 2ta magistr tahsil olmoqda. Ularning mavzusi va ilmiy rahbarlari quyidagicha tavsiya etilmoqda

| № | Talabani F.I.O                         | Magistrlik dissertatsiya mavzusi                                      | Ilmiy rahbari               |
|---|----------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|-----------------------------|
| 1 | Axmedova Adolat<br>Qo‘ziboyevna        | «Kitobiy dostonlarni qiyosiy o‘rganish muammolari»                    | f.f.d., prof<br>B.Turdiyev  |
| 2 | Navro‘zboyeva<br>Mohira<br>Odamboyevna | «Akademik litseylarda hikoya janrini qiyosiy o‘rganish xususiyatlari» | ped.f.d.,<br>prof.R.Odilova |

Sizdan mazkur taklifni institut ilmiy kengashida muxokama qilib, tasdiqlab berishingizni so‘raymiz

Kafedra mudiri: A B G‘iyosov

Nizomiy nomidagi TDPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining 2010-2011 o‘quv yilida o‘tkazilgan pedagogik amaliyot haqidagi

H I S O B O T

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bayon etilganidek, hozirgi davrining dolzarb masalalaridan biri, o‘qituvchi-tarbiyachi xodimlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, Oliy o‘quv yurti talabalarini muallimlik ishiga nazariy va amaliy tayyorlashning zaruriy bo‘g‘ini va tugallovchi bosqich hisoblangan pedagogik amaliyotga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishdir, chunki, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o‘qituvchilik kasbining serqirrali tomonlarini, bu kasbga bo‘lgan o‘zidan mehr-muhabbat, layoqat, havas, ishtiyoq, qobiliyat, mahorat qay darajada ekanligini sinovdan o‘tkazadi.

Pedagogik amaliyot umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar bilan oliy ta’lim tizimini jips bog‘laydigan bo‘g‘in hisoblanadi. Bu davrda talabalar universitet auditoriyalarida olgan nazariy bilimlarga, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida sinalgan tajribalarga tayanib mustaqil faoliyat olib boradilar; yuqori malakali metodist o‘qituvchilarning ish faoliyati bilan tanishadilar, ulardan o‘rganadilar, turli ruhiyat egalari–o‘quvchilar bilan hamkorlikda o‘quv-tarbiya ishlarini olib boradilar.

2011 yil 31-yanvar kuni 5-o‘quv binosining 1-zalida bitiruv malakaviy amaliyotga bag‘ishlangan anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda universitet o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b D.U.Ergashev, amaliyot bo‘limi boshlig‘i B.Matchanov, fakultet dekani I.Azimov, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri B.To‘xlijev, metodistlar, pedagog, psixolog va maktab gigienasi fani o‘qituvchilari ishtirok etishdi. Anjumanda amaliyot oldida turgan muhim vazifalar to‘g‘risida qimmatli maslahatlar berildi.

«O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasini» professor-o‘qituvchilari M.Mirqosimova, R.Niyozmetova, T.Niyazmetova, O.Oxunjonova, D.Jumashev, K.Dosanov, R.Mirsamiqova, O.Ametova, U.Ibragimova, O‘.Misirova, K.Usmonova, X.Aliqulovalar talabalar bilan Toshkent shahridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-fevraldan 30- aprelgacha pedagogik amaliyotda bo‘ldilar.

Pedagogik amaliyot quyidagi o‘quv maskanlarida olib borildi:

1. 401-guruh – O‘zDJTU qoshidagi 2 - sonli akademik litseyga
2. 402-guruh – Yakka Saroy tuman XTBga qarashli 73-maktabga
3. 403-guruh – Shayxantoxur tuman XTB qarashli 20- o‘rta maktabda
4. 404-guruh – TDPU qoshidagi Akademik litseyda
5. 405-guruh – Engil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyda
6. 406-guruh – Respublika 1-ped kollejida
7. 407-guruh – Yunus Rajabiy nomidagi pedagogika kollejida
8. 408-guruh – Yuridik litseyda
9. 409-guruh – Yunusobod tuman XTB ga qarashli 70- o‘rta maktabda
- 10.410-guruh – 2- ped kollejda
- 11.411-guruh- Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat instituti qoshidagi 1-sonli akademik litseyda amaliyot o‘tash belgilandi.

Pedagogik amaliyot davomida belgilangan barcha vazifalar bajarildi qo‘shimcha ma'lumotlar ilova qilinadi.

Kafedra mudiri

Саһа

*Buni esda tuting:*

1. Yuz bergan voqea- hodisa haqidagi oddiy axborot ko‘rinishida yaratilgan matn ma’lumotnoma (axborot) matni deyiladi. Bu matnning quyidagi belgilari bor:

- 1) So‘zlar o‘z ma’nolarida qo‘llaniladi;
- 2) Tilda mavjud bo‘lgan badiiy- tasviriy vositalardan (masalan, badiiy san’at turlaridan) deyarli foydalanilmaydi;
- 3) Yuz bergan voqea-hodisa oddiy so‘zlar vositasida tasvirlanadi.

2. Yuz bergan voqea-hodisa haqida ijodiy-tavsifiy bayonni aks ettiruvchi matn ijodiy-tavsifiy matn deb yuritiladi. Bu matnning quyidagi belgilari bor:

- 1) Yuz bergan voqea-hodisa haqida shaxsiy fikr-mulohaza bayon qilinadi;
- 2) Tilning badiiy-tasviriy vositalaridan unumli foydalaniladi;

3) Har bir voqea-hodisa muayyan dalillar bilan ishonarli tarzda aks ettiriladi. Bu matn turlariga ilmiy, ommabop(publitsistik) va badiiy uslublarda yaratilgan matnlarni, shuningdek, inshoni kiritish mumkin.

#### **V. Yangi mavzu bayoni.**

Yangi mavzu avvaldan o'quvchilarga tarqatilgan bo'lib, o'quvchilar mustaqil o'qib kelishi topshiriladi. O'quvchilar mavzuni nechog'li o'zlashtirganliklarini "Bumerang» metodi asosida guruhlariga bo'lingan holda tushuntirib berishadi, Mavzuning yaxshi o'zlashtirilmagan joylari o'qituvchi tomonidan to'ldirilib boriladi.

Hujjat tayyorlash va ish yuritishda imlo me'yorlariga va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga qat'iy amal qilish lozim.

Hujjat matnida *vergul*, *nuqtali vergul*, *ikki nuqta*, *qavs*, *tire* nisbatan faol ishlatiladi.

Unutmangki, hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin *nuqta* qo'yilmaydi.

#### **VI. Yangi mavzuni mustahkamlash: "Zig-zag" usuli**

**1-topshiriq.** Ayrim tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatadigan mashqlar tizimini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Tire bilan chiziqchanning vazifalarini tushuntiring. Ularning farqli jihatlarini misollar orqali izohlang.

#### **VII. Darsni yakunlash va uyga vazifa.**

Ijtimoiy hayotda o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lgan hujjat matnlaridan o'rinli, nutq sharoitiga mos ravishda foydalanish uchun ularning bir-biridan farqli va o'xshash jihatlarini puxta bilishingiz zarur bo'ladi. Ana shundagina betakror ona tilimizning ifoda qudratidan, bebaho gavharlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lasiz.

- Dars yakunida o'qituvchi dars tugaganligini aytib, daftarlarga uy vazifasini yozdiradi:

- Daftarga qo'shimcha materiallardan foydalanib, konspekt qilish;
- Darslikning 29-34 betlarini o'qib kelish;

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. S.A.Karimov, Sh.M.Maxmatmurodov, O.N.Karimova «Nutq madaniyat va davlat tilida ish yuritish». Toshkent – «O‘zbekiston» 2003, 96-104 betlar.

2. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo‘ldoshev «Davlat tilida ish yuritish». Toshkent, 2008. 17-18 bet.

3. N.Bekmirzayev «Notiqlik madaniyati». Toshkent, 2003

3. A.Nurmonov, A.Sobirov, SH.Yusupova « Hozirgi o‘zbek adabiy tili», – T.: 2002 .

### **Tayanch iboralar:**

*Punktuatsiya, tinish belgilari, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, vergul, qavs.*

### **Dars vaqtini rejalashtirish:**

1. Tashkiliy qism: 2 daqiqa.
2. O‘qituvchining kirish so‘zi: 3 daqiqa.
3. O‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar:  
20 daqiqa.
4. O‘tilgan mavzuni xulosalash: 5 daqiqa.
5. Yangi mavzuni tushuntirish: 40 daqiqa.
6. Yangi mavzuni mustahkamlash va umumlashtirish: 5 daqiqa.
7. Darsni yakunlash va uyga vazifa 5 daqiqa.

JAMI: 80 daqiqa

2-ilova

### **Savol va topshiriqlar:**


1. Dars ishlanmasiga e’tibor bering: u qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Dars maqsadi bilan tanishing. Uni yanada aniqroq ifodalashga urinib ko‘ring.
3. Mavzuga oid savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.
4. Vaqt taqsimotini alternativ tarzda bo‘lishga harakat qiling.
5. Namunadan foydalanib, bitta mashg‘ulot uchun ishlanma tayyorlang.
6. Ta’lim bosqichlari dasturlari haqidagi tushunchangiz qanday?
7. Umumiy o‘rta ta’lim maktab ona tili dasturi haqida gapiring.

8. Dastur va darslikning o‘zaro bog‘liqligi nimada. Uni tushuntiring.

9. Muctahkamlash qismidagi savol va topshiriqlarni o‘zingiz bajarishga harakat qiling.

10. Dars vaqtini rejalashtirish anlozasiga qarab quyidagi mavzularning vaqt taqsimotini ishlab chiqing: «Bo‘g‘in. Bo‘g‘in turlari va ko‘chirish qoidalari», «Yozuv tamoillari (fonetik, morfologik, shakily)».

### Mavzu haqida o‘qituvchining kirish so‘zi



#### Savol va topshiriqlar:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili dasturlari haqidagi tushunchangiz qanday?

2. Dastur va darsliklarning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.

4. Amaldagi dastur bilan uzviylashtirildan dastur orasidagi farqni aniqlang va izoh bering.

1-Topshiriq. «Dasturning tuzilishi, tarkibi va mazmuni» mavzusi yuzasidan berilgan rejaga maruza tayyorlang.

### DASTURNING TUZILISHI, TARKIBI VA MAZMUNI

#### R E J A:

1. Dastur davlat hujjati sifatida.

2. Dasturning tarkibi va mazmuni.

3. Darsliklar, ularning tuzilishi va mazmuni.

2-topshiriq. «Qarisi bor uyning parisi bor» mavzusida matn tuzing.

3-topshiriq. Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan rasm asosida hikoya tuzing.

4-topshiriq. Darsliklar bilan birgalikda o'qituvchi uchun metodik qo'llanma yaratilmoqda. Metodik qo'llanmada har bir darsning o'qitish metodikasi, darslikdagi mavzularga qo'shimcha ma'lumotlar, mashg'ulotlar, topshiriqlar o'rin olayapti, bu esa o'qituvchiga har bir darsni mazmunli qilib o'tishiga imkon yaratiladi. Siz 5-sinif ona tili fani uchun yaratilgan metodik qo'llanmaga taqriz yozing.

***Savol va topshiriqlar:***

- 1. 5-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar bilan yaqindan tanishing. Ularning dastur bilan uyg'unlik darajasiga baho bering.*
- 2. 6-sinf darsligida alohida til sathlarining qanday yoritilganligiga e'tibor bering. Ulardagi materiallarni mantiqiy qismlarga ajrating. Hamma til sathlari uchun umumiy bo'lgan o'rinlarni, alohida til sathlari uchungina qo'llangan usullarni ajrating.*
- 3. Badiiy matnning taqdim etilish shakliga e'tibor bering. 7-sinf misolida matnlarga beriladigan topshiriq va izohlar tizimini o'rganib chiqing.*
- 4. 8-sinf darsligidan nazariy materiallarning berilishini kuzating. Ularning o'quvchilar yoshiga hamda adabiy tayyorgarligiga mutanosibliqi haqidagi o'z fikringizni asoslang.*
- 5. Har bir sinf darsligidagi savol va topshiriqlar tizimini o'rganib chiqing. Ularda o'quvchini bevosita ijodiy ishlarga undaydiganlarining salmog'ini aniqlang. Bunday topshiriqlarni ko'paytirish uchun nimalar qilinishi mumkinligi haqida o'z fikringizni bildiring.*
- 6. Darsliklarda mualliflarning tili qaysi darajada aks etgan. Ularning har bir sinf o'quvchilari uchun munosiblik darajasiga baho bering.*

***2-Topshiriq.*** *Matnni o'qing, amaldagi dastur bilan uzviylashtirildan dastur orasidagi farqli jihatlarini izohlang.*

*Akademik litseylarda Ona tili «Hozirgi o'zbek adabiy tili» nomi ostida uchala bosqichda ham o'rganiladi. O'quv dasturiga muvofiq birinchi bosqichda «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanini o'qitish mundariyasi quyidagi ikki bo'limni o'z ichiga oladi:*



*«1. Birinchi bo‘limda o‘quvchilarni har bir sinfda umumiy til bilimiga suhbat asosida induktiv yo‘l bilan olib kiriladi. Bu bilan aloqa vositasi bo‘lgan tilning doimiy o‘shida, rivojlanishda bo‘lgan yaxlit tizim ekanligi singdiriladi.*

*2. Ikkinchi bo‘limda esa har qaysi sinfda o‘quvchilarning o‘rta umumiy ta‘limda «Hozirgi o‘zbek adabiy tili fani bo‘yicha olgan bilimlari chuqurlashtiriladi».*

*I bosqichda jami 80 soat, shundan 16 soati yozma nutqni o‘stirish uchun) ajratilgan.... Ularning ichki bo‘linishi quyidagicha:*

*A) Kirish suhbat (3 soat)*

*B) Hozirgi o‘zbek adabiy tili ta‘limi asoslari (3 soat)*

*S) O‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari (2 soat)*

*D) Fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya (22 soat)*

*E) Morfemika (12 soat)*

*Yo) Punktuatsiya ( 8 soat )*

*J) O‘zbek tilining yangi imlo qoidalari (10 soat)*

*Z) So‘z yasalishi(10 soat)*

*I) Insho nazariyasi va amaliyoti (10 soat)*

**3-Topshiriq.1.** *Endi bo‘limlardan biri uchun darsning texnologik xaritasini tuzing.*

*2. Ularning har biri uchun soatlarning taxminiy rejalashtirishini ishlab chiqing. Bunda nimalarga e‘tibor berganingizni izohlang.*

**4-Topshiriq.** *Matn bilan tanishing, quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.*

*Akademik litseylar uchun tuzilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» dasturida ta‘lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka alohida ahamiyat berilgan. Hozirgi kunda akademik litseylarning barcha bosqichlari uchun darsliklar shu dastur asosida yaratilmoqda.*

*«Ona tili va adabiyot» dasturida asosiy mavzular ona tilining izchil kursini taqdim etishga qaratilgan.*

*Dastur va darsliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumta‘lim maktablari uchun yaratilgan darsliklarda ta‘lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka muayyan darajada e‘tibor berilgan. Shunga*

*qaramay umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari dastur va darsliklarida ayrim takroriyliklar uchraydi. Akademik litseylar uchun yaratilgan dasturda ham, darsliklarda ham uzviylikka qat'iy rioya qilingan. Ularning oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi uchun ham mustahkam zamin tayyorlashi lozimligi e'tiborga olingan.*

*Darsliklar fanning mohiyatiga, o'quvchining yoshiga, uning bilim darajasi va umumiy adabiy tayyorgarligiga qarab tuziladi. Odatda, har bir darslikning bosh qismidagi «Kirish», «Muqaddima», «O'quvchilarga» deb nomlanadigan qismda umumiy maqsad va vazifalar bir qadar muayyanlashtiriladi. Jumladan, Akademik litseylarning 2-bosqichi uchun yaratilgan darslikning «Kirish» qismida, shunday deyiladi: «Ma'lumki, til hodislari nutqda voqe bo'ladi. Har bir xalq asrlar davomida o'z tili ustida ishlab sayqallashtirib, uni go'zallashtirib boradi. Xalqning ijtimoiy hayotida ro'y bergan barcha o'zgarishlar uning tilida, birinchi galda lug'at jamg'armasida o'z aksini topib boradi. Shu ma'noda so'z va uning xususiyatlari haqida ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lish, nutqda so'zlardan o'rinli foydalana olish jonajon O'zbekistonimizning kelajagi sanalgan Siz – yoshlar uchun nihoyatda muhim sanaladi». «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalarining o'z fikrlarini yozma va og'zaki ravishda emin-erkin bayon qila olishlari lozimligi qayta-qayta ta'kidlangan».*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Dastur nima? Ona tili dasturlarining mohiyati haqida gapirib bering.
2. Dastur va darsliklardagi tafovutlarni aniqlang.
3. Sinflar orasidagi uzviylik va uzluksizlikka e'tibor bering. Uzviylik ta'minlangan o'rinlarni misollar asosida ko'rsating.
4. Dasturda nazariy ma'lumotlarning sinflararo uzviyligiga e'tibor bering. Fikringizni misollar asosida izohlang.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturidagi kirish so'zi (uqtirish xati) bilan tanishib chiqing. Undagi eng asosiy masalalar sifatida nimalarga e'tibor berilganini izohlab bering.

6. Dasturning tarkibiy qismlarini tushuntiring.

7. Dastur va darslikning mutanosibligini kuzating. Buning uchun mavzular va ularga ajaratilgan soatlar, darslik materiallarini tahlil qiling.

8. Dasturlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinganmi? Bu nimalarda namoyon bo'ladi?

9. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining ona tili dastur bilan tanishib uning boshlang'ich sinflardagi ona tili darslari bilan uzviyligiga va uzluksizligi haqida ixcham taqriz tayyorlang.

10. Quyidagi ko'chirmalar bilan tanishing, quyidagi savollarga javob bering.

Ona tili ta'limini to'la amalga oshirishda darslik muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar darsliklar mazmuni va tuzilishini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Darslik o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon berishi, bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmog'i lozim.

Darslik, birinchi navbatda o'quvchini qiziqtiradigan, faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolani faoliyatga, amaliy ishga chorlaydigan bo'lishi, uning mustaqil fikrlashiga, ijodiy izlanishiga, ichki imkoniyatini ro'yobga chiqarishiga yordam berishi zarur.

«Gap shundaki, o'quvchiga kerakli yordam o'qituvchi tomonidan emas, darslik tomonidan berilishi kutilayotgan natijani samarali qiladi. Chunki o'quvchi topshiriqni muallimning buyrug'ini bajarish uchun emas, balki o'z kuchiga ishongan holda bajaradi. Unda dadillik, ishonch, tirishqoqlik ortadi. Boshqa vositalarga qaraganda darslik eng qiziq yoki tushunilishi qiyin bo'lgan o'rinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal o'ylab ko'rish imkonini berish bilan ustunlikka ega. O'quvchining doimiy hamrohi. Uyda, maktabda, xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin bo'lgan darslik o'quvchida yaxshi xulq tarkib topishida dastlab o'ziga jalb eta ola-digan, qiziqtiradigan,

o‘ylantiradigan, o‘tish davri yoshdagilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan bo‘lishi lozimdir».

11. Xo‘sh, zamonaviy darslik qanday bo‘lishi kerak?

12. «Zamonaviy darslik davlat ta'lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o‘zlashtiri-lishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan, rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo‘lishi lozim».

13. Darsliklarda til haqidagi ta'limot hamda shu tilning amaliy jihatlarini tasavvur qilishga imkon beradigan hodisalar aks etadi. Bunda nimalarga e'tibor berish kerak?

14. 5, 6 sinflar darsliklari bilan tanishing. Ularni bezatilishiga ko‘ra oldingi nashrlar bilan qiyoslang.

15. O‘quvchilar ona tili fanidan 5-9 sinflarda qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart?

16. Gramatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlar haqida nimalarni ayta olasiz.

17. Nutqni o‘stirish yo‘nalishlarini sanab o‘ting.

18. DTSda ona tili ta'limining maqsad va vazifalari bekgilab berilgan Ular bilan tanishib, shu qisimni daftaringizga ko‘chirib yozing.

19. DTS ga ko‘ra 5 sinfla ham 6 sinfdam morfologiya bo‘limi o‘rganiladi ularning qanday farqi borligini aniqlang.

20. Darsliklarning bezatilishi ham alohida o‘rin tutadi. Hozirgacha ona tili darsliklarining katta qismida rasm va boshqa illyustratsiyalardan juda kam foydalaniladi. Rasmlar asosan oq-qora rangdagi tasvirlardangina iborat, xolos. Ularda turli jadvallar, sxemalar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati ancha kattaligini eslatish joiz ko‘rinadi. Shu nuttai nazardan 5 sinfdagi hol va uning ifodalanishi 6 sinfdagi «Ot so‘z turkumi» mavzulari uchun illyustratsiyalar tanlang.

21. 6 sinf ona tili darsligining takrorlash bo‘limidagi savol va topshiriqlar bilan tanishing ularni tasnif qilish haqida o‘ylab ko‘ring.

22. Shu sinfdagi mashqlar bilan tanishib, savol va topshiriqlar tuzing.

23. Darsliklarning ilmiy apparatiga savol va topshiriqlar, lug‘at va izohlar ham kiradi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinflaridagi Ona tili darsliklarida savol va topshiriqlarning soni ham, mazmuni ham rang-barang. Ular bir-biridan katta farq qiladi. Bu mualliflarning yondashuvlariga, til materialining xarakteriga ham bog‘liq. Bularning barchasi o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirishlarida qanday yordam berishini izohlang.

24. Darslik materiallari bilan tanishish asosida ularni qanday turkumlarga ajratish mumkinligini aytib bering:

1. O‘quv materialini qayta esga olishga undaydigan – reproduktiv xarakterdagi savollar.

2. Ayrim ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan savollar. Bunga bevosita tegishli matn ustida ishlash, o‘lkashunoslik materiallarini izlash, topish va undan foydalanish, ayrim jadvallarni tuzish, axborot va referatlar tuzishni kiritish mumkin.

3. Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladigan savollar. Bular sirasiga matndagi til hodisalarining izohini berish, ayrim berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, berilgan sxema asosida matn yaratish, matndagi til hodisalarining izohini berish, matndagi xato va nuqsonlarni aniqlash, insho yozish, boshqa ijodiy ishlarni amalga oshirish mansub bo‘ladi.

25. 6-,7-, 8-sinf Ona tili darsliklarining ikkita: yangi va eski variantlarini qiyoslang. Ulardagi o‘zgarishlar nimalarda namoyon bo‘lgan?

26. Yuqorida «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» o‘quv qo‘llanmasidan olingan parcha bilan tanishdingiz. Unga o‘z munosabatingizni bildiring.

27. O‘quv adabiyotlarining qanday turlarini bilasiz? Ularning tavsifini ayting.

28. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklarning asosiy xususiyatlarini aytib bering.

29. Kasb - hunar kollejarining darsligi «Ona tili va adabiyot» darsligi deb nomlanadi. Bunda ona tili mavzularining o‘rganilishiga 40 soat ajratilgan bo‘lib, unda til sathlarining turli ko‘rinishlari va ularni tahlil qilishga oid namunalar berilgan. Maskur dasturga ixcham taqriz yozing.

Mazkur darslik bilan tanishing va bo‘limlar bo‘yicha savollarga javob bering:


**Savol:** 1. « Leksikologiya nimani o‘rgatadi?

2. So‘z ma‘nosining ko‘chish yo‘llari qaysilar?
3. Shakldosh, ma‘nodosh va zid ma‘noli so‘zlarga misollar ayting.
4. Atama deb nimaga aytiladi?
5. Shevaga xos so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
6. Eskirgan va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar ayting.
7. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari qaysilar?
8. O‘z va o‘zlashgan qatlam haqida gapirib bering.


**Topshiriqlar:**

1. Maktab ona tili dastur va darsliklari haqida fikringiz.
2. Ona tili darsliklari uchun yaratilgan metodik qo‘llanmalarning ta‘lim samaradorligini oshirishdagi roli qanday? Misollar asosida izohlab bering.
3. Akademik litseylarning 1 bosqichi uchun yaratilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida nazariy materiallarning berilishi haqida fikringiz.
4. Kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan «Ona tili va adabiyot» darsligining ona tili qismini maktab darsliklari materiallari tahlili asosida uzviylikning ta‘minlanganlini aniqlang.
5. Endi bu savol va topshiriqlarga o‘quvchilarning yozma nutqini oshirishga yordam beradigan vazifalarni tuzing.


3 iloba



## Ona tili o'qitish metodikasi maqsadlari



An'anaviy ta'limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:



## **Bir soatlik dars ishlanma (namuna)**

**Mavzu:** Sifat so‘z turkumi

**Darsning maqsadi:**

**1) Ta’limiy maqsad:**

- 1) o‘quvchilarning so‘z turkumlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish
- 2) Gapdagi vazifalari to‘g‘risidagi:

**a) Tarbiyaviy maqsad:** yosh avlod xususida Vatan tuyg‘ularini o‘stirish

**3) Rivojlantiruvchi ta’lim:** O‘quvchilarni Tabiat haqidagi dunyoqarashini o‘stirish

**Darsning turi:** Aralash

**Darsning usuli:** savoljavob, guruhlarda ishlash

**Darsning jihozi:**

**1) Didaktik jihoz:** rangi suratlar –O‘zbekiston gullar, Abdulla Oripov rasmi, so‘z turkumlari jadvali, bahorgi tabiat rangi (267-mashqqa)

### **Darsning borishi**

1. Tashkiliy qism:

- 1) O‘quvchilar davomatini tekshirish
- 2) O‘quv qurollarini mavjudligini, o‘quvchilar formasini, navbatchilar ishini tekshirish

2. Uy vazifasini tekshirish:

1) She’rni ifodali o‘qish, ko‘chirish, ot yasovchi qo‘shimchalarini topib belgilash, yasovchi qo‘shimchalar qanday otlarni hosil qiladi?

Qishda ham ko‘m-ko‘k shoxing

So‘lmaydi hech yaprog‘ing

Uying-archazor bog‘ing,

Yashna-yashna jon archa (Shukur Sadulla)

2) mashq og‘zaki tahlil qilinadi

3) Mustahkamlash uchun savollar

a) qanday qo‘shimchalar ot yasovchi qo‘shimchalar deb ataladi?

b) qaysi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilinadi?

v) quyidagi so‘zlardan yangi so‘z hosil qiling:



bino– ...                      sinf–...  
tarbiya–... taxta–...  
parta–...                      chegara–...  
soat–...                      gul–...

3 O‘tilganlarni mustahkamlash

Og‘zaki.

1-Topshiriq. She’rni ifodali o‘qish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering va qaysi so‘z turkumiga kirishini ayting.

Ona tilim. Abdulla Oripov

**Ming** yillarkim bulbul kalomi

**O‘zgarmaydi**, yaxlit hamisha

Ammo sho‘rlik to‘ting holi

O‘zgalarga taqlid hamisha

Ona tilim, sen borsan shaksiz,

**Bulbul** kuyin **sherga** solaman.

Sen yo‘qolgan kuning, shubxasiz,

Men ham **to‘ti** bo‘lib qolaman.

Umumlashtirish.

–she’r atoqli yozuvchi Abdulla Oripov qalamiga mansub. Shoir «O‘zbekiston qahramoni» unvoniga sazovar. Chunki u so‘z san’ati, mahorati bilan xalq uchun she’rlar yaratadi. She’rlari o‘zbek o‘tmishi tarixi va hozirgi mustaqil yurtdagi hayot farovonligi haqida. Buyuk kelajak to‘g‘risida haqqoniy yozaman. Hozirgi she’ri ham ozbek ona tili to‘g‘risida yozaman. Uning buyukligi, serqirraligi yoritilgan.

Ming – qancha?– son–

O‘zgarmaydi– nima qilmaydi?– fe’l

Bulbul– nima?– ot

She’rga – nimaga? –ot


To‘kis– nima? –ot ( o‘quvchilar baholanadi)

4. Yangi mavzuni tushuntirish: Og‘zaki

1)Quyidagi jadvalga so‘zlarni to‘g‘ri joylashtiring.

|                     |                  |                             |                                                          |
|---------------------|------------------|-----------------------------|----------------------------------------------------------|
| Kim?<br>Nima?<br>Ot | Qanday?<br>sifat | Necha?<br>Nechanchi?<br>Son | Nima qildi?<br>Nima qilyapti?<br>Nima qilmoqchi?<br>Fe'l |
|                     |                  |                             |                                                          |

Soʻzlar: qiziqarli, oʻn uch, yozyapti, daraxt, oymomo, shiladi, qaynoq. 2) Demak:




Faollashtiruvchi savollar

1) Qanday? Qanaqa soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar nimani bildiradi va qaysi soʻz turkumiga kiradi, misollar bilan izohlab bering?

2) Umumlashtiraman: Xulosa: «Sifat» haqida hukum chiqaring va izohlab bering.

3) Rasm asosida suhbat: Berilgan soʻzlarning belgilarini ayting va klaster usuli yordamida koʻrsatib bering.



Bilimlarni mustahkamlash

**2-Topshriq.** Matnni o'qing, matndagi chiziqchalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, qayta o'qing.

Ertalabga yaqin \_\_\_shamol atrofni larzaga keltirdi, damba-dam tog' boshida chaqmoq chaqar go'yo allaqanday\_\_\_ kuch osmon

gumba'zida\_\_\_\_\_ toshlarni yumalatib o'ynardi. Dam o'tmay selning ovozi,\_\_\_\_\_ toshlarning sharaqlab oqib kelayotgani baralla eshitildi.

Matn mazmunini aniq va to'liq ifodalashga xizmat qilgan so'zlarga so'roq bering. Ularni o'zi soz bilan ko'chiring.

**Qo'yishi uchun so'zlar:**

Qop-qora, kuchli, qudratli, katta-kichik, xarsang.

Kuchli shamol, qop-qora bulutlar, qudratli kuch, xarsang toshlar, katta-kichik toshlar.

**3-topshiriq:** qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni tagiga chizing. Sifatlar nimaning belgisini bildirganligini izohlang.

Sahiy ona tabiat      Ko'p      maysalar  
nish urib

Quchog'ida havo sof.      Yerning  
baland-pastida

Onda-sonda ko'rinar      Go'zal  
bahor selkillab

Nursiz, qizg'in oftob.      Yetilar      qor  
ostida

(baholayman, rag'batlantiraman)

**4-topshiriq.** Matnni o'qing, qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan ot bilan ko'chiring va uning ma'nodoshlarini klaster usulida ko'rsating. .

Qor yog'yapti. Bolalarning begubor qalbi daryodek to'lib toshyapti. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlardan oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qorning bir parchasi qizchanning oppoq xovuchiga qo'ndi. Qor qizchanning qo'lida tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumda hammayoq oq choyshabga burkandi. Bolalar oppoq qorlarni dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi.

Begubor qalbi, ko'm-ko'k o'tloq, oppoq kapalak, oppoq hovuch, tip-tinniq shudring, oq choyshab, oppoq qor.

Mustaqil ish: Beg'ubor so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.


(**Beg'ubor** –toza, musaffo, sof, pok, tiniq, shaffof, zahmsiz)

**Uy ishi:** 270-mashq

**5-topshiriq.** Namunadagi dars ishlanmaning maqsad va fazifalariga diqqat qiling. Buni yana qanday usullar bilan to'ldirish mumkin. O'zingiz dars ishlanma tuzing va darsning texnologik xaritasini ishlab chiqing.


## KO'RGAZMA QUROL VA TARQATMA MATERIALLAR


### TIL SATHLARINI O'ZARO BOG'LAB O'RGANISH




## SO‘Z USTIDA ISHLASH

### SO‘ZLARNING TUZILISH JIHATIDAN TURLARI







### SIFATLARNING YASALISHI




# SIFAT DARAJALARI



M. BIZNING UCHTA QIZIMIZ BESHINCHI QAVATDA TURADI.



## FE'LLARNING TUZILISHI



## FE'L MAYLLARI

### ANIQLIK MAYLI

Jo' nay+miz,  
kutib ola+miz,  
ket+dik.  
tuga+di,  
yakunlan+di

*Bahor nafasi  
dillarni  
zehrlaydi.*

### BUYRUQ-ISTAK MAYLI

O'tir +ing,  
qarab tur+ ing,  
kut +gil,  
ko'rsa+ ting.

*-Meni kutgil va  
men qaytarman.  
-Keling, onajon,  
o'tiring, bizni duo  
qiling.*

### SHART MAYLI

Bo'l +sa,  
ko'r+sa,  
tashkil qil+sak,  
ber+sangiz.

*Bahor kelsa,  
kunlar isisa,  
sayohatga  
chiqamiz.*

## FE'L SHAKLLARI


**HARAKAT  
NOMI**  
yasovchi  
qo`shimchalar:  
MOQ, - UV, - SH, -  
ISH,

M: YASHA + MOQ  
UCHRASH + UV  
CHIQ + ISH


**SIFATDOSH**  
yasovchi  
qo`shimchalar:  
-GAN, - KAN, - QAN,  
-DIGAN, - YOTGAN,  
- R, -AR, -AJAK,  
- GUSI, -G'USI,

M: O'QI+GAN  
bo`la+digan  
KEL+AJAK


**RAVISHDOSH**  
yasovchi  
qo`shimchalar:  
-b, -ib, -a, -ay, -ma,  
-gani,-gach, guncha,  
-kach, -qach.  
M: Bor+ib  
ko'r+gach  
bil+gani




## SIFATDOSHNING YASALISHI



**! Gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol bo'lib keladi: Ishlagan tishlaydi. O'qituvchi o'qiyotgan bolani bizga tanishtirdi. Ko'rganni eshitgan yengibdi.**



## GAPNING MA'NO JIHATDAN TURLARI



Bahor keldi.  
Gullar qiyg'os  
ochildi.  
Nodir keldi.

Karim keldimi?  
Sizni kim cha-  
qirdi?  
Nodir keldi?

O'ringdan tur.  
Ertaroq kelgin.  
Darsingni  
tayyorla!  
Darvozani och!

Men o'z  
xalqimni  
sevaman!  
Behzod  
keldi!

## UYUSHIQ BO'LAKLARNING SINTAKTIK

EGA

-Ahmad, Salim, Aziza so'zga chiqdilar.

KESIM

-Valijon uzoq o'yladi, yozdi, chizdi.

ANIQLOVCH

-Talabalar keng va yorug' xonada oqiydilar.

TO'LDIRUVC

-Men yoz vaqtida ko'plab shahar va qishloqlarni ko'rdim.

HOL

Quruvchilarimiz uylarni tez va soz qurdilar.

## BOSH KELISHIKDAGI SO'ZLARNING SINTAKTIK VAZIFASI

EGA

M: Ot qattiq kishnadi

OT-KESIM

M: Men - talabaman. Otam - o'qituvchi

VOSITASIZ TO'LDIRUVCHILAR

M: Menga o'nta ruchka bering.

ANIQLOVCHI

M: Oltin sandiq ochildi.

PAYT HOLI

Seni o'n yil kutdim. Kuzda kechki olmalar g'arq pishdi.

IZOHLOVCHI

Quruvchi - muhandis ma'ruza qildi.